

**O'.Asqarova, Z.Qoraboeva, M.Samidjonova**

***MAKTABGACHA TA`LIM METODOLOGIYASI***



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS  
TA`LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAKTABGACHA TA`LIM METODOLOGIYASI  
(o`quv qo'llanma)**

5A111801-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)

**Namangan - 2020**

## **Maktabgacha ta`lim metodologiyasi**

**O‘M.Asqarova, Z.T. Qoraboeva, M.X .Samidjonova**

Ushbu o‘quv qo‘llanma oliy ta’lim muassasalari magistraturaning malakaviy talablari asosida va « Maktabgacha ta`lim metodologiyasi » kursining namunaviy o‘quv dasturiga muvofiq ravishda yaratildi. Unda ilmiy tadqiqot metodologiyasi, uning tarkibi, tuzilishi, vazifalari va unga bo‘lgan zamonaviy yondashuvlar hamda undan amalda foydalanishga doir tavsiyalar bayon qilingan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma oliy ta’lim muassalarining magistrleri, shuningdek, professor-o‘qituvchilar hamda tadqiqotchilar va o‘qitish metodikasi bo‘yicha shug‘ullanayotgan tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

### ***5A111801-Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim)***

**Taqrizchilar:** pedagogika fanlari doktori,  
dotsent **N.Sh.Erkaboeva**

pedagogika fanlari nomzodi,  
dotsent **M. Nishonov**

## **Методика дошкольного образования**

**У.М.Аскарова, З.Т. Корабоева, М.Х.Самиджонова**

Этот учебник основан на квалификационных требованиях для получения степени магистра в области высшего образования и в соответствии со стандартной учебной программой курса «Методология дошкольного образования». Описаны методология научного исследования, его состав, структура, задачи и современные подходы к нему, а также рекомендации по его практическому применению.

Этот справочник может быть использован мастерами высших учебных заведений, а также профессорами и исследователями, а также исследователями, работающими в области методики преподавания.

**5А111801-Теория и методика воспитания (дошкольное образование)**

**Рецензенты:**

доктор педагогических наук,  
доцент **Н.Ш.Эркабоева**

кандидат педагогических наук,  
доцент **М. Нишонов**

## MUNDARIJA

**SO'Z BOSHI.....5**

### **I-MODUL.PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY ASOSLARI**

Pedagogik tadqiqotlarning mazmuni.....	10
Pedagogik tadqiqotlarning asosiy kategoriyalari va tushunchalari .....	26
Pedagogik tadqiqotlarda ilmiy dalillar va ularningroli.....	42

### **II MODUL.METODOLOGIK APPARAT VA TADQIQOT SIFATINI TA'MINLASH**

Pedagogik muammonitanlash va pedagogik tadqiqot mavzularini shakllantirish	
Pedagogik tadqiqotlarning obyekti va predmeti.....	57
Pedagogik tadqiqotlarning maqsadi va vazifalari.....	61
Ilmiy tadqiqotning farazi.....	68

### **III MODUL. MAKTABGACHA PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING METODOLOGIK TAMOYILLARI**

Maktabgacha pedagogik tadqiqotlarning tamoyillari.....	72
Pedagogikilmiy-tadqiqot metodlarini tasniflash muammolari.....	83
Adabiyotlar, arxivmateriallarinio‘rganish.....	87

### **IY-MODULPEDAGOGIKILMIY-TADQIQOT ISHLARINI TASHKILETISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH**

Pedagogik ilmiy-tadqiqot jarayoninimodellashtirish.....	104
Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o‘tkazish metodikasi vabosqichlar....	108
Pedagogik ilmiy tadqiqot ishlarini himoyaga tayyorlash vaommallashtirish.....	112
<b>XULOSA.....</b>	<b>134</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>137</b>
<b>GLOSSARIY .....</b>	<b>140</b>

## **СОДЕРЖАНИЕ**

<b>ВВЕДЕНИЕ .....</b>	<b>5</b>
-----------------------	----------

### **I МОДУЛЬ. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ**

Содержание и сущность педагогического исследования .....	10
----------------------------------------------------------	----

Основные категории и понятия педагогического исследования .....	26
-----------------------------------------------------------------	----

Научные доказательства и их роль в педагогических исследованиях ....	.42
----------------------------------------------------------------------	-----

### **II МОДУЛЬ. МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ОБОРУДОВАНИЕ И КАЧЕСТВО ИССЛЕДОВАНИЙ**

Выбор педагогической проблемы и формирование тем педагогического	
------------------------------------------------------------------	--

исследования.....	57
-------------------	----

Объект и предмет педагогического исследования .....	57
-----------------------------------------------------	----

Цели и задачи педагогического исследования .....	61
--------------------------------------------------	----

Гипотеза научного исследования.....	68
-------------------------------------	----

### **III МОДУЛЬ . МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ДОШКОЛЬНОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ**

Принципы дошкольного педагогического исследования .....	72
---------------------------------------------------------	----

Проблемы классификации методов педагогического исследования.....	83
------------------------------------------------------------------	----

Изучение литературы, архивов .....	87
------------------------------------	----

### **IV МОДУЛЬ. ОРГАНИЗАЦИЯ И ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ**

### **ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ**

Моделирование процесса педагогического исследования .....	104
-----------------------------------------------------------	-----

Методы организации и проведения педагогического исследований.....	108
-------------------------------------------------------------------	-----

Подготовка и объединение педагогических исследований для защиты .....	112
-----------------------------------------------------------------------	-----

<b>ЗАКЛЮЧЕНИЕ .....</b>	<b>134</b>
-------------------------	------------

<b>СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ .....</b>	<b>137</b>
--------------------------------	------------

<b>ГЛОССАРИЙ .....</b>	<b>140</b>
------------------------	------------

## **SO”Z BOSHI**

Respublikamizning mustaqillikka erishishi fanning turli yo’nalishlarda rivojlanishiga keng yo’l ochib berdi. Ayniqsa, bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimuga alovida e’tibor qaratayotgani O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi PF-4947-son “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-son “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi, 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-son “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish bo’yicha chora-tadbirlar to’g’risida”gi, 2019 yil 8 maydagagi PQ-4312-son “O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlanish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi qarorlari, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagagi 391-son “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xam ko’rinib turibdi.

O’zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida” gi Qonunida maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimiga bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishiga, shuningdek bolalarni umumiy o’rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzlusiz ta’lim turi sifatida ta’rif berilishi ham bugungi kunda bu tizimga davlatimiz g’amho’rligining alohida na’munasini anglatishi tabiiy.

5A111801-Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi (maktabgacha ta’lim) “Maktabgacha ta’lim metodologiyasi” fani magistrlarga - pedagogik tadqiqotlar metodologiyasini pedagogik muammo sifatida o’rganish, tadqiqot samaradorligini amalga oshirishda tadqiqotning metodologik asoslariga e’tibor berish, amaliy pedagogik faoliyat jarayonida tadqiqotlarni olib borishni o’rgatishmagistrlargailmiy tadqiqotlarni olib borishda, ilmiy apparat, ilmiy tadqiqot ob`ekti, predmeti, ilmiy farasi kabilar, yo’nalishlari, ilmiy tadqiqotni rivojlanish - ning mantiqiy asoslari, metodlari haqida bilim berishdan iborat

SHu nuqtai nazardan, bugungi kunda magistrlarning ilmiy-tadqiqotning nazariy asoslarini o’rganishi va egallangan bilimlarni amaliyotga tadbiq qilishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ijodning maxsus shakli bo’lgan ilmiy tadqiqot jarayoni o’ziga xos metodologik xarakterga ega. Ilmiy-tadqiqot – bu insonning o’zi va atrofidagi o’zgarishlarni anglab yetishga doimiy ravishda tayyor turish, yangicha tafakkur

qilish asosida o’z qobig’idan chiqqa olishidir. Yangi narsalarni ixtiro etishga bo’lgan intilish olimning nazariy huzur-halovatini namoyon etadi. Bu jarayonda olimlarimizning mashaqqatli mehnatlari va ijodiy izlanishlari alohida ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ko’plab olimlar ilm-fanning nazariy va amaliy masalalarini ilmiy asosda tadqiq etmoqdalar. Bizning nazarimizda nazariy g’oyalarni amaliyat bilan uyg’unlashtirish, kashfiyotlar yaratish va ixtiolar qilishda buyuk olimlar tajribasidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki ilmiy- tadqiqot jarayonida shaxs yoki jamoa jamiyat taraqqiyotini ilgarilashiga ta’sir qiluvchi yangilik yaratiladi.

Ilmiy-tadqiqot faoliyati insonga o’z-o’zini anglash, o’z-o’zini baholashga amaliy yordam beradi, ya’ni agar inson haqiqiy olim bo’lishni istasa, o’zining ehtiros va intilishlarini boshqarishi, oqilona, samarali va optimal qarorlar qabul qilishi, ezgulikka xizmat qiladigan evristik faoliyat bilan mashg’ul bo’lishi lozim. Bunday faoliyatning natijasi kashf qilish, yaratuvchanlik sifatida namoyon bo’ladi. Ushbu holat, ilmiy-ijodiy faoliyatni tahlil qilish, tushunish va unga baho berishda yangidan-yangi imkoniyatlarni ochadi. SHu nuqtai nazardan ham ilmiy-tadqiqot jarayoniga oid yondashuvlarni yanada chuqurroq tadqiq etish, uning o’ziga xos xususiyatlarini izlab topishga yordam beradi.

Ushbu qo’llanmada fanning rivojlanish bosqichlariga ta’rif berish bilan bir qatorda ilmiy tadqiqotni tizimli amalga oshirishning usul va vositalari haqida fikrlar bayon etilgan. Ulardan yosh tadqiqotchilar o’z ilmiy faoliyatlarida foydalanishiga umid qilamiz.

Magistr uchun ilmiy tadqiqot malakalari dissertatsiya tadqiqotini yuritish va muayyan lavozimlarda yuqori malakali ishlarni bajarish uchun zarur, deb faraz qilinadi.

### **Maktabgacha ta’lim magistri** - bu keng bilimli mutaxassis bo’lib, u:

Metodologiya tushunchasining mazmuni, tavsifiva funksiyalari;

- Metodologyaning umumfalsafiy darajasi;
- Metodologyaning umumilmiy darajasi;
- Metodika va metodologiya o‘rtasidagi bog‘liqlik;
- Ilmiy bilish metodologiyasi asoslari;
- ilmiy-metodik tadqiqotlarga qo‘yiladigan talablar;
- pedagogik ilmiy tadqiqotlarning shakllanish va rivojlanish tarixi;
- pedagogik ilmiy tadqiqotlarning fanlararo aloqadorligi;
- zamonaviy pedagogikkonsepsiylar;
- fundamental, amaliy va innovatsion pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirish shart-sharoitlari;
- pedagogik-psixologik tadqiqotlarga integratsion-innovatsion yondashuv;

maktabgacha ta’limda ilmiy-pedagogik izlanish metodlari ***bilimga***;

pedagogik ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va o‘tkazish;

- pedagogik ilmiy tadqiqotlar samaradorligini aniqlash;

- pedagogik tadqiqotlarda tizimli yondashuv va ma’lumotlarni qayta ishslash texnologiyasini qo‘llash;

- ilmiy tadqiqotlarni metodik jihatdan tashkiletish;

- ilmiy-metodik tadqiqotlarda ilmiy bilish metodlarini tizimlashtirish;

- ta’lim jarayonida interfaol texnologiyalarni qo‘llash va tizimlashtirish;

- ijtimoiy-siyosiy bilimlarni ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llayolish;

- maktabgacha ta’limda o‘quv jarayonini modernizatsiyalash, integratsiyalash hamda innovatsion jarayonlar bilan boyitib, amalda qo‘llay olish yuzasidan ko’nikma;

- ta’limdailmiy-metodikishlarni tashkil etish;

- maktabga chata’lim-tarbiya tizimini modellashtirish;

- ilmiy tadqiqotni bosqichma-bosqich tashkil etish;

- ilmiy-tadqiqot asosnomalarini taqqoslash;

- o‘quv va me’yoriy hujatlarni o‘rganish,tahlilqilish;

- elektron o‘quv adabiyotlar va ma’lumotlar bazasini tahlil qilish;

- ilmiy-tadqiqot natijalarini tahlil qilish;

- ilmiy-metodik tadqiqotlarda izlanish, tadqiq etish ishlarini tashkil qilish;

- pedagogik ilmiy tadqiqot ishlarini samaradorligini baholash;

- pedagogik ilmiy tadqiqot natijalariga asosan xulosalar chiqarish;

- pedagogik ilmiy tadqiqot ishlarini himoyaga malakasiga ega bo‘lishi

kerak.

Magistraturaning bosh maqsadi bu oliy o‘quv yurtlarining ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini yuritishga qobiliyatli bitiruvchilarini tayyorlashdir.Magistrlar quyidagi qibiliyatlarga ega bo’ladi:

- tadqiqot vazifalarini ifodalash;

- tadqiqot rejasini tuzish;

- axborot texnologiyalarini jalb qilgan xolda bibliografik ishlarni bajarish;

• zarur tadqiqot uslublarini tanlash, aniq tadqiqot vazifalariga asoslanib, mavjud uslublarni o’zgartirish va yangi uslublarni ishlab chiqish;

• olingan natijalarini ishslash, ularni adabiyotlardagi mavjud ma’lumotlarni hisobga olib taxlil qilish va mushoxada yuritish;

• bajarilgan ishlar yakunlarini taxrir qila olish va matbuotning zamonaviy vositalarini qo’llab, talablarga muvofiq rasmiylashtirilgan hisobotlar, referatlar, maqolalar, ma’ruzalar tezislari shaklida taqdim eta olish.

Ixtisoslashtirilgan tayyorgarlik dasturining ilmiy-tadqiqotchilik qismi yuzasidan magistrning bilimlariga quyiladigan talablar:

- tadqiqot rejasini aniq ifodalay bilish, tadqiqot muammosi, faraz va vazifalarini belgilash;
- axborot texnologiyalarini jalb qilgan xolda bibliografik ishlarni bajarish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari va ilmiy tadqiqotlarning avtomatlashtirilgan vositalarini jalb qilgan xolda zarur tadqiqot uslublarini tanlash;
- bajarilgan ishlar yakunlarini taxrir qilish va matbuotning zamonaviy vositalarini qo'llab, talablarga muvofiq rasmiylashtirilgan xisobotlar, referatlar, maqolalar, ma'ruza tezislari shaklida taqdim etish.

Magistrlik dissertatsiyasini yozish va ximoya qilish ilmiy-tadqiqot ishining pirovard natijasi hisoblanadi.

O'quv qo'llanma fan dasturiga asosida 4 moduldan iborat bo'lib, ular quyidagilardaniborat:

**1- Modul. Pedagogik tadqiqotlarning nazariy asoslari.** Pedagogik tadqiqotlarning mazmuni va mohiyati. Maktabgacha pedagogik tadqiqot metodologiyasi. Pedagogik tadqiqotlarning assosi kategoriyalari va tushunchalari. Metodologik tadqiqot va maxsus ilmiy tadqiqot. Metodologik ta'minot manbalari. Pedagogik ijodkorlik va uning o'ziga xos xususiyatlari. Pedagogik tadqiqotlarda ilmiy dalillar va ularning roli. Ilmiy dalillarning mantiqiy-genesologik mohiyati. Pedagogik tadqiqotning tuzilishi.

**2-Modul Metodologik apparati va tadqiqotsifatini ta'minlash.** Pedagogik muammoni tanlash va pedagogik tadqiqot mavzularini shakllantirish. Pedagogik tadqiqotlar muammosi. Tadqiqot muammosining dolzarbligi. Pedagogik tadqiqotlarning dolzarbligini aniqlash. Pedagogik tadqiqotlarning obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti va predmetining muhim belgilari. Pedagogik tadqiqotlarning maisadi va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi-ilmiy izlanishning natijasi. Ilmiy tadqiqotning farazi. Ilmiyfarzni belgilashning maqsadi va vazifalari.

**3-modul Maktabgach a pedagogik tadqiqotlarning metodologik tamoyillari.** Maktabgacha pedagogik tadqiqotlarning tamoyillari. Pedagogik tadqiqotlarning umumiy konkret –metodologik tamoyillari. Shaxsiy-faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv, refleksiv yondoshuv, kompetensiyaviy akmeologik yondoshuv. Ilmiy izlanuvchining metodologik madaniyati. Metodologik savodxonlik. Metodologik madaniyat. Metodologik madaniyatni shakllantirish. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlarini tasniflash muammolari. Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari tushunchalari. Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari tasnifi va tavsifi. Adabiyotlar, arxiv materiallarini o'rganish, kuzatish, suhbat va so'rov, test, eksperiment-emperik tadqiqot metodlarisifatida.

**4-Modul. Pedagogik-ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish va samaradorligini baholash.** Pedagogik tajriba-sinov ishlari dasturini ishlab chiqish metodikasi. Aniqlovchi tajriba-sinov ishlarini tashkil etish dasturini tayyorlash. Shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlarini tashkil etishdasturini tayyorlash. Pedagogik ilmiy-tadqiqot jarayonini modellashtirish. Modellashtirish jarayonini tashkil etish. Modellarning turlari. Modellashtirish –yaxlit tizimi sifatida. Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o‘tkazish metodikasi va bosqichlari. Pedagogik tadqiqotlarni tashkiletish. Pedagogik tadqiqotlarni o‘tkazish bosqichlari. Pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlarini samaradorligini aniqlash mezonlari. Pedagogik tadqiqotning matematik –statistik metodlari. Pedagogik ilmiy tadqiqot ishlarini himoyaga tayyorlash va ommalashtirish. Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi va rasmiylashtirish qoidalari. Magistrlik dissertatsiyasining dastlabki va rasmiy himoyasinio‘tkazish tartibi.

Glossariyda ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bilan bog’liq asosiy kategoriylar va tushunchalar taqdim etilgan har bir bob materialning aniq bir kismini o’zlashtirishga muayyan yakun yasaydigan o’quv axborotlarini va mustaqil ishslash uchun topshiriqlarni o’z ichiga oladi.

---

## 1-MODUL PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY ASOSLARI

---

### 1-MAVZU: PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING MAZMUNI VA MOHIYATI.

**Reja:**

1. *Pedagogik tadqiqot.*

2. *Maktabgacha pedagogik tadqiqot metodologiyasi*

**Tayanch so'zlar** *Pedagogik tadqiqot, improvizatsiya, pedagogik ijod, ilmiy tadqiqot, paradigma, gipoteza, nazariya, intuitsiya, xulosa, metodologiya.*

Pedagogik tadqiqot – bu pedagogik jarayonda yangilikni izlash va topishdir. Bunday ijodning birinchi bosqichi – o'zi uchun yangilikni kashf etish, pedagogik vazifalarni hal etishning nostandard vositalarini bilib olishdan iborat. Bunday vositalar avvaldan ma'lum, biroq pedagog tomonidan qo'llanilmagan bo'ladi. Bu yerda gap innovatsiya kabi ob'ektiv yangilik haqida emas, balki sub'ektiv yangilik to'g'risida bormoqda. Shunday bo'lsa-da, eski usul va vositalardan yangicha sharoitlarda foydalanish ham mumkin. Ikkinchi bosqich – nafaqat o'zi uchun, balki boshqalar uchun ham yangilikni kashf etish, ya'ni novatorlikda namoyon bo'ladi. Masalan, pedagogik jarayon uchun samarali bo'lgan o'qitishning yangi metodini ishlab chiqish bunga misol bo'la oladi.

*Pedagogik ijodning xususiy ko'rinishi improvizatsiya hisoblanadi.* Pedagogik improvizatsiya (lotincha improvisus – kutilmagan, tasodifiy) eng umumiy ma'noda nimanidir yaratish – kutilmagan pedagogik yechimga kelish va uni o'sha zahotiyoyq amalga oshirishni anglatadi. Improvizatsiya jarayoni to'rt bosqichdan iboratdir:

- 1) pedagogik jarayonda biron bir kutilmagan fikrga kelish;
- 2) intuitiv ravishda vujudga kelgan pedagogik g'oyani bir lahzada anglab olish va uni amalga oshirish yo'llarini tanlash;
- 3) g'oyani ommaviy tarzda bayon qilish;
- 4) pedagogik g'oyani amalga oshirish jarayonini zudlik bilan tahlil etish.

Hozirgacha fanda ilmiy-tadqiqot faoliyatni anglashga nisbatan yangi yondashuvlar shakllanayotganligini alohida ta'kidlash kerak. Chunki ilmiy hamjamiyatning hozirgi kundagi ilmiy dunyoqarashi yangi sifatiy bosqichga o'tdi. Ba'zi olimlar bu jarayonni yangi postnoklassik paradigmalar bilan izohlashga

harakat qilmoqdalar<sup>1</sup>. Mohiyatan esa, hozirda ilmiy-tadqiqot faoliyatining yangi tipologik xususiyatlari shakllanmoqda. Shunga muvofiq ilmiy faoliyatning tadqiqot ob'ekti ham o'zgarib bormoqda. Ular orasidagi gnoseologik bog'liqlik tobora epistemologik aloqadorlikka o'z o'rnini bo'shatib bermoqda. Shu sababdan ham fan taraqqiyotining hozirgi bosqichida ilmiy bilimlarni epistemologik jihatdan sintez qilish g'oyasi ustuvorlik qilmoqda. Ushbu yondashuvning ahamiyatli jihatni shundan iboratki, unda inson o'rganilayotgan ob'ektdan tashqarida emas, balki uning ichida, bilish jarayonining bir qismi sifatida faoliyat olib boradi. Bunday yondashuv natijasi o'laroq, biz ilmiy hamjamiatning haqiqat mohiyatiga yanada yaqinlashayotganligini anglaymiz. "Ilmiy faoliyat ijod bilan chambarchas bog'liq. Ilmiy xodimning bilimi, iste'dodi, qobiliyati, ko'nikmalari, ilmiy haqiqatning tagiga yetishga bo'lган intilishlari ilmiy ijodda o'z aksini topadi"<sup>2</sup>. Shu nuqtai nazardan, ilmiy ijod faqat ilmiy muammolarning yechimini izlab topishni emas, balki u dunyoni yangi tamoyillar asosida tushunish, taraqqiyot paradokslarini noan'anaviy yondashuv asosida tahlil qilish, yangi ilmiy g'oya va gipotezalar orqali ilmiy yo'nalishlarni ishlab chiqishga shart-sharoit yaratadi.

*Ilmiy-tadqiqot faoliyati insonning bevosita shaxsiy va jamoaviy bilim hamda ko'nikmalariga bog'liq.* Shu nuqtai nazardan, ilmiy faoliyat insonning bir qancha tadqiqotlari asosida yig'iladigan shaxsiy yoki jamoaviy intilishining bir ko'rinishidir. Demak, ilmiy-tadqiqot faoliyatining yangicha turini shakllantirish taraqqiyot uchun muhimdir. Zero, ilmiy ijod natijalarini amaliyotga tatbiq etish orqali jamiyat miqyosida ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda farovonlikni ta'minlash mumkin. Darhaqiqat, ilmiy-tadqiqot faoliyati insonning individual ko'nikmalari, ilmiy izlanishlari, nazariy va amaliy bilimlarining rivojlanishi natijasida tobora mustahkamlanib boradi. Aynan shuning uchun ham insonning ijodkorlik qobiliyatida bilim va ruhiy kechinmalarining uyg'unlashganini kuzatish mumkin. Zero, ilmiy-ijodiy jarayonni hech qachon sun'iy tarzda shakllantirib bo'lmaydi.

Bugungi kunda yangi ilmiy g'oyalarning insonparvarlik bilan uyg'unlashuvi fanning muhim talablardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham A.A.Koblyakov, "Odamlar murakkab ilmiy-ijodiy faoliyati natijasida, o'zligini yo'qotish xavfiga, barqaror hayotdagi bevosita yoki bilvosita bosim ostida kardinal ravishda o'zgarishiga olib kelmoqda. Bu esa ularning o'z insoniy sifatlarini yo'qotishi bilan tobora xatarli tus olmoqda. Ayni shu ma'noda, biz ilmiy yutuqlardan samarali foydalangan holda bir qutbda bir dunyo boylik to'planayotganligini, ikkinchi qutbda esa qoloqlik, qashshoqlik, kambag'allik, kasalliklar, ocharchilik

<sup>1</sup> Qarang: Yatsenko.L.V. Filosofskiye osnovaniya teorii I metodologii tvorchestva / Teoriya i metodologiya

<sup>2</sup> Saifnazarov. I., Nikitchenko G.V., Qosimov B.U. Ilmiy ijod metodologiyasi.O'quv qo'llanmasi-Toshkent: Yangi asr avlod, 2004.

hukmronlik qilayotganligini kuzatish mumkin bo'ladi"<sup>3</sup>, - deb yozadi. Darhaqiqat, bunday ijtimoiy-iqtisodiy tanglik keskin siyosiy kelishmovchiliklar, konfliktlar, diskriminatsiya, mintaqaviy ziddiyatlar, terrorchilik va boshqa xavf-hatarlarning oshib borishiga ta'sir ko'rsatishini unutmasligimiz lozim.

Zamonaviy ilmiy tadqiqot *konsepsiyalarda inson qanday kuchlar ta'sirida o'zgarishiga alohida e'tibor qaratilmogda*. Binobarin, bu yangi konsepsiyalarga muqobil ravishda axloqiy me'yorlar, tarbiya, ma'rifat va ma'naviy-madaniy muloqot jarayonidagi ideallar va qadriyatlarni kiritish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, ilmiy-tadqiqot faoliyatining insonparvarlashuvi olimlar o'rtasida o'zaro tushunish, sayyoramizda umuminsoniy ruhiy-axloqiy qadriyatlar, ya'ni insonparvarlik ruhining qaror topishiga yordam beradi. Ayni shu ma'noda, sog'lom ijodga tayangan ilmiy tadqiqot kelajagi ijtimoiy hamkorlik, insoniylikka asoslanishiga zamin yaratadi. "Ilm-fanga, ijodga qiziqish hissini bolalarda yoshlikdan uyg'otish masalasiga maktab, ota-onalar, olimlar ko'proq e'tibor berishlari lozim. Shu bilan birga ilmda yoshi o'tib qoldi, degan gap bo'lmaydi"<sup>4</sup>. Darhaqiqat, bu fikrda ilmiy-ijodiy faoliyatning axloqiy va gumanistik jihatiga e'tibor berilganligini kuzatish mumkin. Zero, ilmiy-ijodiy faoliyatda haqiqiy muvaffaqiyatga erishish uchun olimlar o'zlarining aqliy imkoniyatlarini to'liq ishlata bilishlari, yashiringan qobiliyatlarini kashf qilishlari va uni rivojlantirishlari hamda o'z aqliy va ijodiy boyliklarini boshqarishni o'rganishlari lozim.

Olim o'z tadqiqotlarining g'ayriinsoniyligi va ulardan foydalanish uchun javobgarlikni to'laligicha ishni buyurtma qilgan va unga haq to'lagan ijtimoiy kuchlar, hukumatlar, firmalar yoki ayrim shaxslarga yuklashga haqli emas. Albatta, yirik ilmiy kashfiyotning barcha oqibatlarini ham oldindan aytib bo'lmaydi. Ularni baholashda kelishmovchiliklar va xatolar bo'lishi mumkin. Ilmiy tadqiqotning maqsadlari va metodlariga berilgan axloqiy baho ham bahsli bo'lishi mumkin. Ammo bu hol bunday baholarni berish va ular uchun ijtimoiy javobgar bo'lish majburiyatini olimlar zimmasidan soqit etmaydi. Darhaqiqat, taniqli faylasuf olim Z.Davronov ta'kidlaganidek, "Olimlikning manbai tevarak-atrof, tabiat, jamiyat, insonlar turmush tarzi manbalarini o'rganish, bilim olish, ma'rifatli bo'lish bilan bog'liq. Olimlik — mashaqqat"<sup>5</sup>.

Olimlarning ijtimoiy mas'uliyati masalasi atom quroli yaratilishi munosabati bilan ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etdi. Endilikda fan yutuqlari ekologik yoki boshqa xil halokatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan har bir

<sup>3</sup> A. A.Koblyakov Osnovi obshey teorii tvorchestva (sinergeticheskiy aspekt) // Sb.: "Filosofiya nauki".M. 2002. Vip. 8. S. 96-107.

<sup>4</sup>Fayzullayev O. XX asr ziyorilari:ustozlarim va safdoshlarim / O.Fayzullayev. – Toshkent:Falsafa va huquq institute, 2008. – B.278.

<sup>5</sup> Davronov Z. Barkamollikka da'vat maktublari. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011 – B.116.

holda ushbu masala ko'tariladi. Hozirgi vaqtda olimlarning ijtimoiy mas'uliyati g'oyasi umume'tirof etilmoqda. Chunki ilmiy kashfiyotlar ishlab chiqarishda samarali qo'llaniladi va buning natijasida butun dunyo hamda odamlarning turmush tarzi ham o'zgaradi. Fandagi ijodiy erkinlik tafakkurning tabiat va jamiyat hodisalarining teran mohiyatini olib berishga muttasil intilishda namoyon bo'ladi. Kon'yunktura, sub'ektivizm ilmiy-ijodiy faoliyat ruhiga batamom yotdir. Ilmiy ijodda teranlik, ob'ektivlik, shuningdek, olingan yoki olinayotgan ilmiy bilimga tanqidiy yondashuv xosdir.

*Ilmiy tadqiqot asosida inson yangi ilmiy yo'nalishlar va yangi fanlarni vujudga keltiribgina qolmasdan, balki yangi ilmiy bilim noan'anaviy sohalarining tarkibi va tuzilishiga katta ta'sir ham ko'rsatmoqda.* Bu esa ilmiy ijodning tadqiqot doirasi kengayib borayotganligidan dalolat beradi. Bunday faoliyatning yuqori bosqichi haqida alohida to'xtalib, A.S.Maydanov: "Ilmiy ijod orqaligina fandagi noana'naviy g'oyalarni tushunish va tushuntirish mumkin. Ayni damda noana'naviy yondashuv ilmiylik manbaini, ilmiy izlanishlarning yangi bosqichini ochishga yordam beradi"<sup>6</sup>degan xulosaga keladi.

Faoliyat sohalari kabi ijodning turlari ham xilma-xildir. O'z navbatida, yana bir qancha turlarini ajratib ko'rsatish mumkin bo'lган ijodning ilmiy, texnikaviy, badiiy, musiqiy, adabiy, pedagogik turlari ajratib ko'rsatiladi. Ba'zi ijod ko'rinishlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'ladi.

**Ilmiy tadqiqotning xossalari.** Ilmiy tadqiqot real olamdagи hodisalar va umumiy qonuniyatlarni kashf etish bilan bog'liqdir. Ilmiy tadqiqotning xossalari quyidagilar:

- ilmiy-tadqiqotni amalga oshirishda mavhum, mantiqiy tafakkurga tayanish;
- timsollar, tushunchalar, mulohazalar, nazariyalar va mavhum g'oyalar ko'rinishidagi yangi bilimlar ilmiy ijodning mahsuli hisoblanadi;
- ilmiy tadqiqot jarayoni ham empirik, ham nazariy xarakter kasb etishi mumkin.

*Empirik tadqiqot kuzatish va eksperiment jarayonida ob'ekt bilan bevosita olib boriladigan amaliy ishni anglash va umumlashtirish natijasidir. Nazariy tadqiqot fanning tushunchalar apparatini takomillashtirish va rivojlantirish hamda ob'ektiv voqelikni bilvosita anglash, shuningdek, empirik tadqiqotlar materiallari asosida ishlab chiqiladigan nazariya bilan bog'liqdir.*

– Ilmiy tadqiqot ko'p hollarda jamoaviy xususiyatga ega bo'ladi. Chunki hatto alohida olingan olimlar tomonidan gipotezalar, nazariyalar, aniqlangan dalillar muhokama qilinadi, ularga taqrizlar beriladi, hamkasblar tomonidan tanqidiy baholanadi;

---

<sup>6</sup> Maydanov A.S. Intelekt reshyet neordinarnie problemii /RAN. In-t filosofii. — M.: IF RAN, 1998. — 321 s.

– ilmiy kashfiyotlar tarixiy bosqich bilan shartlangan bo’ladi. Bunday shartlanish jamiyat taraqqiyotining u yoki bu bosqichida yuzaga keladigan zaruriyatlar bilan bog’liqdir;

– ko’p hollarda ilmiy g’oya va kashfiyotlar o’z davridan ilgarilab ketadi, natijada ular jamoatchilik tomonidan bir necha o’n yilliklardan so’ng tan olinadi va ko’plab yetakchi olimlar o’limidan so’nggina shon-shuhratga erishadilar.

*Ilmiy tadqiqot intuitiv bilimdan foydalanish zaruriyatini anglatadi.* Ilmiy tadqiqotning natijasi printsipial jihatdan inson bilish jarayonining butun tarixi kontekstidagi ob’ektiv, yangi bilim hisoblanadi. Ilmiy tadqiqot jarayonidagi takrorlanmaslik mezoni faqatgina ilmiy ijodga o’ziga taalluqli bo’lib, uning natijasiga ta’sir etmaydi.

Ilmiy tadqiqot – betakrorligi, mohiyatan yangi bilimlarga erishish vositalarining o’ziga xosligi hamda natijalarning takrorlanishi bilan xarakterlanadigan bilish hodisasi bo’lib, uning asosini intuitiv bilimni o’zgartirish jarayoni tashkil etadi.

Ilmiy tadqiqotni tafsiflash uchun “har qanday haqiqat bema’nilik sifatida boshlanib, xurofotda yakunlanadi” degan hikmat ko’proq mos keladi.

**Ilmiy tadqiqotning amal qilish mexanizmlari.** *Muammo va uni to’g’ri qo’yish ilmiy tadqiqotnnig eng muhim mexanizmi (bu haqda to’liq 2 bo’limda fikr boradi)*

*Gipoteza. Ilmiy tadqiqot va ijodiy faoliyat inson intellektual salohiyatini yuksaltiruvchi omillar bo’lib, bular orqali insonning biladigan haqiqati ham bilimdan iborat bo’ladi, aql esa ilmdan quvvat oladi va shuning bilan birga ilm ham egallanadi.* Bu jarayonda gipotezaning o’rni beqiyos hisoblanadi. Ayni shu ma’noda, S.Yu.Saurov “Gipoteza fenomeni nazariyani yaratishning dastlabki bosqichidir”<sup>7</sup>, deb yozadi. Mazkur fikrda gipotezaning dinamik xususiyati yoritib berilgan bo’lsa-da, uning ehtimoliy asoslarga tayanishi ochib berilmagan. Zero, ilmiy-ijodiy faoliyatda gipoteza orqali tadqiq etilayotgan muayyan hodisaning ehtimol tutilgan yangi asoslari va sabablari haqidagi farazlar, taxminlar, fikrlar muhim o’rinni egallaydi.

Gipoteza deganda yangi ilmiy izlanish jarayonida dalillarning mohiyatini tushuntiruvchi qonun mavjudligi haqidagi asosli taxmin ko’zda tutiladi. Gipoteza odatda olimlar tomonidan ilmiy muammoning qo’yilishiga sabab bo’lgan ilmiy dalillarni taxminiy tushuntirish maqsadida ham ishlab chiqiladi. Bunda gipoteza nazariy va empirik talablarga javob berishi talab etiladi. Agar bunday tekshirishning iloji bo’lmasa, gipoteza ilmiy jihatdan asossiz, deb topiladi. I.Saifnazarov, G.Nikitchenko, B.Qosimovlarning ta’kidlashicha, “Ilmiy ijod

<sup>7</sup>.Saurov S.Yu Nauchnaya gipoteza v kontekste metodologii estestvoznaniya / S.Yu.Saurov. - Kirov: VyatGGU, 2009 (Kirov : Staraya Vyatka). - 166 s.

jarayonida gipotezalarning to'g'riliqi, ziddiyatsizligi bir necha karra sinovdan o'tkaziladi. Tekshiruvlarning ijobjiy natijasi gipotezaning to'g'riliqini tasdiqlaydi yoki gipoteza haqqoniy ilmiy nazariyaga aylanganini ko'rsatadi. Bu ilmiy ijodning tantanasi, chinakam ilmiy kashfiyotdir. Ilmiy ijodda teran, mazmunli gipoteza ilmiy bilimning o'sishi, fanda prognoz va bashorat qilish, ilmiy qonunni kashf etish va nazariya yaratish uchun pishiq poydevor bo'lib xizmat qiladi”<sup>8</sup>. Bu fikrdan ma'lum bo'ladiki, gipoteza asosida inson bilimsizlikdan bilimga, nomukammal va nohaqqoniy bilimdan mukammal va haqqoniy bilimga, dalillarni o'rganishdan ob'ektiv mavjudlikning ichki mantig'ini bilishga, ilmiy nazariyani shakllantirishga, bir nazariyadan bilimning yuqori darajasidagi boshqa nazariyaga o'tish imkoniyatiga ega bo'ladi. Leybnits: “Agar gipoteza quyidagi uch shartni qanoatlantirsa, u asosli bo'ladi: birinchidan – u sodda bo'lsa; ikkinchidan – ko'p sonli hodisalarni tushuntirsa; uchinchidan – yangi hodisalarni bashorat qilishga yordam bersa”<sup>9</sup>, - deb ta'kidlaydi. Mazkur uchta shartning oxirgisi aynan ilmiy-ijodiy faoliyatda namoyon bo'luvchi gipotezaning mazmun-mohiyatini ifodalaydi.

*Nazariya - bu tabiat va jamiyat qonunlarining tushunishgagina emas, balki unga faol ta'sir etib aqliy asosda o'zgartirishlar kiritish haqidagi ilmiy g'oyalar to'plamidir.* Ilmiy bilishda nazariya hodisalarning muayyan turkumi, bu turkumdagi hodisalarning mohiyati va ularga nisbatan amal qiladigan borliq qonunlari haqidagi bilimlarning mantiqiy asoslangan va amaliyot sinovidan o'tgan tizimi sifatida ham talqin etiladi. U o'rganilayotgan hodisalarning mazmunini yorituvchi tabiat va jamiyat umumiy qonunlarining kashf etilishi natijasida shakllanadi. Nazariya tarkibiga uning asoslari sifatida mavjud bo'lgan va yuzaga kelishini belgilagan barcha elementlar kiradi. Dastlabki nazariy negiz, ya'ni jamuljam holda tadqiqot ob'ekti haqida umumiy tasavvurni, ob'ektning ideal modelini tashkil etuvchi ko'p sonli tamoyillar, aksiomalar, qonunlar nazariyaning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Nazariy model ayni vaqtida asosiy nazariy tamoyillar tizimiga tayanuvchi kelgusi tadqiqotlar dasturi hamdir.

Hozirgi kunda sub'ektning faolligiga hech kim shubha qilmaydi. Chunki turli-tuman nazariyalarning hammasi insonning mehnat mahsulidir. Ilmiy-ijodiy izlanishlarda nazariya tushuntirish, bashorat qilish, amalda sinash va sintez qilish kabi muhim funksiyalarni bajaradi. Jumladan, nazariya ilmiy dalillar tizimini tartibga soladi, ularni o'z tarkibiga kiritadi va o'zini tashkil etuvchi qonunlar va tamoyillardan oqibatlar sifatida yangi dalillarni yaratadi. Puxta ishlab chiqilgan nazariya fanga ma'lum bo'lmagan hodisalar va xossalarni bashorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Nazariya odamlar amaliy faoliyatining negizi bo'lib xizmat qiladi, ularga tabiiy va ijtimoiy hodisalar dunyosida yo'l ko'rsatadi.

<sup>8</sup> Qarang:Saifnazarov I., Nikitchenko G. V., Qosimov B. O'quv qo'llanmasi – Toshkent: Yangi asr avlod, 2004.

<sup>9</sup> Qarang: Lebnits G.V.Sochinaniya v 4-x t.T. 1. M, 1982. S. 16.

Nazariyada ilmiy g'oyalar, ya'ni unda aks ettirilgan ob'ektlar turkumi doirasida amal qiluvchi fundamental qonuniyatlar haqidagi bilimlar markaziy o'rinni egallaydi. Ilmiy g'oya mazkur nazariyani tashkil etuvchi qonunlar, tamoyillar va tushunchalarni mantiqan izchil yaxlit tizimga birlashtiradi. Odatda sabablarni aniqlash o'rganilayotgan ob'ektning mohiyatini ochish bilan bog'liqdir. Nazariyaning vazifasi sababni aniqlagan holda hodisaning tabiatini tushuntirishdan iborat.

Ilmiy nazariyani shakllantirishda unda foydalaniladigan atamalarni aniqlash muhim. Aniqlash protseduralari ikki asosiy vazifani bajaradi: 1) mavjud nazariyaga yangi atamalarni kiritish; 2) biror atamani uni boshqa atamalar vositasida tavsiflash orqali ma'nosini namoyon qilish. Shunga mos ravishda ikki kompleks masala yuzaga keladi: atamalar kiritishga oid masalalar va atamalarning boshqa atamalar orqali aniqlanishiga oid masalalar. Shunday ham bo'lishi mumkinki, nazariyaning biror atamasi «ortiqcha»lik qiladi. Bunda bu atamaga tegishli tushunchani qolgan tushunchalar orqali ifodalash mumkin. Boshqacha so'z bilan aytganda, nazariyani boshqa atamalar orqali aniqlanmaydigan atamalar sonini kamaytirish yo'li bilan soddalashtirish mumkin.

*Qonun.* Ilmiy-tadqiqotda qonunning o'rni muhim hisoblanadi. *Ilmiy adabiyotlarda qonun tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berishda, avvalambor, uning mohiyat tushunchasi bilan bog'liqligiga, qonuniyat va tendentsiya (rivojlanish) tushunchalariga, gnoseologik tomondan esa – gipoteza (faraz), nazariya, model tamoyiliga e'tibor qaratiladi.* Biroq qonunning voqeahodisalar orasidagi qarama-qarshilik holatlarini (tasodifiy, ahamiyatsiz, tartibsiz va h.k.) bir-biriga bog'lovchi mustahkam takrorlanuvchan, zarur, ahamiyatli, aloqa sifatida solishtirish umumiy masalaning yechimini topib bera olmaydi. Chunki qonunni faqat alohida olingen qarama-qarshi xususiyatlar bilan emas, balki bu xususiyatlarning majmuasi, deb solishtirgan holatdagina biz qonun dialektikasini ko'rsatib o'tilgan xususiyatlar kompleksi sifatida tushunishimiz mumkin. Har qanday qonun aniq sabablar asosida shakllanadi. Shu ma'noda, qonun nisbiy doimiylikni ifodalaydi. Qonun mohiyatning barqaror alomatlarining takrorlanishi hamda barcha jabhalardagi munosabatlarning mustahkamligini ifodalaydi. Turg'un bo'lмаган ташқи belgilarning o'zgarishi qonunning tabiatini o'zgartirmaydi. Qator narsalarning barqaror belgilari takrorlanib turar ekan, bu narsalarga umumiy qonunlar xosdir. Bir toifadagi narsalar uchun umumiylikning mavjudligi tufayli ularning harakati va faoliyati ma'lum bir doimiylik, takroriylik bilan tavsiflanadi, ya'ni ularning o'zgarishiga ma'lum bir yo'nalish xosdir.

Qonunning mavjudligini tashkil etuvchi barcha omillar unga nisbatan zaruriyat bilan tavsiflanadilar va bunday qonunga noaniqlik xos emas. Qonun narsalar orasidagi turg'un munosabatlar o'rnatilishini bildiradi. Qonun – tabiat va

jamiyatdagi voqealari, hodisa hamda jarayonlar o'rtasidagi munosabat hamdir. Qonun – ob'ektiv olamdagisi narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikning shakli, biror bir narsaning zaruriy ravishda paydo bo'lishini ifodalovchi tushuncha. Qonunni qonuniyatlardan ajrata bilish kerak. Albatta, qonun va qonuniyat bir xil turdagisi, bir darajali tushunchalardir. Ularning har ikkovi voqelikning ichki aloqalarini, rivojlanishini aks ettiradi. Lekin ular o'rtasida farq ham bor. Qonun qonuniyatning muayyan bir tomonini ifodalaydi. Qonuniyat hodisalarining muayyai sohasidagi yoki olamdagisi qonunlarning majmuidir.

*Paradigma.* Ilmiy-tadqiqot faoliyatida paradigma ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. *Paradigma, ilmiy muammolarni yechishga doir, ilmiy jamao tomonidan tan olingan, aniqlangan qonuniyatlarni fikrlab olishga yordam beradigan va shuningdek, ushbu fan sohasining yanada rivojlanishini prognozlashga yordam beradigan idealdir.* Paradigma fan taraqqiyoti davomida hosil qilingan muayyan standartlarni o'z ichiga oladi, shu standartlardan past darajada bajarilgan narsalar muhokamaga qo'yilmaydi. Bu standartlarni qo'llab-quvvatlash ilmiy ish mutaxassisining muhim komponentlaridan biridir. Albatta, yangi paradigmalarning shakllanishi fan taraqqiyotida o'z ortidan bor bo'lgan standartlar, ilmiy bilishning ideal va me'yorlarining o'zgarib borishini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, ilmiy bilimni uning taraqqiyotidagi paradigmalar atamalarida bayon qilish konseptsiyasi kumulyativ omildan kelib chiqadi. Ilmiy bilimlar taraqqiyotida kumulyativ jarayonlarning mohiyati shundaki, biror alohida fanda yoki butun fanda erishilgan standartlar, ideallar, me'yorlar va qadriyatlar fanni umuman, namoyon qiladi va fanning bilimlar sistemasi ekanligi haqida tasavvur hosil qiladi.

*Tizimlilik.* Ilmiy-tadqiqotni samarali yo'lga qo'yishda tizimlilik muhim ahamiyatga ega. Chunki, *tizimlilik ilmiy tadqiqotning o'z-o'ziga ta'sir qilish tamoyili uning yanada asosli dalillarga suyanishida muhim o'rinni egallaydi.* Ayni paytda, ilmiy tadqiqotning manbai bo'lgan yangi nazariy bilimlar va texnologiyalar o'zaro muvofiqlashgan holda ilmiy-metodologik tizimni shakllantiradi. Shu ma'noda, har qanday ijodiy muhitda yangi bilimga ega bo'lish darajasi cheklangan bo'lsa, uning faolligi past darajaga tushib qoladi. Bunday ilmiy sayozlashish ilmiy faoliyatdagi dogmalashuvga yoki bo'rttirilgan ilmiy fundamentalizmga olib keladi, ya'ni eski ilmiy andazalarga, me'yorlarga moslashib undan chiqib ketolmaslik haqiqatni bilishdagi konkret dalil va voqelikni aniqlashga to'sqinlik qiladi. Demak, ilmiy tadqiqotda ushbu yo'l bilan nafaqat aniq bir ilmiy maqsad to'g'ri tanlab olinadi, balki unga yetishish uchun bir-biriga adekvat bilimlar ham inkor qilinadi. Oqibatda esa yangi bilimlarga emas, balki eskilik sarqitlariga suyanib qolish holatlari ko'p uchraydigan bo'lib qoladi. Ayni paytda ijodiy izlanishlarini to'g'ri va samarali yo'lga qo'yishda insonning yuqori darajada bilimga ega bo'lishi yoki

aksincha tadqiqot jarayonidagi biron-bir qarorga tez kelishi, bir vaziyatdan ikkinchisiga tez ko'nika olishi bilan belgilanadi. Masalan, ilm-fan, siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy-madaniy hayotda ilmiy-tadqiqot faoliyatning ahamiyati tobora oshib borishi insonning erkin ijod qilish imkoniyati bilan bog'liq. Bu holat esa insonning ijodiy fikrlashining o'sishiga, ruhiy zo'riqishlardan ozod bo'lishiga olib keladi. Bunday erkinlik ilmiy-tadqiqot faoliyatining namoyon bo'lish shakli sifatida insonga yangi ishonch, qo'shimcha kuch beradi. Masalan, K.Popper o'z davrida ilmiy ijodda ilmiylikni g'ayriilmiylikdan spekulyativ ravishda ajratishni taklif qilish orqali falsifikatsiya tamoyilini ishlab chiqqan edi<sup>10</sup>.

**Intuitsiya.** *Intuitsiya inson hayotida alohida fenomenal va murakkab faoliyat bo'lib, inson ruhiy faoliyatida, ya'ni ijodiy mehnatda, xususan, ilmiy ijodda katta rol o'ynaydi*<sup>11</sup>. Shu bilan birga u ijodiy izlanishda xotira, tafakkur va obrazli tasavvur bilan aloqada bo'ladi. Ba'zi ijodkorlar fan va san'atda umuman yangi kashfiyotlar qilib, ko'pincha o'zi ham buni qanday qilganini bilmaydi. Shunday qilib, ijodiy faoliyatda yangi fikrning qanday paydo bo'lishini, biz sun'iy yo'l bilan bilolmaymiz. Chunki yangi fikr bu asl (original) tushunish, shaxsiy nuqtai nazar (bir qator so'zlar emas, balki taassurotlar, ongimizda har soniya o'tadigan hodisadir –Z.Q.) bo'lib, u kamdan-kam hollarda inson miyasiga quyulib keladi, ehtimol hayotda bir necha marta kelgan bo'lishi ham mumkin. Darhaqiqat, aytishimiz mumkinki, agar odam o'zini fikrlashga majbur qilishning yo'lini bilganda edi, hamma daho bo'lib ketgan bo'lar edi.

**Intuitsiya** – haqiqatni mantiqiy dalillar yordamisiz, bevosita anglab yetish qobiliyatidir. U doim inson aqli va joni birgalikda amalga oshirgan katta ish mahsuli hisoblanadi. Shu ma'noda faqat iste'dodli, mehnatkash va tirishqoq odamlargina intuitiv bilishga qodir.

Intuitsiya muammosi falsafa va tabiatshunoslik tarixida har xil, ba'zan bir-birini istisno etuvchi yondashuvlar, nuqtai nazarlar va tasavvurlar bilan tavsiflanadi. Antik falsafadayoq bu muammo atrofida keskin bahslar bo'lgan. Ioniya falsafasi namoyandalari intuitsiyaga bevosita bilim, sezgi a'zolari orqali bilish shakli deb qaragan bo'lsalar, eley maktabi vakillari, shuningdek Levkipp va Demokrit bevosita bilim va sezgi a'zolari orqali bilishni rad etganlar, sezgilarni soxta deb e'lon qilganlar. Suqrot talqinida intuitsiya «daymoniy» yoki «predmet g'oyasiga egalik»dir. Platon ham hissiy bilishni haqiqat emas deb hisoblagan.

Yangi davrda Dekart, Spinoza, Leybnits intellektual intuitsiya haqidagi ta'limotni yaratdi. Dekart intuitsiya deganda sezgilarning omonat guvohligi va tartibsiz xayolning aldamchi mulohazasiga bo'lgan ishonchni emas, balki teran va zehnli aqlni tushunadi. Spinoza intuitsiyani narsalarning mohiyatini qamrab

<sup>10</sup> Popper K.R. Logika I rost nauchnogo znaniya. M., 1983. 25 s.

<sup>11</sup> Tibido L. Vrojdennaya intuitsiya - M.: Ripl Klassik, 2006. - 320 s.

oluvchi eng ishonchli bilish deb hisoblaydi. Sensualistlar sezgi darajasidagi intuitsiyani targ'ib qiladi, sezgi a'zolari orqali, bevosita bilishni birinchi o'ringa qo'yadi. J.Lokk fikriga ko'ra, aql – sezgi a'zolari faoliyatining haqiqiy natijalarini uzlusiz qayd etuvchi ko'zgu, xolos. Bilishning bu tomonini rad etib bo'lmaydi: aql shu tomonga o'z e'tiborini qaratgani zahoti u, xuddi quyoshning yorqin nurlari kabi, o'zini bevosita idrok etishga majbur qiladi. Ikkilanish, shubhalanish, o'rganishga hech qanday o'rinn qolmaydi: aql shu zahoti uning yorqin nurlari bilan to'ladi, isbotlash yoki o'rganishga muhtoj bo'lmaydi, biroq haqiqatni faqat unga o'z e'tibori qaratilganligi tufayli idrok etadi. Muammoni o'rganishga nemis klassik falsafasi muhim hissa qo'shdi. Kant intellektual intuitsiya qobiliyatini inkor etib, sof apertsepsiya g'oyasini ilgari suradi. Biroq keyinchalik Fixte Kantning sof apertsepsiyasi amalda intellektual intuitsiyaning o'zi ekanligini, u Dekart, Spinoza va Leybnitsning amalda mavjud narsalarni bilish qobiliyati sifatida qaralgan intellektual intuitsiyasidan Kantda intuitsiya faoliyatni bilishga qaratilganligi bilan farq qilishini ko'rsatdi. Fixtening o'zi intellektual intuitsiyani amalda mavjud narsalarni emas, balki mutlaq narsalar faoliyatini bilish sifatida tushunadi. Shelling Kant-Fixte yo'nalishini rivojlantirib, ularning ta'limotini o'zining transtsendental idealizmi – «substantsiyani bilish uchun» o'z naturfalsafasi bilan to'ldiradi, estetik tasavvurni birinchi o'ringa qo'yadi. O'tmish ratsionalistlaridan farqli o'laroq, u intuitsiyaning sabablarini idrok emas, balki aql faoliyatidan qidiradi. Gegel o'z o'tmishdoshlarining intellektual intuitsiya haqidagi ta'limotlariga tanqidiy yondashib, bilish mantig'i, nazariyasi sifatida dialektikani ishlab chiqadi. U falsafani tafakkur faniga aylantiradi, uning sof tafakkurga asoslangan mantiqiy oqilona tizimini yaratadi, shu sababli uning ta'limotida intellektual intuitsiya o'rmini dialektika egallaydi.

XX asr boshida har xil maktablar: Gusserlning fenomenologik intuitsiya (reduksiya), Bergsonning intuitivizm, Freydning ong osti intuitsiyasi va boshqa yo'nalishlar yuzaga keldi. Bu maktablar intuitsiyani bilishning instinkt, ong osti hodisasi, diniy e'tiqod va hokazolarni o'zida uyg'unlashtirgan irratsional harakati sifatida tushunadi. Bu yo'nalishlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular dunyoni ilmiy bilishda aqlning, tushunchalar vositasida tafakkurning rolini kamsitadi. Tafakkur o'rniga predmetni keraksiz ratsionalistik mulohazalarsiz «asl holicha» qamrab olish imkonini beruvchi intuitsiya qo'yiladi. Bugungi kunda irratsionalizm g'oyalarini ekzistentsializm, neopozitivizm va hozirgi zamon falsafasining ayrim boshqa yo'nalishlari rivojlantirmoqda. Masalan, ekzistentsialist Xaydegger fikriga ko'ra, «ekzistsentsiya»ni mantiqiy tushunish mumkin emas. Yaspersda e'tiqod, intuitiv tarzda qaraladigan mistik «vahiy» birinchi o'ringa qo'yiladi. Marsel «abstraktsiyalar ruhi»ga qarshi ayovsiz kurashni targ'ib qiladi. Inglizlar Ross, Mur, Richard moddiy narsalarni bilishning sezgi va aql darajalarini

chetlab o'tib, qandaydir mistik intuitsiya yordamida, bevosita bilish mumkinligini isbotlashga harakat qiladi. Shunday qilib, o'tmishda faylasuflar intuitsiya deganda insonning haqiqiy borliqni bilish qobiliyatini tushungan, ularning ayrimlari (Spinoza) intuitsiyaga aqlning oliv ko'rinishi sifatida yondashgan bo'lsalar, hozirgi intuitivistlar aqlning, tafakkurning rolini kamsitadilar yoki inkor etadilar, alogizm va mistik irratsionalizmni targ'ib qiladilar. Mantiq sifatida tushuniladigan dialektika intuitsiyaning shakllanishi va uning natijalariga tanqidiy yondashilishiga imkoniyat yaratadi. Garchi intuitsiya deduktiv nazariyaning muhim bo'g'inlarini ko'rsatib bersa-da, u bizni ularni isbotlash zaruriyatidan xalos etmaydi. Bevosita, kutilmagan va anglab yetilmagan bilim sifatida intuitsiya quruq joyda emas, balki vazifalarni yechish, yechimni «intuitiv» topishni belgilaydigan muayyan asoslar mavjud bo'lган holda yuzaga keladi. Biroq intuitsiya natijalarini bilimning tegishli shart-sharoitlar mavjud bo'lган sohalarida tekshirish lozim. Masalan, matematika va fizikada olingan natijalarni faqat tajriba o'tkazish yo'li bilan tekshirish mumkin. Inson ruhiyati hissiy, oqilona va eydetik bilimning yangi shakllarini yaratish uzluksiz jarayoni sifatida amal qiladi. Ingliz olimi G.Uolles ma'naviy ijod jarayonlarining tayyorgarlik, yetilish, anglash va tekshirish quyidagi bosqichlarini qayd etgan. Ijodning muhim bosqichi – yangilikni intuitiv anglash, tushunib yetish. Intuitsiya – kutilmaganda bevosita olingan bilim. Inson bilimining jadal sur'atlarda rivojlanishi ijod qilishni o'rganish vazifasini qo'yadi. Ijodiy faoliyat hamda ta'lim metodlarini o'rganish haqidagi fan evristika deb ataladi. Ilmiy davralardagi suhabatlar, fikrlar almashinuvi, munozaralar, muammoli vaziyatlar tahlili – shaxsning ma'naviy, ijodiy qobiliyati rivojlanishiga ko'maklashadi. Intuitsiya va ijodni formal mantiq vositalari yordamida tavsiflash mumkin emas, biroq evristik metodlar orqali sub'ektning iste'dodi, xotirasi, zehni, tasavvurini safarbar etishni talab qiluvchi yangilik ustida izlanishlar olib boriladi. Induktiv tafakkur – hodisalarning bir qismini o'rganish orqali olingan bilimni hodisalarning butun turkumiga nisbatan tatbiq etish evristik usul hisoblanadi. O'xshashlik bo'yicha tafakkur ham evristik mushohada yuritishning haqiqatga erishishni kafolatlamaydigan, biroq oddiy faraz ham hisoblanmaydigan usulidir. Matematik modellashtirish ham evristik usul hisoblanadi. Fanning barcha tamoyillari evristik mazmunga ega. Masalan, fizikada muvofiqlik prinsipidan foydalilanadi: eski va yangi nazariya o'rtasida muvofiqlik bo'lishi kerak, yangi nazariyaning matematik apparati ma'lum darajada eski nazariyaga mos kelishi lozim. Falsafa evristik xususiyatga ega, shu sababli yuksak cho'qqilarni egallash intuitsiya va ijodni anglab yetishning ta'sirchan vositalaridan biri hisoblanadi.

**Xulosalar.** Ilmiy-tadqiqot faoliyatining namoyon bo'lish shakllari yuzasidan quyidagicha ilmiy-nazariy xulosalarga kelish mumkin:

ilmiy tadqiqotning maqsadi tiriklik qonunlarini, voqelik jarayonlari va hodisalarining o'zgarishi, rivojlanishi, vujudga kelishi va yo'qolishini kuzatish, kashf etish, tushuntirish va bashorat qilishdangina iborat emas. Uning dastlabki asosi va mavjudlik sharti o'zlikni anglashdir. Insonning har bir yangi kashfiyoti uning o'z-o'zini bilishga bo'lgan urinishining, intilishining natijasi bo'lib kelgan. Hattoki insonning o'z-o'zini anglash yo'lida kashf qilgan vodorod bombasi ham uning o'ziga barobar bo'lgan kashfiyot bo'la olmadi. O'zlikni anglash kashfiyoti inson kashf qilishi mumkin bo'lgan kashfiyotlarning ichida eng buyugi, eng oliysidir. Zero, fan uchun fan, kashfiyot uchun kashfiyot qilinmaydi. Bularning bari jamiyat uchun, odamning ilmiy salohiyatini yanada oshirish uchun xizmat qiladi.

Ilmiy-tadqiqot inson nazariy va amaliy faoliyati negizida yuzaga keladi, u tabiat, jamiyat va inson ongining murakkab hodisalarni to'g'ri, ob'ektiv talqin etishga, fanning evristik asoslarini ochishga imkon beradi.

## ***1. 2. Maktabgacha pedagogik tadqiqot metodologiyasi***

Fanning metodologik muammolariga barcha davrlarda ham alohida e'tibor qaratilgan. Bugun ham mamlakatimizda bilimning bu sohasiga qiziqish kuchayib bormoqda. Ijtimoiy hayot davomiyligi va fan rivojining yuqori mavhum pog'onasi murakkab, yechimi birmuncha qiyin bo'lgan savollarni yuzaga chiqarmoqda. Tabiiyki, ularning ilmiy bilishning eskicha yondashuvlari yordamida hal etilishi mushkul. Metodologiya ham amaliyot talabalardan ortda qolishi, ijtimoiy qadriyatlarning o'zgarish qonuniyatlariga bog'liq holda rivojlanmasligi mumkin emas.

Birinchi navbatda yangi metodlarni izlab topish jarayoni davom etmoqda, mavjudlarini tubdan takomillashtirish, ilmiy bilish mantiqini loyihalash, tadqiqotlar samarasini oshiradigan texnikaviy qurilmalarni yaratishi e'tibor qaratilgan. Boshqa tomondan, metodologiyaning dunyoqarash jihatlari - chuqur nazariy umumlashma, bashoratlash, fan strategiyasini va uning mavqeini oshirish jamiyat islohotlariga mos ravishda amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlarning tezlashuvini ta'minlashda o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xolos bo'lish, milliy istiqlol g'oyasini omma ongiga singdirish, bunda ommaviy kommunikatsiyaning barcha vositalaridan foydalanish sezilarli samara berishi sir emas.

***Metodologiya*** - (*yunoncha-metodlar haqida ta'limot*) ijodiy jarayon sifatida ilmiy bilish yo'llari va vositalarining, ilmiy tadqiqot qonuniyatlarining, ularni taqqoslash va tizimlashtirish zamirida yuzaga kelgan. Demak, metodologiya ilmiy bilish faoliyatining mohiyatini yo'llari va vositalarining nazariy

*muammolarini, shuningdek, ijtimoiy jarayon sifatida ilmiy tadqiqot qonuniyatlarini o'rganadi.*

Metodologiya tushunchasi murakkab va har doim ham bir xilda talqin qilinavermaydi. Birinchi navbatda u keng ma'noda - fan metodologiyasi sifatida qo'llanilib, barcha ilmiy fanlar uchun ilmiy bilishning falsafiy tayanchi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, metodologiya fan sifatida ob'ektiv borliqni bilish haqida ta'limot (nazariyasi)dir. Top ma'noda esa aniq ilmiy fanlar (shu jumladan, pedagogika) uchun ilmiy bilish nazariyasini aiglatadi.

Demak, metodologik bilimlarning umumiyligi tizimida metodologiya o'rnini aniqlashtirish uchun mavjud. Aniq fanlar metodologiyasi umumiyligi metodologiyaga tayangan holda:

1. Uning talablarini muayyan fan ob'ekti tashkil etadigan hodisa va jarayonlarni o'rganishga tatbiq etadi;

2. O'zida bilishning aniq ilmiy metodlari haqidagi nazariyani o'rganilayotgan hodisa va jarayon qonuniyatlarining o'ziga xos jihatlari bilan bog'liq holda mujassamlashtiradi.

Maktabgacha pedagogika - boshqa rivojlangan fanlar qatori o'zining alohida predmetiga, nazariy prinsiplariga ega va alohida tadqiqot metodologiyasi biluvga tortilgan ob'ektiv voqelikning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini hisobga olgan holda qo'llaydi.

Metodologik muammolarni ishlashdagi siljishlarning mavjudligiga qaramasdan, qator nazariy-metodologik muammolar yechimsiz qolyapti. Yetarlicha tadqiq qilinmayapti. Fikrimizcha, metodologik muammolarni ishlab chiqish kamida ikki shartni hisobga olishni taqozo etadi.

*Birinchi shart* - pedagogika birmuncha dolzarb muammolari bilan mактаб, akademik litsey, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining amaliy vazifalari o'rtasidagi aloqadorlikni kuchaytirish lozim. Bu bizni sxolistik nazariyalashtirishdan, umumiyligi mulohazalashdan tiyib turadi. Asosiy e'tiborni shunday tadqiqot yo'nalishlari va muammolariga qaratish lozimki, natijada pedagogika fanining hayotiy muhim masalalari yechimini topish uchun metodologik yondashuvlar bilan bizni qurollantirishsin, ta'lim va tarbiyaviy jarayonning amaliy vazifalari yechimini ta'minlashsin.

*Ikkinci shart* - metodologiya va maktabgacha pedagogika nazariyasi muammolarini ishlab chiqishga yuksak malaka va tajribaga ega, ilmiy jihatdan yetuk universitet, institut hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog xodimlarni jalgan etish lozim.

Metodologiyaga e'tiborning kuchayishi, kun tartibida turganligining ob'ektiv omillari mavjud: mamlakatimizda insonparvar demokratik huquqiy davlat zaminida kuchli fuqarolik jamiyat qurilmoqda va ta'lim tizimi jamiyat

taraqqiyotiga mos holda tubdan yangilandi. Bu yangi modelning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan pedagogik tadqiqotlar natijasiga, umuman, pedagogika fanining rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liqdir.

Dastlab pedagogik tadqiqotlarning nazariy va amaliy ahamiyati, ularning mantiqi, metodologik tavsifi bilan bog‘liq quyidagi masalalar aniqlashtirilmog‘i lozim:

- pedagogikaning nazariy tadqiqotlari samarasini oshirish;
- pedagogik tajribani o‘rganish va natijalaridan foydalanish;
- pedagogik tajriba-sinov, uning mohiyati, metodikasini oydinlashtirish;
- fan yutuqlarini ta’lim va tarbiya jarayoniga tatbiq etish muammolari;
- tarbiyaga yaxlitlikda yondashish, bunda mafkuraviy tarbiyaning ahamiyati;
- pedagogika fanini milliy va umuminsoniy tajribalar asosida rivojlantirishning metodologik jihatlari va x.k.

Anu shu savollar doirasidan ma’lum bo‘ladiki, mavjud bilimlar bilan yashash, zamonaviy talab va ehtiyojlarga befarq qarash, mumkin emas. Bunday sharoitda tabiiyki, "tayanch" nuqta amaliyot bo‘lishi lozim, ya’ni zamonaviy ta’limi holati - haqiqiy haqiqat mezoni hisoblanadi. Amaliyot ta’siri ostida nazariya ilmiy kashfiyotlarning asosiy omiliga aylanadi. Faqat keng va har tomonlama tashkil etilgan amaliyotgina faoliyatning kamchiligini va etilmaganligini hamda ayni vaqtida pedagogik vogelikni bilishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini isloh qilinishi va rivojlantirishning tarixiy ahamiyati - bu ta’limning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aks etgan - "inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz xuquq-lari oliy qadriyat hisoblanadi" (23-modda) - prinsipiga amal qilgan holda insoniylikka yo‘naltirilganligidir. Insoniy ustuvorlik ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsipi sifatida O‘zbekiston Respublikasi "Ta’lim to‘g‘risida" gi qonunida ham o‘z ifodasini to‘liq topgan; "*Ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi*" (3-modda).

Demak, bu mantiqan aytganda, "bitiruvchi"ni tayyorlashdan "erkin shaxs"ni shakllantirishga o‘tishni anglatadi. Chunki erkin fikrga ega inson, ma’lumotli shaxs nafaqat ijtimoiy tizim ichida harakatlanadi, balki uni o‘zgartirishda ham faol bo‘ladi. U olam va odam munosabatlarini umuminsoniy qadriyatlar kontekstida qabul qiladi.

Bugun mamlakatimizda qator o‘qituvchilarimiz pedagogik g‘oyalari targ‘ibotchisiga aylanishda, o‘zlari ham bevosita targ‘ibotchilik faoliyatini namoyish qilmoqdalar, tasdiqlangan dastlabki materiallar bilangina emas, balki o‘zining shaxsiy ijodiy rejasi asosida ish yuritmoqdalar. Yangilikka, erkinlikka,

mustaqillikka intilish hozirgi zamon o‘qituvchisining shaxs sifatlari tarkibiga kirib ulgurdi, endi an’anaviy o‘qitish tizim o‘z o‘rmini milliy istiqlol g‘oyasi bilan sug‘orilgan va qat’iyan ilmiy asosda tashkil etilayotgan zamonaviy pedagogik tizimga bo‘shatib beryapti. Pedagogik amaliyatning turli tomonlarini qamrab olayotgan kuchli innovatsion impuls harakati davom etmoqda: ta’lim mazmunini yiriklashtirish, natijalarini oldindan belgilash, o‘qitishni psixologiyalashtirish, kompyuterlashtirish, interfaol o‘qitish va tarbiya metodlari, ta’limni boshqarishga qaratilgan yondashuvlar vujudga keldi. Shu o‘rinda metodologik muammolarning quyidagi yo‘nalishlariga, uning alohida tomonlariga qisqacha izoh berishga harakat qilamiz.

Maktabgacha pedagogik tadqiqot bu yo‘nalishi ba’zi e’tirozlarni paydo qilishi mumkin. Chunki aksariyat ko‘pchilik pedagogika predmeti va uning chegarasi allaqachon aniqlangan, deb o‘ylashadi: u - tarbiya haqidagi fandir. Bu ta’rif pedagogikaga ko‘p asrlar oldin berilgan, ma’lum ma’noda an’anaviy ta’rif deyish mumkin. Afsuski, bu izoh bugungi kun talabiga to‘liq javob bera olmaydi, qator hollarda chalkashlikka olib keladi, fanning ta’sir doirasini toraytiradi. Gap shundaki, pedagogik adabiyotlarda "tarbiya" atamasining o‘zi turlicha izohlanadi: 1) keng ijtimoiy - insonga o‘rab turgan ijtimoiy muhit ta’siri; 2) keng pedagogik - o‘quv tarbiya jarayonini butunlay qamrab oladigan maqsadli faoliyat; 3) tor pedagogik - tarbiya deganda maxsus tarbiyaviy ishlar tushuniladi; 4) birmuncha torroq - tarbiyaviy kuch yo‘naltirilgan maydoncha, masalan, vatanparvarlikni tarbiyalash (axloqiy tarbiya), badiiy tasavvurlarini shakllantirish (nafosat tarbiyasi) tushuniladi - (*Y.U.K. Babanskiy*).

Maktabgacha pedagogika ta’lim haqidagi yagona fan sifatida ham e’tirof etiladi, bu fan vakillari u yoki bu ta’limiy faoliyat bilan shug’ullanadilar (*V.V.Krayevskiy*). Shunday ekan, pedagogikani ta’lim va tarbiya haqidagi fan sifatida talqin etish to‘g‘ri bo’ladi. Bu o‘z navbatida shaxsni maqsadga mos holda shakllantirishning ikki qanotida anglatadi. Shu sababdan birmuncha aniq ta’rif quyidagicha bo‘lishi mumkin: pedagogika - bu shaxsni maqsadli shakllantirish haqidagi fandir.

Ma’lumki, shaxsni shakllantirishda *irsiyat*, *muhit*, pedagoglarning maqsadli faoliyati, insonning xususiy faoliyati va o‘z-o‘zini tarbiyalash kabi omillar katta imkoniyatlarga ega. Taklif qilinayotgan ta’rif fanning mavqeini pasaytirmaydi, aksincha, uning qator afzalliklarini sanab o‘tishi mumkin: birinchidan, pedagogik faoliyat o‘rni shaxsni rivojlantirish va tiklash omillari (*irsiyat*, *muhit* va 6.) orasida belgilab boradi; ikkinchidan, pedagogik jarayon sifatida ta’lim va tarbiya ahamiyatini muvozanatlashtiradi; uchinchidan, "tarbiya" atamasi qaysi ma’noda (tor yoki’ keng) ishlatilishini ko‘rsatish zaruratidan soqit qiladi.

Shaxsni shakllantirish muammosi bilan sotsiologiya, falsafa, psixologiya, etika va boshqa qator fanlar shug‘ullanishadi. Agar sotsiologiya tarbiyani ijtimoiy rivojlanishning omili sifatida qarasa, psixologiya tarbiyaga shaxsni ruhiy rivojlanishi vositasi tarzida murojaat qiladi. Etika tarbiya masalalarini axloqiy taraqqiyoti nuqtai nazaridan talqin etadi. Bu fanlardan farqli o‘laroq, pedagogika shaxsni shakllantirishning ikki tabiatini tadqiq qiladi, ularning tuzilmasini aniqlashtiradi, qonuniyatlarini ishlab chiqadi, ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatlar texnologiyasini loyihalaydi.

Maktabgacha pedagogika fani predmetini aniqlash, uning boshqa fanlar bilan aloqasi va o‘zaro ta’eir doirasini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib boryushshi lozim. Bu muammo hozircha umumiylar tarzda yoritilgan bo‘lib, aslida *kadrlar tayyorlash milliy modeli* asosida ham mazmun jihatdan, ham mantiqiy bog‘lanishlar jihatdan uning tavsifnomasi ishlab chiqilishi lozim.

Har bir fanning rivojlanish doirasini taddiqotlarni tabaqallashtirish va boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligining xilma-xilligiga bog‘liq holda muhokama qilinishi lozim.

Mustaqillik yillarida maktabgacha pedagogika fanlari tizimi ham birmuncha kengayib bormoqda. Bu esa pedagogika fanining o‘z ob’ekti, predmeti, ilmiy tushunchalar tarkibi, ularning mantiqi, nazariya va amaliyot mutanosibligi kabi qator savollarni yangicha talqinda ifodalash zarurati mavjud. Boshqacha aytganda, ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar pedagogikani o‘rganadigan fan paradigmasini almashtirish g‘oyasini vujudga keltirayapti.

Maktabgacha pedagogik paradigma ilmiy faoliyat modeli sifatida bir tomonidan ta’limda fanlararo tadqiqotlarning nufuzi oshayotganligini, pedagogika fanining integrativ funksiyasi kuchayayotganligini ko‘rsatsa, boshqa tomonidan ta’lim - tarbiya qonuniyatlarini o‘z predmeti sifatida qabul etish yagona fan sifatida pedagogikaning nazariy mavqeini oshirish va maqomini aniqlashtirish vazifasini ilgari surdi.

Maktabgacha pedagogika fani rivojinining hozirgi bosqichida alohida dolzarb metodologik masalalarni yechish bilan chegaralanmasdan xususiy bilimlar tizimi sifatida pedagogika metodologiyasini aniq belgilab olish zarur. Bu birinchidan, pedagogik nazariyalar ishonchlilagini ta’minlasa, boshqa tomonidan metodologik bilimlar pedagogik (yoki ixtiyoriy boshqa) tadqiqotlari samarli tashkil etish va yetkazish mumkin emasligini anglatadi.

Ijodiy jarayon bugungi kunda pedagogika fani metodologiyasiga, uning predmetiga nisbatan turlicha yondashuvlar vujudga kelmoqdaki, ularning mohiyatini qisqacha tushuntirishga harakat qilamiz.

## **Maktabgacha metodologiya funksiyasi asosida aniqlash.**

Metodologiya alohida fan sifatida ikki funksiyani bajaradi: deskriptiv (*ifodalovchi*) va perskryaptiv (*me'yorlovchi*).

*Birinchisi* — ob'ektni nazariy jihatdan ifodalashni ko'zlasa, keyingisi — tadqiqotchining ishlashi uchun mo'ljal olishga shart - sharoit tug'diradi. Bu ikki vazifaning mavjudligi pedagogika metodologiyasini ham ikki guruhga ajratishni taqazo etadi - nazariy va me'yoriy.

Maktabgacha pedagogikaning nazariy metodologiyasiga quyidagilarni kiritish mumkin: metodologiya ta'rifi; fan metodologiyasining umumiy tavsifi, uning darajalari; metodologiya bilimlar tizimi va faoliyatlar tizimi sifatida; pedagogika sohasidagi tadqiqiy faoliyatni metodologik ta'minlash manbalari; pedagogik tadqiqot ob'ekti va predmetining metodologik tahlili. Me'yoriy asosni quyidagi savollar doirasini qamrab oladi:

- Maktabgacha pedagogikani ob'ektiv borlig'ni ma'naviy o'zgartirishning boshqa shaklidan farqli ilmiy asoslash;
- Maktabgacha pedagogika sohasidagi ishlarni fanga taalluqliliginini aniqlash:

- maqsadning o'ziga xosligi; maxsus tadqiqot ob'ektini ajratish; maxsus bilish metodlari va vositalarini qo'llash;
- atamalarining bir xilligi;
- pedagogik tadqiqotlarni guruhlarga ajratish;
- tadqiqot tavsifnomasi: muammo, mavzu, uning dolzarbligi, tadqiqot ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalari, farazlari, himoya qilinadigan holatlar, yangiliklar, fan uchun muhimligi, amaliyot uchun muhimligi;
- pedagogik tadqiqot mantiqi;
- pedagogika fanlari tizimi, ularning o'zaro aloqasi.

Tadqiqot muammosi bo'yicha qabul qilingan direktiv va me'yoriy hujjatlar ham bevosita maktabgacha metodologyaning me'yoriy asosini tashkil etadi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Maktabgacha pedagogik improvizatsiya tushunchasiga ta'rif bering?
2. Maktabgacha pedagogik tadqiqotlarning asosiy xossalari nimalar kiradi?
3. Shaxsni shakllanishiga qanday omillar ta'sir etadi?

## **1.2. MAVZU: PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING ASOSIY KATEGORIYALARI VA TUSHUNCHALARI.**

Reja:

1. Metodologik tadqiqot va maxsus ilmiy tadqiqot.

2. Metodologik ta'minot manbalari.
3. Pedagogik ijodkorlik va uning o'ziga xos xususiyatlari.

**Tayanch so'zlar:** Loyiha, refleksiya, tushuncha, ob'ektivlik, tizimlilik, kreativlik

## **2.1. Metodologik tadqiqot va maxsus ilmiy tadqiqot.**

Falsafiy nuqtai nazardan metodologiya nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish va qurish prinsiplari va usullari tizimi, shuningdek, bu tizim haqidagi ta'limot (nazariya) sifatida qabul qilinadi. Aniqrog'i, metodologiya predmeti - faoliyatni tashkil etish haqidagi nazariya demakdir.

Bu erda qaysi faoliyat haqida fikr yuritilyapti?

Ilmiy faoliyat nazarda tutilyaptimi yoki pedagogik faoliyat?

Bu savolga javobni quyidagi tahlil natija asosida topish mumkin.

Arap o'qituvchi kundagi odatiy nomahsul (reproduktiv) faoliyat bilan mashg'ul bo'lib, har doim o'zi o'zlashtirgan bir xildagi texnologiya bilan ish ko'rsa "*dars beruvchi*" sifatida faoliyat ko'rsatsa, bu yerda metodologiya haqida gap bo'lishi mumkin emas. Aksincha, *mahsuldor* (produktiv) faoliyat namoyish etib, misol uchun, ilmiy - tadqiqiy pedagogik faoliyat ko'rsatsa yoki o'zining xususiy mualliflik o'qitish tizimini yaratsa, shubhasiz, metodologik faoliyat vujudga keladi. Keyingi holatda ikki qarama - qarshi tushuncha - *loyiha* va *refleksiya* - asosiy o'ringa ko'tarilayapti. Ma'lumki, har qanday mahsuldor faoliyat loyihalash ko'nikmalarini talab etadi. Ilmiy-tadqiqiy ishlarning quyidagi bosqichlari - ziddiyatlarni aniqlash, muammoni ifodalash, farazlarni qurish va h.k. - mantiqan tadqiqot loyihalash usulidir.

Amaliy pedagogik faoliyatda ham ta'lim (tarbiya) tizimlarini loyihalash ishlari amalga oshiriladi. Bunga "*Kadrlar tayyorlash milliy dasturi*" asosida yaratilgan zamонавиy ta'lim tizimi, uni rivojlantirish konsepsiysi ("*portlash effekti*") misolida iqror bo'lishimiz mumkin.

Ijodiy faoliyatni tashkil etishda har doim refleksiya -loyihaning, jarayon va natijalarning doimiy tahlili muhim o'rinn tutadi.

Xulosa sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot metodologiyasi ham, amaliy pedagogik faoliyat metodologiyasi ham quyidagi uchlik yaxlitligida qurilishi mumkinligini ta'kidlash lozim: "loyiha texnologiya (ilmiy-tadqiqiy yoki pedagogik) refleksiya" (A.M. Novikov).

Bu yondashuvlarga tayanib hamda mavjud adabiyotlar tahlili asosida pedagogika metodologiyasini quyidagicha ifodalash mumkin: pedagogika metodologiyasi o'zida pedagogik nazariya asoslari va tuzilmasi haqidagi bilimlar

tizimini, pedagogik hodisa va jarayonlarni tadqiq qilishning yondashuvlarini, pedagogik voqelikni haqqoniy ifoda etadigan axborotlarni olish usullarini, shuningdek, bu bilimlar tizimini qo‘lga kiritish bo‘yicha faoliyat tizimini mujassamlashtiradi. Ko‘rinib turibdiki, bu ta’rifda ilmiy bilishning ikki jihat - bilimlar tizimi va ilmiy-tadqiqiy faoliyat qamrab olingan. Yoki ikki faoliyat turi - metodologik tadqiqot va metodologik ta’minot hisobga olinyapti. Agar birinchisining vazifasi pedagogika fanlari rivojining qonuniyatlarini va yo’nalishlarini, pedagogik tadqiqotlarning sifat va samaradorligini oshirish prinsiplarini, ularning tushunchalari tarkibini aniqlashtirsa, ikkinchisi – metodologik bilimlardan tadqiqot dasturlarini asoslashda va sifatini baholashda foydalanishni anglatadi. Shu bilan birlgilikda pedagogik muammolarning umumnazariy muammolar bilan almashtirishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Chunki, birinchisi "*qanday qilib metodologiyani pedagogikaga qo‘llash mumkin*" degan savolni aniqlashtirsa, ikkinchisi umumnazariy savollar esa pedagogikaning predmeti, uning boshqa fanlar bilan aloqasi, ta’lim va tarbiya mohiyati kabi umumiyyatli savollar yechimiga qaratiladi

Zamonaviy fan rivojiga bog‘liq holda fan tilining metodologik masalalari ham kun tartibida turadi. Fanda tildan foydalanish muammosi ilmiy fan sifatida pedagogikani ham chetlab o‘ta olmaydi. Til ijtimoiy hodisa sifatida amaliy faoliyatda va bilish jarayonida ikki asosiy vazifani bajaradi:

1) insonlar o‘rtasida aloqa vositasini o‘taydi.

2) tafakkur shakli sifatida to‘plangan bilimlarni qayd etish va saqlash, tizimlashtirish uchun zarur hisoblanadi.

Ma’lumki, til bilan qator fanlar -lingvistika, psixologiya, semiotika (belgilar haqidagi fan), falsafa shug‘ullanadi. Metodologiya tilni ilmiy bilimlarni ifodalash, ularni qayta ishlash, ilmiy axborotlarni to‘plash va saqlash vositasi sifatida o‘rganadi.

Maktabgacha pedagogika boshqa fanlar qatori milliy tildan ilmiy axborotlarni shakllantirish, ishlov berish, saqlash va uzatishning universal vositasi sifatida foydalilanadi.

Biz tilda turli darajadagi tushunchalarga tayanamiz. *Tushuncha* - bu predmetlarning umumiyyatli va o‘ziga xos sifatlari haqidagi fikrdir. Tushuncha asosida predmetlar o‘xshashligi va farqlari aniqlanadi.

P.f.d., prof. R.X.Djuraev va boshqalar tomonidan tuzilgan “Pedagogik atamalar” lug’atida “*Tushuncha*”ga – narsa va hodisalarning muhim xususiyatlari, aloqalari mazmun-mohiyati va munosabatlarini aks ettiruvchi tafakkur shakli.<sup>12</sup> Deb izox beriladi.

---

<sup>12</sup> П.ф.д., проф. Р.Х.Джураев ва бошқалар. Педагогик атамалар лўгати Т;2008

Albatta, tushunchalar mohiyatini anglashda odamlar ham bir-biridan farqlanadi. Shu boisdan milliy til so‘zleri ham bir xil emas, ular amaliy faoliyatda turlicha muxumlik kasb etadi va muloqot jarayonida tekislanib, aniqlanib boraveradi.

Har qanday fan, jumladan, pedagogika ham aniq tushunchalar tizimini talab etadi. U milliy til asosida yaratiladi va ilm tili, ya’ni pedagogikaning tushunchatoifalar tizimi shakllanib boradi. Toifa tushunchadan bir bosqich yuqori turadi va ayni vaqtida o‘zida ularning belgi va xususiyatlarni saqlab qoladi. Shu bois toifa tushunchadir, biroq barcha tushunchalar toifa bo‘la olmaydi.

Pedagogika bo‘yicha ilmiy tilni shakllantirish murakkab jarayon, u hanuzgacha qoniqarli darajada tadqiq qilingan emas. Bu fan ham boshqalari qatori hayotiy tildan ko‘plab atamalarini qabul qiladi. (“shakl”, “metod”, “tarbiya” va b.). Uning vazifasi atamalardan bir xildagi tushunchalarni shakllantirishdir. Shu bois mumkin qadar tushunchalarni faol ilmiy muloqot tarkibiga kiritish uchun aniqlashtirish, chegaralashga harakat qiladi.

Pedagogikada ilmiy nutqning lug‘at zahirasi yangi, maxsus terminlar va ta’riflar bilan boyib boradi: (“pedagogik texnologiya”, “innovatsiya faoliyat” va b.), ba’zan bunday boyish boshqa failar evaziga ham bo‘lishi mumkin (“boshqarish”, “axborot texnologiyasi”) yoki eski ta’riflar yangicha talqinda ifodalanadi. Misol uchun “o‘qitish metodi”ning an’anaviy ta’rifi (belgilangan maqsadga erishish yo‘lidagi o‘qituvchi va o‘quvchi-talablarining o‘zaro harakat usullari) go‘yo o‘zgarmaydigandek edi. Biroq Gegel ta’limotiga ko‘ra, *metod harakatdagi ob’ektni o’rganish usulidir*. Shunga asosan, o‘qitish metodiga berilgan eng so‘nggi va yangi ta’rif quyidagicha: *o‘qitish metodi - bu harakatdagi o‘quv materialini o’rganish bo‘yicha oqituvchi va o‘quvchi-talabalarning hamkorlikdagi faoliyat usullaridir*.

Foydalilanilayotgan atamalarning aniq ta’rifi va maxsus pedagogik lug‘atini shakllanishi pedagogika fani tiliga mos holda amalga oshirilishi zarur. Bu fanning o‘ziga xos tomoni shundaki, uning tili odatiy (kundalik) tilga juda yaqin bo‘lgani uchun tushunish birmuncha yengil kechadi. Shu sababli maxsus pedagogik tillar nafaqat o‘qituvchi va tarbiyachiga tushunarli, balki ularni ota-onalar, o‘quvchi-talabalar va keng jamoatchilik ham tez hazm qilishadi. Boshqa tomonidan odatdagि til bilan ilmiy tilning yaqinligi fan sifatida pedagogika uchun xususiy bo‘lgan metodik xarakterdagi jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Maxsus pedagogik atamalar sifatida qo‘llanilayotgan tushunchalar induktiv tarzda hammaga tushunarli (*ta’lim, tarbiya, o‘qitish va b.*), ular o‘ta aniqlikni talab qiladigan vaziyatlarni vujudga keltirmaydi. Shu boisdan bu tushunchalar milliy tilda tavsiflangan holda turlicha ta’riflanadi va o‘z navbatida aniqligini bir

qadar yo‘qotadi. Fikrimizning isboti uchun "tarbiya" tushunchasining mohiyatini oydinlashtirishga qaratilgan ta’riflarni keltirish mumkin. Biroq tushunchalarni aniq ta’riflash ilmiy pedagogik g‘oyalarni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Belgilar yordamida aniq ilmiy tilni yaratish pedagogikada ham kuzatiladi. Pedagogika o‘z tadqiqotlari natijalarini nafaqat yozma ravishda, balki chizma, jadval, shkalalar orqali ham ifodalaydi. Keyingi vaqtarda pedagogik hodisalar tahlil uchun kibernetika, informatika, matematika, mantiq fanlarining tushuncha va ramzlaridan keng foydalanilmoqda.

Erishilgan yutuq bilan fan tilining rivojlanishi to‘xtamaydi, u vaqt o‘tgan sayin rivojlanib boraveradi. Shubha yo‘qli, pedagogika fanlarining ilmiy tiliga oid metodologik savollar e’tiboridan tushmaydi, qolaversa, har bir ilmiy termin jiddiy tadqiqotlar natijalari asosida vujudga keladi. Qo‘llanilayotgan atamalarning bir xilligi ma’lum ilmiy sohada hodisalarni bir xilda tushunishga imkon beradi, bilishning bugungi taraqqiyoti kecha erishilgan yutuqlarga tayanadi, ya’ni hammasini yangidan boshlashga hojat qolmaydi.

Metodologiyaning pedagogika uchun muhimligi, bir tomondan, fan rivojining umumiyligini xususiyatlari bilan, ikkinchi tomondan, pedagogik bilimlar rivojining o‘ziga xosligi bilan, uchinchi tomondan, bilish bosqichlarining murakkabligi bilan belgilanadi. U o‘zining rivojlanishi davomida boyib boradi, tajriba orttiradi, ob’ektiv voqelik hodisasi sifatida tarbiyaning muhim qonuniyatlarini va tamoyillarini ochib beradi.

Pedagogik tadqiqotlarning zamonaviy yo‘nalishlari dolzarb va amaliy jihatdan muhim masalalarning yangicha yechimlarini izlab topish jarayonining tezlashuvi, ayni vaqtda istiqbolli muammolarning nufuzi oshib borayotganligi bilan tavsiflanmoqda. Bunda ikki yo‘nalishdagi tadqiqotlar alohida ko‘zga tashlanadi:

1. Umumiy xarakterdagи yirik tadqiqotlarni talab etadigan keng doiradagi muammoni o‘rganish.

2. Murakkab pedagogik jarayonlarning ichki, nozik qirralarini topishga imkon beradigan tor muammolar yechimiga qaratilgan chuqur detalli o‘rganish.

*Birinchi yo‘nalish* tarafdarlari pedagogik jarayonning barcha unsurlari o‘zaro aloqada va ularni ajratish yaramaydi, degan dalilga tayanishadi, pedagogik tajribani yaxlit o‘rganish zarurligiga urg‘u berishadi. Biroq ular quyidagi holatni nazardan chetda qoldirishadi: pedagogik jarayon o‘zining bor munosabatlari bilan olib qaralganda pedagogika fani ob’ekti hisoblanadi. Ikkinchi yo‘nalish vakillari pedagogik jarayonning alohida elementlari (*metod, shakl va b.*) o‘rganishga uringan holda bir narsani unutishadiki, o‘quv-tarbiyaviy ishlар tizimida ajratib olingan hech bir vosita to‘liq hisoblanmaydi.

Bugungi kunning jiddiy metodologik muammosi - bu zamonaviy ta'limni pedagogik tadqiqotlarga oid ilmiy muammolarda ishonarli va samarali aks ettirishdir.

Bajarilayotgan tadqiqotlarda uchraydigan umumiy **kamchiliklar**:

- aksariyat mavzularning dolzarb pedagogik muammolar yechimiga qaratilmaganligi, ularda yangi, konseptual g'oyalarning yo'qligi;
- farazlarning isbot talab qilmaydigan holatda noaniq ifodalanishi;
- jiddiy xulosalarning yo'qligi, ularning nazariy va amaliy jihatdan noaniqligi;
- shablonlik; (bir qolipdalilik)
- tavsiyalarni amaliyatda qo'llash imkoniyatlari yo'qligi va boshqa cheklaydigan asosiy omillar;
- malakaning yetarli emasligi;
- umrini yashab bo'lgan sobiq eski tuzim pedagogikasi g'oyalaridan xalos bo'la olmaslik;
- tadqiqot metodlaridan to'g'ri foydalana bilmaslik va h.k.

## **2.2.Metodologik ta'minot manbalari.**

Zamonaviy pedagogikaning metodologiyasiga e'tiborning kuchayishi, bejiz emas. Mamlakatimizda demokratik tamoyillarning qaror topishi, kuchli huquqiy davlat zamirida ochiq fuqarolik jamiyati qurilganligi ta'lim va tarbiyaga yangicha mohiyat, mazmun baxshida etayotganligida o'z aksini topmoqda. Bu yangi modelning muvaffaqqiyati ko'p jihatdan zamonaviy pedagogikaning rivojlanish darajasiga bevosita bog'liqdir.

Pedagogika fanining metodologik asosi hisoblanmish O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ta'lifning ustuvor deb e'lon qilinishi pedagogika fani zimmasiga juda katta mas'uliyatli, ulug'vor vazifalarni yukladi.

Pedagogika fani rivojining hozirgi bosqichida alohida dolzarb metodologik masalalarni yechish bilan birga xususiy bilimlar tizimi sifatida pedagogika metodologiyasini aniq belgilab olish zarur. Bu birinchidan, pedagogik nazariyalar ishonchliligini ta'minlasa, boshqa tomondan metodologik bilimlar pedagogik tadqiqotlarni samarali tashkil etish va amaliyatda tatbiq etish uchun zamin hozirlaydi. Bugungi kunda pedagogika fani metodologiyasiga, uning predmetiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud.

Metodologiya tushunchasi murakkab va har doim ham bir xilda talqin qilinavermaydi. Hozirgi kunda pedagogika fanining metodologik asosi falsafadir.

“Falsafaning bosh masalasi - ob'ektiv borliq va inson o'rtasidagi o'zaro aloqani oydinlashtirish hisoblanadi. Olam bilan odam mavjudligini tadqiq qilish insonning cheksiz faoliyatini va xarakterini o'rganishdir. Individning shaxs darajasida namoyon bo'lishida tarbiyaning yetakchi mavqeini qadimdan faylasuf (Arastu, Platon, Suqrot, Demokrit va boshqalar)lar tan olishgan va inson tarbiyasi muammosi falsafaning asosiy masalalari qatoriga kiritilgan. Shu tariqa falsafiy ta'limotlar tarkibida pedagogik fikr va g'oyalar vujudga kela boshlagan va yillar davomida rivojlanib borgan, natijada pedagogika mustaqil fan sifatida ajralib chiqqan. Demak, hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, pedagogika fanining metodologiyasini jamiyat taraqqiyoti qonunlarini ifoda etuvchi zamonaviy filosofiya, uning bilish nazariyasi tashkil etadi”,

N.Sayidahmedov.<sup>13</sup> Demak, metodologiya birinchi navbatda keng ma'noda – fan metodologiyasi sifatida qo'llanilib, barcha ilmiy fanlar uchun ilmiy bilishning falsafiy tayanchi hisoblanadi. Metodologiya fan sifatida ob'ektiv borliqni bilish haqida ta'limot (nazariya)dir. Tor ma'noda esa aniq ilmiy fanlar, shu jumladan pedagogika uchun ilmiy bilish nazariyasini anglatadi.

*Pedagogik tadqiqotlarning metodologik tavsifi.* Pedagogik tadqiqotlarning zamonaviy yo'nalishlari dolzarb va amaliy jihatdan muhim masalalarning yangicha yechimlarini izlab topish jarayonining tezlashuvi, ayni vaqtda istiqbolli muammolarning nufuzi oshib borayotganligi bilan tavsiflanmoqda. Ular quyidagi holatni nazardan chetda qoldirishadi: pedagogik jarayon o'zining bor munosabatlari bilan olib qaralganda pedagogika fani ob'ekti hisoblanadi. Ikkinchi yo'nalish vakillari pedagogik jarayonning alohida unsurlari (metod, shakl va b.) o'rganishga urungan holda bir narsani unutishadiki, o'quv-tarbiyaviy ishlar tizimida yilib olingen hech bir vosita to'liq hisoblanmaydi.

Tadqiqot taqdiri pedagogik tadqiqot metodlariga bog'liqligi sir emas. Pedagogik tadqiqotlar metodi agar pedagogik hodisalarning ob'ektiv mohiyatini to'g'ri ifodalasa, pedagogika predmetining o'ziga xosligiga javob bersa, shubhasiz, ilmiy deb e'tirof etiladi. Shu jihatdan olib qaralganda, pedagogik tadqiqot metodlari uchun metodologik baho zarur bo'ladi.

Pedagogik tadqiqotlarning samaradorligi tadqiqotchining metodologik madaniyatiga to'g'ri proporsionaldir. Shu boisdan bu tushuncha integral sifat ko'rsatkich hisoblanib, tadqiqotchidan o'zida xususiy ilmiy faoliyatni tahlil qilish ko'nikmasini, ma'lum konsepsiya (nazariya)ni ilmiy asoslash va ijodiy qo'llash qobiliyatini egallashni talab etadi.

Bugun har bir pedagogik tadqiqot qoidaga ko'ra, joriy etilgunga qadar ilmiy asoslanishi shart: dastlabki holat; tadqiqot mantiqi; kutilayotgan natijalar, ularga

---

<sup>13</sup>Н.Саидахмедов. Педагогика фани методологияси хусусида. // Халқ таълими, 2000 йил 1-сони, 34-37-бетлар.

erishish metodlarini belgilash; iste'molchilar bilan hamkorlik o'rnatish; uni joriy etish shartlarni ishlab chiqish; iqtisodiy manfaatdorlik va h.k

Pedagogik tadqiqot ilmiy faoliyatning murakkab turi hisoblanib, u ishonchli qo'llarda – metodologiyani chuqur o'rgangan, ilmiy tadqiqot metodlari bilan qurollangan shaxs tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin.

Olimning qiyofasi, ruhiyati va tiynati haqida maxsus adabiyotlarda batafsil yoritilgan, ayniqsa, uning quyidagi sifatlari alohida qayd etiladi; haqiqatga, noma'lumni bilishga jiddiy intilish; kuzatilayotgan hodisa va jarayonlarni tasniflash qobiliyati va kuzatuvchanlik; ilmiy tafakkurning analistik – sintetik jamlanmasi va b. Ilmiy – tadqiqot ishlarida ob'yekativlik, anqlik, tanqidiylik, izchillik, tizimlilik bo'lishi shart.

*Ob'ektivlik* - o'rganilayotgan voqeа va hodisalar, jarayonlar to'g'risida odilona, to'g'ri baho berish, ulardagi mohiyat, mazmun va o'zaro aloqa, o'zgarishlarga xolisona yondashishni ifodalaydi.

*Anqlik* tadqiqotning barcha muolajalari uchun tegishlidir: pedagogik hodisa va jarayonlarni kuzatish va qayd etish; fikrlar tahlili va umumlashmasi; turli manbalaridan olingan ilmiy axborotlardan foydalanish va boshqalar.

Pedagogik metodologiyada izchillik qabul qilingan atamalarning bir xilligiga, tadqiqot mantiqiga amal qilishga, shart-sharoitlarni hisobga olishga erishiladi, ilmiy apparat tushunchalarining bog'liqligida namoyon bo'ladi .

*Tizimlilik* - o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni biror belgilari asosida tasniflash, tasavvurlar, tushunchalar va qonuniy aloqalarni o'rnatish, konsepsiylar, nazariyalarni shakllantirish orqali muayyan tartibga solish jarayoni.

*Tanqidiylik* – o'rganilayotgan muammoga turli nuqtai nazardan baho bera olish, tajriba natijalarining haqqoniyligini ta'minlash bilan farazlar va nazariyalarni uzluksiz tekshirib borish, mabodo, olingan yangi natijalarga mos kelmasa, ulardan voz kechish xususiyati bilan tavsiflanadi.

Shunday qilib, pedagogikada ilmiy tafakkur tadqiqotning boshlang'ich nuqtasini belgilashda ob'yekativlik, izchillik, anqlikni nozik, ehtiyotkorona qo'llashni talab etadi, ilmiy farazlarni to'g'ri tanlashni, tajriba natijalari, nazariy xulosalarni tanqidiy tekshirib ko'rishni va albatta, tizimlilikni taqozo etadi. Boshqacha aytganda, tadqiqotchining metodologik madaniyatini shakllantirishda refleksiya – xususiy ilmiy faoliyatini tahlil qilish ko'nikmasi asosiy o'rin tutadi.

Yuqoridagi fikrlar turli fan sohalari bo'yicha tadqiqot olib boruvchilarga tegishlidir, ammo pedagogikada tadqiqotchi o'ziga xos ba'zi bir xususiyatlari bilan farqlanadi. Avvalambor, pedagogika sohasidagi izlanishlar tadqiqotchidan pedagogik tajribaga ega bo'lishni, pedagogik jarayonning barcha "ikir-chikir"laridan xabardor bo'lishni talab etadi. Qolaversa, pedagogik muammoning

dolzarbligi respondentlar fikriga tayangan holda aniqlanadi. Bu juda muhim bosqich hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlanganlar turli soha vakillarining ilmiy tafakkuriga tegishlidir. Shu bilan birga pedagog - tadqiqotchi o'ziga xos ba'zi bir xususiyatlar bilan farqlanib turadi.

*Birinchidan*, u yetarlicha pedagogik tajribaga ega bo'lishi, kamida besh-o'n yillik pedagogik jarayonning "ichida qaynashi" kerak. Shundagina, bu jarayonning siru sinoatlaridan voqif bo'ladi, uning nozik, ko'z ilg'amas joylarini topadi, muammoni anglay oladi, mavjud ziddiyatlarni shakllantiradi va yangi yechimini qidira oladi.

*Ikkinchidan*, pedagogik muammoning dolzarbligi respondentlar fikriga tayangan holda aniqlanadi. Bu juda muhim bosqich hisoblanadi.

Ma'lumki shogirdni tayyorlashda kuchli shaxslar ko'magiga tayanish bizda qadimdan sinalgan usul. Ustoz o'zining zaif tomonlarini shogirdiga oshkor qilmagan holda o'zidanda kuchliroq ustoz huzuriga yuborishni lozim topgan. *Misol uchun Mashrab hurfikrlashda tashna edi. Birinchi ustozi Mulla Bozor Oxund (XVII asr) Mashrabni o'zidan kuchliroq bo'lgan Hidoyatulloh Ofoq Hojaga jo 'natadi. Sababi Bozor Oxund shogirdining fikrlashini bo'lib qo'yishi, o'zi bilmagan holda unga zarar etkazishi mumkin edi. Natijada Mashrab Ofoq Hoja huzurida valiy bo'lib etishadi.*

Pedagogik tadqiqotchi ob'ektlar (o'qituvchi, tarbiyachi, o'quvchi - talabalar va boshqalar) bilan ish ko'radi va pedagogik tajriba-sinov o'tkazishda undan ehtiyojkorlik talab etiladi, ayniqla, o'quvchi-yoshlar qalbiga, dunyoqarashiga, erkin fikrlashiga sinov davomida putur etmasligi lozim. Xullas, pedagogik vogelikni to'g'ri aks ettirishda tadqiqotchi sog'lom fikr sohibi bo'lish uchun metodologik madaniyatni egallashi shart ekan.<sup>1</sup>

Ta'kidlash joizki, ayrim tadqiqotchilar pedagogik tadqiqotlarning asoslарини belgilashda pedagogikaning metodologik muammolarini umumnazariy muammolar bilan almashtirib, "statistik metodologiya", "pedagogik metodologiya" kabi ifodalarda noto'g'ri talqin qilayotgan hollarga duch kelinmoqda. Sababi falsafa fanigina metodologik baza hisoblanadi, uning barcha bo'limlari, tushunchalar, qonuniyatları, toifalari metodologik ahamiyat kasb etishi e'tirof qilingan. Shu bilan birgalikda filosofiyani metodologiya bilan to'liq almashtirish ham yaramaydi: metodologiya - bu boshdan - oxir filosofiya emas, balki uning asosiy funksiyalarini, ayrim jihatlarini o'zida aks ettiradi, xolos.

Shunday qilib, hozirgi kunda pedagogika fanining metodologik asosi filosofiyadir. Filosofyaning bosh masalasi esa ob'ektiv borliq va inson o'rtasidagi o'zaro aloqani oydinlashtirish hisoblanadi. Olam bilan odam mavjudligini tadqiq qilish insonning cheksiz faoliyatini va xarakterini o'rganishdir.

Individning shaxs darajasida namoyon bo‘lishida tarbiyaning yetakchi mavqeini qadimdan faylasuflar tan olishgan va inson tarbiyasi muammosi falsafaning asosiy masalalari qatoriga kiritilgan. Shu tariqa falsafiy ta’limotlar tarkibida pedagogik fikr va g’oyalar vujudga kela boshlagan va yillar davomida rivojlanib borgan, natijada pedagogika mustaqil fan sifatida ajralib chiqqan. Demak, hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, pedagogika fanining metodologiyasini jamiyat taraqqiyoti qonunlarini ifoda etuvchi zamonaviy filosofiya, uning bilish nazariyasi tashkil etadi.

### **2.3. Pedagogik ijodkorlik va uning o‘ziga xos xususiyatlari**

Shaxs ijodkorlik sifatlarini rivojlantirishga asosiy metodologik va konseptual yondashuvlar, kreativ shaxs individual sifatlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari, uzluksiz ta’lim tizimida pedagoglar kasbiy ijodkorligini tashkil etish texnologiyalari bilan bog‘liq masalalar yoritilgan.

Bilish faoliyati ko‘p qirrali, murakkab jarayon bo‘lib, uning ta’limni amalga oshirishdagi samaradorligi pedagog qobiliyati, izlanuvchanligi, tafakkuri, kuzatuvchanligi va ijodiy yondashuviga bog‘liq. Shuning uchun ham bilish jarayonida ijod muhim o‘rinni egallaydi.

*Ijod* – insonning fan, texnika, ishlab chiqarish, madaniyat va boshqa sohalarda ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan yangilik yaratishi bilan bog‘liq murakkab psixologik jarayondir. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, ijodda bilim, tajriba, iste’dod namoyon bo‘ladi. Abu Nasr Forobiyning ta’rifiga ko‘ra «ijod – bilish jarayonida shunday ulug‘ fazilatki, inson uni egallah uchun boshqa hamma fazilatlarini ishga solishi kerak». Ijod qilish jarayonida shaxs izlanadi, kuzatadi, tadqiqotlar olib boradi, natijalarni tahlil qilib, mantiqiy xulosalar chiqaradi.

*Ijodkorlik*- fan va amaliyotda ma’lum bo‘lmagan yangi g’oyalarni pedagogning tahlil qilishi, turli yangi texnik ijodiy yechimlarni o‘rganishi, ishlab chiqishi, sinab ko‘rishi va taqqoslashi kabi tadqiqotchilik tavslifidagi vazifalarni amalga oshirishni ifodalaydi. Bu jarayon pedagogning bilim saviyasini oshiruvchi va mustahkamlovchi, faol va mustaqil fikrlash xislatlari, ma’naviy-ma’rifiy saviyasi sezilarli o‘sishiga va kelajakda haqiqiy ijodkor shaxs bo‘lib yetishishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Ijodkorlik pedagoglar egallayotgan bilimlarning mustahkamligi va mukammalligini ta’minalash, ularda faol va mustaqil fikrlovchi shaxs xislatlarini shakllantirish, aqliy qobiliyatlarini rivojlanirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Bu holat bo‘lajak mutaxassislarning fan asoslarini o‘zlashtirishida, bu jarayonga bevosita rahbarlikni amalga oshirishda, kasbiy ijodkorlikka asoslangan yondashuvlarni joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijodkorlik shaxsda mustaqil fikrlash sifatlari namoyon bo‘lishining eng asosiy va faol shakli hisoblanib, uni quyidagi belgilariga ko‘ra tasniflash mumkin: ijod turi (texnik, texnologik, tashkilotchilik, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy, pedagogik, didaktik, kasbiy, aralash); ijod darajasi (mono ijod, multi ijod, mega ijod); ijod qamrovi (ixtisoslik, mutaxassislik, bilim sohasi, tarmoqlararo, milliy, mintaqaviy, mintaqalararo, xalqaro); ijodning davomiyligi (qisqa muddatli, o‘rta muddatli, uzoq muddatli); ijodning shakli (innovatsion, ilmiy-tadqiqotchilik, ta’limiy, investitsion, aralash); umumiy jihatlariga ko‘ra (yangi g‘oyalarni hayotga tatbiq etish; prinsipial jihatdan yangi yechimlarni ilgari surish; yangilikni amaliy qo‘llash); yaratilgan ijod mahsulining ma’nosи va murakkabligiga ko‘ra (ratsionalizatorlik taklifi; ixtiro; kashfiyat).

Pedagoglar ijodkorlik faoliyatini tashkil qilish mustaqil fikrlashni rivojlantirish, bilim egallashdagi intiluvchanlik, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, o‘zlashtirilgan bilimlarni ta’lim va amaliy faoliyatda mustaqil qo‘llay olishga o‘rgatishda namoyon bo‘ladi.

Amalga oshirilgan tadqiqot ishi doirasida pedagog shaxsiga xos bo‘lgan ijodkorlik bilim, ko‘nikma va malakalari tushunchalari tadqiqot nuqtai nazaridan aniqlashtirildi. Jumladan: ijodkorlik bilimlari – yangi yechim ishlab chiqish uchun talab etiladigan tushuncha va tasavvurlarning bilish faoliyati mahsuli sifatida inson ongidagi tizimlangan in’ikosini; ijodkorlik ko‘nikmalari – shaxsning maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy faoliyatda aqliy jarayon bosqichlarini tez va to‘laqonli amalga oshirish darajasini belgilaydi. Ijodkorlik malakalari esa shaxsning ijodiy faoliyat reproduktiv bosqichlarini qisman avtomatlashgan tarzda, aqliy jarayon bosqichlarining faqat dastlabkisini anglagan holda amalga oshira olish darajasini anglatadi.

Ijodkorlik bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish uchun mashg‘ulotlar jarayonida pedagoglarda ijodiy o‘quv topshiriqlari, muammoli vaziyatlar hamda fazoviy tasavvurni rivojlantirishga qaratilgan mashqlardan tizimli foydalanish talab etiladi. Pedagoglar ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish omillari har bir mavzu, har bir darsda o‘quv faoliyatining asosi bo‘lishi lozim. Ijodkorlik faoliyati o‘qituvchi va pedagog faoliyatining barcha qirralarini qamrab oladi, uni samarali tashkil qilish hamda ta’lim jarayonining sifatini ta’minlashga xizmat qiladi.

Pedagoglarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ilmiy-texnik ma’lumotlar bilan ishlash muhim o‘rin tutadi. Turli axborotnomalar, lug‘at va glossariylar, ilmiy faoliyat bo‘yicha me’yoriy-huquqiy hujjatlar, ixtirochilik va patentshunoslik materiallari pedagoglar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kreativ pedagogik texnologiyalar pedagoglarning qo‘yilgan vazifalarni hal qilishida produktiv faoliyatni amalga oshirishini nazarda tutib, muammoli fikrlashni rivojlantirish, ma’lumotlarni yig‘ish hamda natijani tekshirib ko‘rish

bosqichlarini belgilab olishda pedagoglar ijodkorlik faoliyati samaradorligini oshirishning muhim omili sanaladi. Kreativ pedagogik texnologiya tushunchasini shaxs kasbiy ahamiyatli sifatlarini tarkib toptirishning mazmuni va jarayonlari o‘zaro yaxlitlikda loyihalangan hamda dasturlashtirilgan vazifalarning maqsadli amalga oshirilishini ta’minlovchi pedagoglar kasbiy ijodkorligini rivojlantirishning metodik tizimi sifatida ta’rifladik.

Kreativ pedagogik texnologiyalarni loyihalashda quyidagi tamoyil taklif etilgan: pedagogik tizim hamda uning barcha tarkibiy qismlari: maqsadi, mazmuni, tashkiliy shakllari metodlari hamda ta’lim vositalari, pedagogik kadrlar hamda ichki ta’lim muhitining shaxs kreativligini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi; kreativ pedagogik texnologiyaning yaxlit ta’lim jarayonida ham, lokal pedagogik bosqichda ham tizimli tavsifga ega ekanligi; pedagoglar tomonidan ijodiy o‘quv topshiriqlarini bajarishda yechimni ishlab chiqish trayektoriyasi va mazmunining mustaqil belgilanishi; kasbiy ijodkorlikka yo‘naltirish orqali pedagoglarning moslashuvchanlik, harakatchanlik, innovatsion yechimga intiluvchanlik sifatlarini tarkib toptirishga qaratilganligini e’tiborga olish.

Kreativ pedagogik texnologiyalarni joriy etish quyidagi yondashuvlar asosida amalga oshiriladi:

1. Amaliy bilishga asoslangan izlanuvchanlik yondashuvi. Bunday yondashuv doirasida pedagoglar kasbiy ijodkorligini tashkil etish va rivojlantirishning kreativ pedagogik texnologiyalari yangi amaliy-tatbiqiy ma’lumotlarni yig‘ish bilan tavsiflanadi.

2. Nazariy bilishga asoslangan izlanuvchanlik yondashuvi. Ushbu yondashuvda asosiy e’tibor pedagoglar kasbiy ijodkorligiga doir yangi nazariy bilimlarni hamda bilim sohalarini qidirishga qaratiladi.

Kreativlik sifatlari:

- muammolarni ilg‘ash va shakllantirish;
- yangi g‘oyalarni yaratish;
- g‘oyalarni uyg‘unlashtirish;
- nostandard yechimlar yaratish;
- ob’ektlarni takomillashtira olish

Kasbiy ijodkorlik :

- mutaxassislik ko‘nikma va malakalari,
- ilmiy- texnik bilimlar hamda iqtisodiyot sohalari innovatsion faoliyati,
- ta’lim – fan – ishlab chiqarish integratsiyasi asosida intellektual mulk,
- ya’ni ijodkorlik
- mahsulini yaratishga
- qaratilgan faoliyat.

## Kasbiy ahamiyatli sifatlar:


- individual-tipologik;
- sensor va perceptiv;
- attention;
- psixomotor;
- mnemik;
- imajinitiv;
- tafakkur;
- irodaviy.

*Pedagogning ijodkorlik sifatlar-* shaxsning aniq maqsad sari ongli tarzda faoliyat yuritishining yuqori ko‘rsatkichi bo‘lib, mustaqil fikrlar, tasavvurlar, tushunchalar, kuzatishlar diqqat va qobiliyatlar majmuidir.

Pedagoglarning kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlashning pedagogik tizimi samaradorligini baholashda o‘rganuvchanlik, intellekt hamda kreativlikni o‘zida mujassamlashtiruvchi kognitiv jarayonlarning uch tarkibli modeliga asoslanildi. Bunga ko‘ra, har qanday kognitiv jarayon o‘zida kognitiv tajribani o‘zlashtirish, qo‘llash va o‘zgartirishni mujassamlashtirishi lozim. Ya’ni bunda tajribani o‘zlashtirish qobiliyatini o‘rganuvchanlik bilan, tajribani amalda qo‘llash samaradorligini umumiy intellekt bilan uni o‘zgartirishni kreativlik bilan izohlash mumkin. Muammoli o‘quv topshiriqlari yechimi yuzasidan ijodiy qaror qabul qilishda uning mohiyatini anglash, yechim bo‘lib xizmat qiladigan loyihalarni yaratish hamda ulardan eng maqbulini tanlash bilan bog‘liq jarayonlar kognitiv, divergent hamda konvergent fikrlashning o‘zaro bir-birini taqozo etuvchi ketma-ketligida amalga oshadi.

Kreativ pedagogik texnologiya samaradorligini tadqiq etishda pedagogik tizim tarkibiga pedagogik kuzatuv elementlari kiritilganligi, ya’ni mazkur ta’lim texnologiyasini amalga oshirish muhim kasbiy jihatlarni shakllantirishga qaratilganligiga e’tibor beriladi.

Kreativlik sifatlari quyidagilar sanaladi:



**Kreativlik negizida aks etuvchi muhim sifatlar**

*Pedagogik kreativlik:* pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyat.

Pedagogning kreativlik potensiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potensial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi.


Kreativ potensial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligida, yangi g'oyalarni yaratish, qobiliyati, shuningdek, shaxs xarakteriga xos jihatlar – bir qolipda fikrlamaslikda, o'ziga xoslikda, tashabbuskorlikda, noaniqlikka toqat qilishda, zakovatli bo'lishda aks etadi.

Pedagog kreativlik potensialiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
  - yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
  - ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;
  - hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish

Har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq.

Pedagogning kreativlik potensialini rivojlantirishda quyidagi metodlardan foydalanish samarali sanaladi:



### **Pedagogik kreativlik pedagogning kreativlik potensialini**

Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi.

Pedagog o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishslash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur.

Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o‘z oldiga muammoli masalalarni qo‘yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo‘lgan dalillar bilan to‘qnash keladi. Buning natijasida o‘z ustida ishslash, mustaqil o‘qib o‘rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.


Kreativlik potensialiga ega pedagog o‘zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi:

- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;
- masalaning qo‘yilishini tahlil qila olish;
- masalani hal qilish rejasini tuzish;
- masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.)larni qo‘llash;
- masalani hal qilish usullarini tanlay olish;
- qabul qilingan qarorning to‘g‘riligini asoslash va qayta tekshirish;
- masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;
- masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish



Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi. Natijada pedagog:

- ijodiy fikrlashga odatlanadi;
- ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish ko‘nikmalarini puxta o‘zlashtiradi;
- pedagogika yoki mutaxassislik fani yutuqlari hamda ilg‘or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;
- pedagogik jamoa tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy loyihalarni bajarishda faol ishtirok etadi

Pedagogning kreativ potensiali quyidagi tarkibiy asoslarni o‘z ichiga oladi:



Pedagogning kreativlik potensiali ko‘p darajali jarayon va u quyidagi tamoyillarga tayanadi: Pedagogning kreativlik potensiali darajasini aniqlovchi mezonlar quyidagilar sana



**Pedagogning kreativ potensiali darajasini aniqlovchi mezonlar**

Ushbu mezonlar pedagoglar kreativ potensialini uch darajada aniqlash imkonini beradi:

<b>Pedagog kreativ potensialining muhim darajalari</b>	
<b>Darajalar</b>	<b>Daraja xususiyatlari</b>
Yuqori	Muntazam ravishda turli tashabbuslarni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligini izchil namoyish etib boradi, kreativ jihatdan o‘ta faol, izlanuvchan
O‘rtalik	Ba’zan u yoki bu tashabbusni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligi muntazam bo‘lmasa-da, ammo namoyon bo‘ladi, kreativ jihatdan bir qadar faol, izlanuvchan bo‘lishga intiladi
Past	Garchi u yetarlicha asoslanmagan bo‘lsa-da, tashabbusni ilgari surishga intiladi, kreativ qobiliyati yetarlicha namoyon bo‘lmaydi, izlanuvchan bo‘lishga intilmaydi

### **1.3-MAVZU: PEDAGOGIK TADQIQOTLARDA ILMIY DALILLAR VA ULARNING ROLI.**

Reja

1. *Ilmiy dalillarning mantiqiy-genesologik mohiyati*
2. *Pedagogik tadqiqotning tuzilishi*

**Tayanch so’zlar:** Gnoseologiya, sotsiologik yondashuv, psixologik yondashuv, aksilogik yondashuv, ishlanma

#### **3.1. Ilmiy dalillarning mantiqiy-genesologik mohiyati**

Ilmiy dalillarning mantiqiy-genesologik mohiyati ni mantiqiy qurilishi ta’lim mazmunining gnoseologik xususiyatlariga bog‘liq.

Gnoseologiya (yunoncha – “gnosis” (“gnoseos”) – bilim, ong, o‘rganish, logiya – fan, ta’limot) bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatlar, uslublari, ilmiy tafakkur shakllari, shuningdek, insonga xos bo‘lgan borliqni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, ta’limot

**Gnoseologiya (yunoncha – “gnosis” (“gnoseos”) – bilim, ong, o‘rganish, logiya – fan, ta’limot)** bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatlar, uslublari, ilmiy tafakkur shakllari, shuningdek, insonga xos bo‘lgan borliqni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, ta’limot

Muhammad al-Xorazmiy (IX asr) bilish nazariyasi rivojlanishiga katta hissasini qo'shgan. U birinchi bo'lib koinot ob'ektlarining harakatlari hamda yerdagi nuqtalarining joylashishini jadval ko'rinishida aks ettirib, tajriba-kuzatish va tadqiqotlar metodlarini ilmiy jihatdan asoslab berdi, yagonalikning birligi tamoyili, alohida va umumiyligi, induksiya va deduksiyalarning mohiyatini aniqlashtirdi; matematik masalalarni yechishning algoritmik metodini ishlab chiqdi. Bu metoddan bugungi kunda ham foydalanib kelinmoqda.

Al-Kindiy (IX asr) ilmiy bilishning uch bosqichli konsepsiyasini ilgari suradi. Alloma insonning bilishini: sezgiga oid va ratsional bilish tarzida ikkiga ajratadi. Sezib bilishning predmeti va ob'ekti barcha jism va moddiy narsalar hisoblanadi. Kindiyning fikricha, sezib bilish aql uchun muhim materialni beradi."Faqtgina aql tashqi dunyo haqida haqiqiy bilim va tushunchani ishlab chiqishga qodir", - deb hisoblaydi Kindiy.

Abu Nasr Forobiy (X asr) Kindiy g'oyalarining mohiyatini aniqlashtiradi. Biror narsani bilishga intilgan inson avvalo uning ma'lum holatini o'rganadi, mavjud bilimlarini o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilimlarga yo'naltiradi. Alloma fanlar klassifikatsiyasi, bilish faoliyatini tashkil etishga oid tavsiyalarni ishlab chiqadi. "Yaxshi nazariyotchi bo'lish uchun deydi, - Abu Nasr Forobiy, - qaysi fan bilan shug'ullanishidan qat'iy nazar quyidagi uchta shartga amal qilish kerak:

- 1) fan asosida yotuvchi barcha tamoyillarni yaxshi bilishi;
- 2) ushbu tamoyil va ma'lumotlar asosida zarur xulosani chiqarishi, ya'ni, mulohaza yuritish qoidalarini bilishi kerak;
- 3) xato nazariyalarni isbotlab berish va boshqa mualliflar fikrlarini tahlil qilishni, shuningdek, haqiqatni yolg'onidan ajratish va xatoni tuzatishni bilishi zarur.

Abu Rayhon Beruniy (XI asr) bilishni uzluksiz, to'xtovsiz davom etadigan jarayon sifatida tushunadi. Allomaning fikricha, insoniyat borliqning haqiqiy mohiyati, hozircha noma'lum bo'lgan jihatlarini kelajakda bilib oladi.

Abu Ali ibn Sinoning (XI asr) bilish nazariyasida sabab haqidagi ta'limot alohida o'rinni oladi. U sabablarni aniq, sezish asosida anglanadigan va yashirin, tashqi holatlarini tahlil etish asosida tushuniladigan sabablarga ajratadi va hodisaning mohiyati uning yuzaga kelish sabablarini aniqlash yo'li bilan anglanishi mumkin deb hisoblaydi.

Chex pedagogi Ya.A.Komenskiy XVII asrda ta'lim jarayonining mohiyatini ilmiy asoslashga urindi. Alloma bolaning aqliy, jismoniy o'sishini tabiiy qonuniyatga muvofiq kelishi g'oyasini asoslangan holda ta'lim jarayoni, uning tuzilishi, tamoyil va metodlari belgilaydi. Ya.A.Komenskiy ushbu g'oyasi G'arb

olimlarining ta’lim jarayonining gnoseologik asoslarini ko‘rsatish, o‘quv jarayoniga tabiiy va ijtimoiy qonuniyatlar ta’sirini yoritishga urinishlaridan biridir.

XVIII asrda fransuz olimi Jan Jak Russo ham insonning tabiat va jamiyatdagi o‘rnii haqidagi falsafiy g‘oyalar asosida ta’lim mohiyatini ochib berishga uringan. Uning fikricha, ta’lim jarayonining mohiyati bolaning atrof-muhitni bilishiga asoslanadi.

Hozirda ta’lim mohiyatini tushunishga turlichay yondashuv mavjud. Ya’ni:

1. Sotsiologik yondashuvga ko‘ra ta’limning mohiyati ijtimoiy tajribalarni yoshlarga yetkazishdan iborat. O‘quvchilar insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi natijalari bo‘lgan bilimlarni o‘rganadilar. Ta’limning mazmuni o‘quvchilarga ajdodlar tajribasini o‘zlashtirishga xizmat qiluvchi jarayonini tashkil etishdan iborat. Bu qoida ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning muhim omili – shaxs kamolotini tushunishga ilmiy yondashishni anglatadi.

2. Xususiy pedagogik yoki didaktik yondashuv yaxlit ta’lim jarayonining borishini belgilab beruvchi bilim olish bosqichlari (o‘quv materialini o‘rganishni, uni anglab yetish, mustahkamlash, amaliy faoliyatda bilimlarini qo‘llash)ni ifodalaydi. Mazkur yondashuvga ko‘ra ta’lim mazmuni o‘quvchilar tomonidan bilim egallash bosqichlarining ketma-ketligiga amal qilish asosida faoliyatni tashkil etishdan iborat.

3. Psixologik yondashuv L.S.Vygotskiyning (1896-1934 yillar) ta’limning shaxs rivojlanishida asosiy omil bo‘lishi haqidagi “yaqin rivojlanish zonasi” deb yuritiluvchi qarashining yaratilishi bilan bog‘liq. Unga ko‘ra, ta’lim faqat yaqin zonada qurilganda, hali to‘la shakllanmagan, lekin o‘quv jarayonini qurishga asos bo‘la oladigan mexanik harakatlar asoslangandagina mazmunga ega bo‘ladi.

4. Dialektik yondashuv tabiat, jamiyat va fikrlashning harakatlanishi hamda rivojlanishi borasidagi umumiylar qonunlarni yorituvchi falsafiy ta’limotga asoslanadi. Unga ko‘ra ta’lim jarayoni inson ongingin borliqni aks ettira olishiga imkon berishi zarur. Haqiqatni bilish murakkab jarayon. Dialektik yondashish g‘oyasiga ko‘ra rivojlanishning asosi qarama-qarshilik hisoblanadi. Rivojlanish qarama-qarshi kuchlar kurashidir.

Dialektik yondashishga binoan ta’lim jarayonining asosiy qarama-qarshiliklari quyidagilar sanaladi:

1. Ijtimoiy-tarixiy (ilmiy) bilimlar hajmi va o‘quvchi o‘zlashtirgan bilimlar hajmi o‘rtasidagi qarama-qarshilik. Bu qarama-qarshilik ta’lim jarayonini harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. U ta’lim mazmunini doimiy takomillashtirishga olib keladi. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini ijtimoiy-texnik taraqqiyot darajasiga yaqinlashtirish zaruriyati ta’lim mazmunini tubdan yangilash, uni yangi tamoyil, shakl, metod va vositalarini izlashni muhim ijtimoiy vazifa qilib qo‘ymoqda.

2. O‘quvchining bilimi va u egallab olishi kerak bo‘lgan shakl, metod va vositalari) darajasi o‘rtasidagi qarama-qarshilik. Bu qarama-qarshilikni hal etish o‘quvchining intellektual rivojlanishi sur’ati va darajasiga bog‘liq. Bir xil mazmun va hajmdagi o‘quv materiali ham aqliy rivojlanishning turli ko‘rsatkichlari orqali namoyon bo‘lishi mumkin.

3. O‘quvchining mavjud rivojlanish darajasi bilan ijtimoiy buyurtmada ko‘zda tutiluvchi rivojlanish darajasi o‘rtasidagi qarama-qarshilik. Agarda ijtimoiy talab bolaning idrok etish imkoniyatidan yuqori bo‘lsa, unda jiddiy qiyinchilik yuzaga keladi.

5. Aksiologik (yunoncha “axios” – qimmatli, logiya – fan) yondashuv – qadriyatlar haqidagi falsafiy ta’limot bo‘lib, unga ko‘ra ta’lim jarayonida o‘quvchi hayot, sog‘liq, muhabbat, oila, ta’lim, mehnat, tinchlik, ishonch, go‘zallik, ijod, insoniylik va shu kabi qadriyatlar bilan tanishtirib borilishi lozim.

### **3.2.Pedagogik tadqiqotning tuzilishi**

Xuddi har qanday mehnatdek, ilmiy tadqiqot mehnati ham o’ziga uch asosiy komponentni qamraydi. Ular insonning maqsadga muvofiq faoliyati, ya’ni xususan ilmiy mehnatining o’zi, ilmiy mehnat predmeti va ilmiy mehnat vositasi.

Insonning ilmiy faoliyati maqsadga muvofiqligi tekshirilayotgan ob’yekt (mehnat predmeti) haqida yangi yoki aniqlangan bilimga erishishda bilihning konkret usullari yig’indisiga tayanadi. Bunda mos keladigan ilmiy uskunalaridan stendlar, o’lchov, hisoblash va boshqa asboblardan foydalilanildi.

Ilmiy mehnatning predmeti dastavval tadqiqotning bilish uchun inson faoliyati yo’natilgan ob’yektdir. Tadqiqot ob’yekti material dunyoning har qanday predmeti hodisasi, hodisalararo aloqalar bo‘lishi mumkin. Tadqiqot predmetiga ob’yektdan tashqari bu ob’yekt haqidagi ilgarigi bilimlar ham kiradi. Ilmiy tadqiqot bir necha tiplarga bo’linadi.

*Fundamental tadqiqot* – bu yig’ilgan bilimlar sistemasini rivojlantirish va prinsipial yangi bilim olishdir. Maqsadi tabiatning yangi qonunlarini kashf qilish, hodisalararo aloqalarni ochish va yangi nazariyalar yaratish. Bunday tadqiqot konkret, xohlagan natijani olish ehtimoli 10% dan oshmaydiganligi nuqtai nazardan sezilarli darajada tavakkal (risk) va noaniqliklar bilan bog‘liq. Shularga qaramasdan fundamental tadqiqot ilmning o’zining rivojlanishi hamda jamiyat ishlab chiqarishi asosini tashkil etadi.

*Amaliy* (tadbiqiy) tadqiqot natijalarida mavjud ishlab chiqarish vositalarini yoki iste’mol predmetlarini takomillash yoki yangisini yaratishga erishiladi. Amaliy tadqiqot, ayniqsa texnika sohasidagi fundamental tadqiqotda olingan bilimni moddiylashtirishga yo’naltirilgan. Texnika sohasida amaliy (tadbiqiy)

tadqiqot odatda tabiat bilan to'g'ridan to'g'ri ishi yo'q; ularda tadqiqot ob'yekti mashina, texnologiya yoki tashkiliy struktura, ya'ni «sun'iy» tabiat. Amaliy yo'naltirganlik va aniq maqsadligiga amaliy tadqiqotdan xohlagan maqsadni olishning ulkan ehtimolini beradi (80... 90% ko'proq).

*Ishlanma* – bu amaliy tadqiqot natijalarini, tajriba modellarini yaratishda va ishlatib ko'rish, ishlab chiqarish texnologiyasida hamda mavjud texnikani mukammalashda foydalaniladi. Ishlanma etaplarida natijalari ilmiy tadqiqot maxsulotlari shunday shakl oladiki, ularni jamiyat ishlab chiqarishining boshqa sohalarida ham foydalaniladi.

Ko'rilgan tasniflash shartligina bo'lib, bu uchlasining chegaralari harakatchandir, ammo ularni ilm-fan tabiiyligi birlashtiradi.

Funlamental tadqiqot bilan xo'jalik ishlab chiqarishining o'rtasida o'zaro bog'liq etaplar yotadi, ya'ni amaliy tadqiqot – ishlanma-loyiha-o'zlashtirishlar. Loyihalash va o'zlashtirish ayni vaqtda fan hamda texnika sohasiga kiradi. Bu amaliy ish, chunki u ijodiy faoliyatda ilgaridan ma'lum bo'lgan ko'nikma, qabul qilingan – standart va tajribaviy mahoratlargagina asoslanib qolmasdan, texnika, texnologiya yoki ishlab chiqarishni tashkillashtirish, sohalarida yangi ajib yechimlarni olish uchun hamdir.

*Ilmiy tadqiqot*- bu ob'yektiv borliqni, qonuniylikni va dunyo realligi hodisalari aloqalarini o'rganadigan jarayondir. Bilish odam ongingin, odam fikrining ilmiy tadqiqot yordamida boshqariladigan, bilmasdan bilishiga yoki to'liqmas va aniq bo'limgandan to'liqroq va aniqroq bilishga yo'naltirilgan murakkab harakat jarayoni.

Amaliy tadqiqotda olib boriladigan ilmiy tadqiqot, ayniqsa texnika sohasida qator etaplarni o'tadi. Bular ilmiy tadqiqotdagi strukturani tashkil qiladi va u quyidagilardir.

**1. Muammoning qo'yilishi.** Bu etap tadqiqot qilinishi kerak bo'lgan muammoni izlash bilangina bog'liq bo'lib qolmasdan, ilmiy tadqiqotning masalalarini aniq va ravon ifodalishini ham izlaydi. Tadqiqot masalasini to'g'ri ifodalash favqulotda katta ahamiyatli, chunki tadqiqotning muvaffaqiyatli tugashi unga ko'p jihatdan bog'liq.

Muammoni qo'yishda ma'lumot yig'ish va dastlabki ma'lumotlarga ishlov berishga o'ta katta ish kiritiladi – texnik va nazariy usullar, o'xshash masalalarni yechish vositalari, qo'shni sohadagi tadqiqotlar natijalari haqidagi ma'lumotlar va boshqa maxsus ma'lumotlar yig'ish boshlangunchagini emas, balki butun ish mobaynida davom etish kerak.

**2.Dastlabki faraz.** Odatda ishchi faraz aniq ifodalangan tadqiqot masalasiga va yig'ilgan dastlabki materialning tanqidiy tahliliga tayangan holda chiqaziladi. Ayni vaqtda ishchi faraz bir – necha variant bo'lishi mumkin, ulardan eng

maqsadga muvofiqlarini olinadi, ayni vaqtda boshqa variantlarini ham e'tibordan qoldirilmaydi.

Ishchi farazni aniqlash uchun ba'zan dastlabki tajribalar o'tkazishga ham to'g'ri keladi. Ular o'rganilayotgan ob'yecktni chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

**3. Nazariy tadqiqot.** Nazariy tadqiqot fundamental ilm-fanning tadqiq qilinayotgan ob'yecktga qo'llaniladigan, matematika apparati, nazariy mexanika va boshqa fanlar yordamida olingan yangi, hali ma'lum bo'limgan, qonuniyatlarini tahlil va sintez qilishdan iborat. Nazariy tadqiqotning maqsadi kuzatiladigan hodisalarni, ularning aloqalarini to'liqroq umumlashtirish, ishchi farazdan iloji boricha ko'proq oqibat olishdir. Boshqacharog'i esa qabul qilingan farazni rivojlantiradi va tekshirilayotgan muammo nazariyasini ishlab chiqishga olib keladi, ya'ni shu muammo chegarasida ilmiy umumlashtirilgan bilimlar sistemasiga olib keladi. Bu nazariya o'rganilayotgan muammo bo'yicha hodisalar faktlarini tushuntira olish, oldindan aytish qobiliyatiga ega bo'lish kerak va bu yerda hal qiluvchi faktor bo'lib amaliyot kriteriyasi qo'yiladi.

**4. Amaliy tadqiqot.** Tajriba yoki qo'yilgan ilmiy amaliyot – ilmiy tadqiqotning texnik jihatdan eng murakkab va katta mehnat talab etadilar. U tadqiqotning xarakteri va uning birin ketinligi bilan bog'liqdir. Bu holda tajriba nazariy tadqiqot natijalarini tasdiqlaydi, ba'zan esa rad qiladi. Ammo tadqiqot tartibi o'zgacha bo'ladi. Tajriba nazariyadan oldin bajariladi. Bu yetarlicha nazariy tadqiq natijalari bo'limganda izlanuvchi tadqiqot uchun xarakterlidir.

**5. Natijalarini tahlil qilish, solishtirish.** Nazariy va tajribaviy tadqiqot natijalari tahlili va solishtirilishi ilgari surilgan farazni tasdiqlaydi. Teskari bo'lishi ham mumkin.

**6. Oxirgi xulosalar.** Bu etapda tadqiqotning natijalari o'tkaziladi, ya'ni olingan natijalar va ularning qo'yilgan masala bilan mosligi ifodalanadi. Faqat nazariy uchun bu oxirgi etap bo'ladi. Texnikada ko'pincha yana bir etap paydo bo'ladi.

**7. Natijalari o'zlashtirish.** Bu etap olingan natjalarni sanoat o'zlashtirishga tayyorlash, joriy qilishni texnologik yoki konstruktorlik prinsiplarini ishlab chiqish. Bunda ko'pincha tadqiqot muallifi ishtirok etishga to'g'ri keladi. Chunki u ko'pincha sof muxandislik masala ramkasiga sig'masligi mumkin.

### **Ilmiy tadqiqot muammosining qo'yilishi.**

Har qanday ilmiy tadqiqotni ilmiy muammoni qo'ymasdan bajarish iloji yo'q. Muammo-bu yechimini talab qiladigan nazariy va amaliy masaladir, ya'ni

tekshirilishi lozim bo'lgan masala. Demak muammo bu shunday narsaki, uni biz bilmaymiz, bu ilm-fan rivoji va jamiyat talabi bilan paydo bo'lgan.

Muammo bekordan paydo bo'lmaydi, ular hamisha ilgari olingan natijalardan kelib chiqadi. Muammoni to'g'ri qo'yish, tadqiqot maqsadini aniqlash, ilgarigi bilimdan muammoni keltirib chiqarish oson emas. Shu bilan birga odatda ma'lum bilimlar muammo qo'yishga yetarli, ammo uni oxirigacha yechish uchun yetarli emas. Muammoni yechish uchun ilmiy tadqiqot beradigan yangi bilimlar zarur. Shunday qilib har qanday muammo o'zaro ajralmas ikki elementning bog'liqligidir. Nimanidir bilmasligimiz haqidagi ob'yektiv bilim va ilgari olingan bilimni prinsipial yangicha qo'llash yangi qonuniyatni olish imkoniborligini faraz qilish. Bunda bu yangi bilim amalda jamiyatga zarur ekanligi faraz qilinadi. Muammoni qo'yishning uch etapini farq qilish lozim: muammoni izlash, xususan muammoni qo'yish va muammoni yechish.

1. ***Muammoni izlash.*** Ko'pincha ilmiy va texnikaviy muammolar yuzada yotadi. Ularni izlash kerak emas. Paydo bo'ladigan qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish yo'llarini aniqlash va ularni yechishning yangi vositalarini topishda ularga sotsial buyurtmalar keladi. Masalan, shunday muammolar qatoriga havoni ifloslantirmaydigan energetik qurilma yaratish muammosi. O'ta aniq va ko'rinarli bo'lмаган muammolar ham mavjud.

-Ko'pincha muammo «Teskaridan» paydo bo'ladi. Amaliy faoliyat, natijasida teskari yoki keskin farq qiluvchi natijalar olinganida.

-Muammoni izlash va tanlab olishda ularning yechish uchun bo'lishi mumkin bo'lgan natijalarini amaliyotning talablari quyidagilar bilan tasdiqlanadi.

-Ayni muammoni yechmasdan belgilangan yo'nalishda texnikaning yanada rivojlanishi mumkinmi?

-Mo'ljallangan tadqiqot texnikaga konkret nima beradi?

- Belgilangan tadqiqot natijalari olinadigan yangi qonuniyat, ya'ni usul va vosita ilm hamda texnikada mavjudidan ko'p amaliy bahoga erishishi mumkinmi?

2. ***Muammoni qo'yish.*** Yuqorida eslatilganidek muammoni to'g'ri qo'yish, ya'ni maqsadini aniq ifodalash, tadqiqot chegarasini aniqlash va shu bilan tadqiqot ob'yektini belgilash oddiygina ish emas va har qaysi konkret hol uchun individualdir.

Muammo qo'yishning ma'lum umumiyligiga ega bo'lgan quyidagi asosiy «qoida» sini ko'rsatish mumkin.

a) ma'lumni noma'lumdan qat'iy ajratish. Muammoni qo'yish uchun shu sohadagi fan-texnikaning yutuqlarini mukammal bilish kerak, aks holda yanglishib ilgari yechilgan muammoni qo'yib qo'yish mumkin.

b) noma'lumni cheklash, takomillashtirish. Noma'lumning va o'rganilishi lozimning chegarasini aniq belgilash kerak.

v) yechishning aniq shartlarini aniqlash, bu degani muammolar tiplarini aniqlash degani. Tadqiqotning umumiy usulini aniqlash va o'lhash aniqligi hamda baholash masshtabini berish.

g) noaniqligining yoki variantlarning mavjudligiga, bu ilgarigini yangi pog'onada takrorlashga yo'l qo'yadi.

**3. Muammoni yoyish.** Ilmiy yoki ilmiy – texnikaviy muammoni bir karrali akt sifatida ko'rish mumkin emas. Muammoning yechimi ko'pincha uning yoyilishi bilan mos keladi, ya'ni qo'shimcha savollarining paydo bo'lishi va ifodalanishi bilan.Ular har qanday muammoning bog'lovchi, aniqlovchi tugunlovchi punkti bo'lgan markaziy masala atrofida guruhlanadi.

Qo'shimcha savollarni yechish tadqiqotchining qo'liga markaziy masalaga javob izlashda ma'lumotlar, faktlar beradi.

Qo'shimcha savollarni ma'lum darajada asosiy muammoning rejalariga (aspektlariga ) o'xshatish mumkin, ya'ni taddiqot ob'yektini yangi aloqalar bilan o'rganish, yangi ob'yekt bilan yoki ob'yektini yangi sharoitda o'rganishga tenglash mumkin.

Ilmiy muammoning markaziy savoli-muammoning har xil (asperaktlari) jihatidan bog'langan o'ziga xos tugunidir. Ular ba'zi hollarda alohida tadqiqot mavzusi sifatida ham ko'riliши mumkin. Alohida kichik muammo va mustaqil muammo ko'rinishida ham.

Qishloq xo'jalik mashinalarini energiya bilan ta'minlash qurilmalarini tashxislash muammosini yoyishni ko'ramiz. Bu muammo qo'qqisdan paydo bo'lgan emas, kattaroq ilmiy-texnikaviy muammodan o'sib chiqqan qishloq xo'jalik mashinasining ishlatish ishonarliligidan. Bu fundamental muammoning jihatlaridan biri. Qishloq xo'jalik texnikasiga texnik qarov berishga bo'lgan, buning tarkibiga qishloq xo'jalik texnikasining texnik holati nazorati va uning murakkab agregatlaridan bo'lgan dvigateli muammolari kirgan.

Nima uchun nazorat savoli butun boshli tashxislashga o'sib ko'tariladi? Bu savolga javob qiyinchilik tug'dirmaydi. Hamisha tez aniq va ayniqsa mashinani yoki uning qismlarini bo'laklashni talab qilmaydigan texnik holatini aniqlash va uni tiklash uchun aralashish zaruriyati va usuli mavjudligi va nazorat vositasi o'rtasida hamisha qarama-qarshilik ko'tariladi. Bu xizmat qiluvchi xodimlarning yuqori malakali bo'lishini talab qiladi.

Qishloq xo'jalik mashinalari parkining tez o'sish sharoitida aggregatning uzelini to'liq yoki qismini bo'laklab nosozligi sababini aniqlash qimmat, kam unumli , hamisha mutaxassis yetishmasligiga olib keladi.

Bo'laklamasdan bilvosita tashxis quyish usuli va vositalarining ishlab chiqilishi tezda ko'pgina savollar tug'diradi, chunki bu simptomlarni texnik holati yomonlashgan dvigatelning va uning uzellarining ishlashi xususiyati xarakterlarini

bilmasligimiz aniq bo'lib qoladi. Tashxislashning texnikgina emas, balki tashkillashtirish iqtisodiy xarakterdagi muammoning qator jihatlari paydo bo'ladi, masalan tashxislashning tebranma akkustik usulida dvigatel aloqa kanali sifatida operatsiyalarni minimumlash va tashxislashni asboblar bilan jihozlash, texnik qarovda tashxislashning o'rni va boshqalar.

Keltirilganlardan ko'rindan, bir muammo boshqasiga o'sib o'tadi va bu muammolardan yangi va yangi savollar o'sib chiqayapti, asosiy muammoning jihatlari ko'payadi, bunda kattagina me'yorda uning yoyilishi yotadi.

Albatta tadqiqotchi ilgarigi va hozirgi davrda qilingan va qilinayotgan ishni bilmasdan takrorlamasligi uchun ularni aniq bilishi shart. U adabiyotlarni va boshqa ma'lumot manbalarini puxta o'rganish shart.

### **Ilmiy ma'lumotlarni o'rganish va ishchi faraz.**

Har qanday ilmiy tadqiqot o'tkazish o'zidan oldingining ishini o'rganishi va tahlil qilish hamda uning yondosh sohasining ma'lumotlarini o'rganishdan boshlanadi. Ko'pincha tadqiqotchi xabarsizligidan ochiq eshikka bostirib kirib qoladi, "shaytonarava" yaratib qo'yadi, shoshilinch kam asoslangan noto'g'ri xulosalar qiladi, o'zining ishida ancha ilgari qilinganlarni takrorlaydi.

Bosib chiqayotgan ishlarning juda kattaligi materiallarini o'rganishni murakkab masala qiladi. Materiallarni o'rganishning ikki etapi bor.

*Birinchi etap* – ma'lumot manba uni axtarish. O'rganishni nazarda tutilayotgan yo'nalish bo'yicha monografiyadan boshlash zarur. Bu bilan ikki maqsadga erishiladi. Birinchidan tadqiqot qilinadigan muammoga zamonaviy nuqtai nazar bilan unga yondashish va tadqiqot usuli bilan tanishishi, ikkinchidan asosiy adabiyotlar bilan tanishish, chunki odatda monografiya to'lik bibliografik ko'rsatgichga ega bo'ladi.

Adabiy ma'lumotlarning keyingilarini tanlash taxminan quyidagicha bo'lishi kerak.

-biografiyada ko'rsatilgan adabiyotlar bilan tanishish (ular kitob, broshyuralar, jurnallardagi maqolalar, dissertatsiyalar va shu kabilar);

-fan – texnikaning mos bo'limi bo'yicha referativ jurnallarni va informatsion varaqalarni o'rganish.

-sohaga oid jurnallarini o'rganish va uzluksiz kuzatib borish;

-institutlar ilmiy ishlari bo'yicha maqolalari to'plamlarini, ilmiy anjumanlari ma'ruzalarini, materiallarini, dissertatsiya avtoreferatlarini o'rganish.

Ma'lumot manbalarini hamma joydan izlash kerak. Kutubxonalardan respublika va zonal axborot markazlaridan, ilmiy tadqiqot va o'quv institutlaridan izlash kerak. Bunda shuni yodda saqlash kerakki, ilmiy faoliyatining 30-35% i axborot izlanish bo'lib u biron kunga ham to'xtatilmasligi kerak.

Hamma topilgan ilmiy axborot bugungi kunda hammaga ravshan bo'lgan maxsus kartochkaga kiritilib shaxsiy kartoteka qilinishi kerak.

Kerak materialdan foydalanishni faqatgina kartochka yengillashtiradi va bajarilgan tadbiqot haqidagi tuziladigan hisobotda adabiyot ma'lumotlarini keltirishda alfavit bo'yicha ro'yxat tuzishni bajarish imkonini beradi.


*Ikkinci etap* – materiallari bilan tanishishning ikki chegaraviy holati mavjud: kitoblar, jurnallar mundarijalarini ko'rilsa, unga yakin hech narsa yuk deb hisoblab kitobni chetga surib qo'yilsa bunda biron yondash savolidagi o'ta noyob axborot materialini yo'qotadi, yoki hammasini o'qiydi, bu yana ham yomon, materialni bir boshidan qoldirmasdan konspektlaydi, bundan keyin tushunaman deyiladi.

Axborotni o'rganish etapi – tanishish va o'qish etapidan tuzilgan, tanishish quyidagi sxema bo'yicha olib boriladi.

<i>E'tibor ob'ekti</i>	<i>Olinadigan axborot</i>
Tikish	Kitobning sarlavhasi va muallifi ismi, familiyasi
Titul varag'i	Kichik sarlavha Chiqqan yili, nechanchi chiqishi, to'g'rilaqan, to'ldirilgan O'quv adabiyoti sifatida qo'yilganligi Original kitob yoki tarjima
Chiqish ma'lumotlari	Bosishga berilgan sana
Annotatsiya	Asosiy mazmun
Mundariuja	Bob va paragraf mazmuni. Ayrim bo'limlar hajmlari

Zamonaviy kitoblarda annotatsiya shartiy holda bo'ladi. 1965 yilgacha chiqqan kitoblarda bo'lmasligi mumkin. Bu maqolalarda muallifning yoki nashriyotining so'zboshisiga murojaat qilish lozim. Bu materiallar o'quvchiga kitob xarakteri haqida aniq, qisqa ma'lumot beradi. Shunda ham uni ko'rib chiqish kerak.

Agar har qanday material bilan tezgina tanishib chiqishda uning kerakligi aniqlansa uni yaxshilab o'qish kerak. Aniqlanganki, ilmiy-texnik matnning 70% idan kam bo'lmagani ortiqcha bo'ladi. Uni shunday o'qish kerakki, fikr uning ma'naviy qismiga yig'ilgan bo'lsin, uning tanqidiy tahlili quyidagi sxema bo'yicha bo'lsin.



Ilgarigi tadqiqot materiallarini shunday sxema bilan konspekt qilish kerak. Uni keyinchalik quyidagicha tanqidiy tahlil qilinadi:

- tadqiqot qilinayotgan yo'nalishda bilimning erishilgan darjasini belgilanadi.
- shu sohada ajoyib g'oyalar, qiziqarli usullar aniqlanadi,
- keyingi tadqiqotning borishi mumkin bo'lgan turi belgilanadi.

Tanqidiy tahlil asoslangan va isbotlangan bo'lismi lozim. Tanqid oldindan olingan bo'lmasligi kerak. Ilgari qilinganlarning hammasi yomon deyish to'g'ri emas, muallif taklif qilayotganlarni so'zsiz qabul qilish ham mumkin emas.

Fikrlar o'zgacha bo'la boshlaganda bu fikrlarning mosligini rangli korrelyatsiya usulida matematik analizga kelish lozim va shu kabilar.

Ishchi faraz-kuzatilgan faktorning, jarayonining yoki hodisasining ehtimoliy, faraziy rivoji keltirib chiqaradigan tadqiqotchi tomonidan asoslanib aytilgan taxmin.

Ilmiy farazga shu narsalar xarakterli, unda ma'lum bilimlar chegarasidan chiqib ketadigan, yangi mazmunli holatlar ifodalanadi, ehtimollik xarakterli yangi g'oyalar olga suriladi, ularning asosda ilmiy natijalar izlanishi paydo bo'ladi. Ilm – fanni rivojlantirish sifatida ilmiy farazning mazmuni va baholiligi ana shundaydir.

Dastlab ilmiy fikr ichki his va sezgi bilan olg'a suriladigan shaklida paydo bo'ladi. Taxmin qilishda ilmiy fantaziya katta ahamiyat kashf etadi, fantaziyasiz, fikrlashsiz ilm-texnikada bironta ham yangi g'oya aytib bo'lmaydi.

Taxminni ilmniki qilish uchun uni ilmiy farazga aylantirish zarur, fantaziyanı ilm o'rnatgan qat'iy ramkaga solish kerak. Demak aniq bir hodisa haqidagi har qanday ixtiyoriy taxmin ilmiy faraz bo'la olmaydi. Faqatgina shunday taxminlar faraz bo'la olishi mumkin, birinchidan shu soha aniqlangan ilmiy xulosa taxminlarining barchasiga teskari bo'lmasligi kerak va ikkinchidan aytilgan taxmin va mulohazalarning ehtimolligi asoslangan bo'lismi kerak. Agar ilgari surilgan taxmin ilm bilan qattiq o'rnatilgan holatlarga teskari bo'lsa uni ilmiy faraz darajasiga ko'tarish mumkin emas.

Ishchi faraz tadqiqot qilinadigan hodisani rivojlantiruvchi asbobini, asosiy sharoitlarini, harakatlantiruvchi kuchini aniqlaydi; bu ishchi faraz talab qiladiganlarning minimumi.

Ishchi faraz, tadqiqot qilinayotgan hodisaning rivoji ehtimolini tushuntirish to'liq yoki shunga yaqin ehtimol beradi; bu ishchi faraz berishi mumkin bo'lganining maksimumi. Ammo buni olg'a surilgan farazni nazariy va amaliy asoslangandan keyingina olish mumkin, ya'ni tadqiqot jarayonida asoslangan, tasdiqlangan va rivojlangan ishchi faraz ilmiy nazariyaga o'sib utadi.

Aniq va yetarlicha to'lik ishlangan ishchi faraz keyingi ishlarni juda yengillashtiradi, chunki nazariy va amaliy tadqiqot usullariga o'lchanib o'rganilayotgan ob'yekt va hodisalarni xarakterlaydigan aniq parametrlarga qaratish imkonini beradi. Bundan tashqari to'g'ri boshqarilgan dastlabki analitik ishlangan faraz, ya'ni uning matematik ifodalanishi keyingi tajribaning asosiy xususiyatlarining detallarini to'liqroq va to'g'ri belgilaydi. Hamisha nazariy tajribadan oldin bo'lgani maqsadga muvofiq.

## **2.5. Ilmiy tadqiqotning usullari.**

Ilmiy tadqiqot tartibsiz bajarilmaydi; u aniq sistemaga ega bo'lib, oldindan tuzilgan rejaga bo'ysinishi kerak. Agar tadqiqotchi taxminan harakat qilsa, undan qimmatli natija kutib bo'lmaydi. Uning qo'lida to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi kompas bo'lish kerak. Shunday kompos tadqiqot usulidir.

Eng avval tadqiqotchi bilishning umumiy usulini bilish kerak, bu unga nafaqat berilgan konkret hodisani o'rganishdagina yordamlashadi, balki bu hodisaning o'rabi turgan dunyo bilan aloqalarining ochishga ham yordamlashadi. Shunday umumiy usul, bu dialektik materializm usulidir. U material borliqni o'rganishning umumiy prinsiplari bilan tadqiqotchini quollantiradi.

Har qaysi fan ungagina taalluqli bo'lgan butun bir kompleks konkret yoki maxsus tadqiqot usullaridan foydalaniladi, ular har xil darajada unirversalligiga ega bo'ladi. Konkret ilmiy usullarining bazi birlari har xil fanlarda qo'llanilishlari mumkin, masalan matematik usullar . Boshqalari esa shu fan chegarasidagina, masalan, texnik fanlaridan, tenzametrash usuli. Konkret ilmiy usul konkret ob'yektining u yo bu xossa va xususiyatlarini aniqlash maqsadida uning ma'nosini bilishga jo'natiladi, u aniq amaliy yoki ilmiy muammoni yechishga yo'naltiriladi.

Ko'p darajada universal bo'lib texnika fanlarida ilmiy tadqiqot ishlarida qo'llaniladigan asosiy usulni qisqacha ko'ramiz.

*Tahlil* – quyidagilardan iborat ilmiy o'rganish uslubi: tadqiqot ob'yekti fikran tarkibiy qismlarga ajratiladi yoki unga xos belgilari va ularni alohida o'rganish uchun xususiyatlari. Tahlil ob'yektining ayrim elementlari mohiyatiga qirib borishni ta'minlaydi, ularda bosh bo'lganini va ahamiyatlilarini aniqlashda, ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarini topishni beradi.

*Sintez* – ob'yektni yoki bir guruh ob'yektlarni bir butundek ularning hamma tarkibiy qismlarining yoki ularga xos belgilarining o'zaro aloqali holatida ilmiy tadqiqot qiladigan usuldir. Sintez usuli ularning hamma tarkibiy qismining

tahlilidan keyin murakkab sistemani tadqiq qilish bilan xarakterlidir. Shunday qilib tahlil va sintez bog'liq va bir birini to'ldiradi.

*Induktiv usul* shundan iboratki, xususiyni, yolg'izni kuzatishdan umumiy xulosa qilinadi, ayrim faktorlardan – umumiyya. Induktiv usul tabiiy va amaliy fanlarda eng keng tarqalgan usul va uning negizida xususiyat va sababiy xossalaring ma'lum fakt va ob'yektidan noma'lumga, hali tadqiqlanmaganga o'tkazish.

*Deduktiv usul* induktivga teskari umumiy asosga ko'ra xususiy holatini chiqazish. Deduktiv usul ko'pincha aniq fanlarda qo'llaniladi, masalan, matematikada, nazariy mexanika, ularda xususiy aloqalari umumiy qonun yoki aksiomadan keltirib chiqaziladi. Induksiya va deduksiya o'zaro xuddi sintez va tahlildek bog'langan.

*Ilmiy abstraktsiya* qilish. Bu usul ko'rileyotgan hodisaning, ba'zan jiddiy bo'lмаган томонини xususiyдан узоqlashishda, ya'ni e'tiborni umumiyya jalb qilishda qo'llaniladi. Ilmiy abstraktsiya qilish muhimini, umumiyyini ajratib ob'yektv reallikni bilishni chuqurlashtiradi.

Nazariy ilmiy tadqiqot jarayonida tadqiqotchi fikran bo'laklanadigan (ajratib olingan) ayrim xossalari, xususiyatlari, aloqalari va o'zaro aloqalariga tayanib oxirida ilmiy abstraktsiya bo'lgan ilmiy tushuncha, qonuniyat va boshqa umumiy qonuniy holatlarini oladi. Ular har qaysi fanning fundamentidir, unda odatda fanning shu sohasi hamma bilim sistemasi konsenrlashadi.

*Formallah*, bunda hodisa, joriy matematik atamada formulalarda ifodalanadi, bunda maxsus simvolika qo'llaniladi, keyin ular bilan ma'lum qoida bo'yicha ishlar bajariladi. Formallashtirish matematik abstraktsiyalashning negizi hisoblanadi. U matematik apparatni undan uzoqlashgan fanda ham qo'llash imkoniyatini beradi, masalan, meditsinada, til bilishda, biologiyada va sh.k. Pedagogik fanlarda nazariy tadqiqot va umuman matematik usullar keng qo'llaniladi.

*O'xshashlik*. Yaxlitlikda alohida ob'yektning ba'zibir belgisi bo'yicha o'xshashligi. O'xshashlik usuli shundan iboratki, o'rganilayotgan ob'yektning ba'zibir belgilarining yoki xossalaring o'xshashligidan o'rganilmagannining boshqa belgi va xossalari o'xshashliklari haqida ham xulosa qiladi. O'xshashlik usuli modellash jarayonida foydalaniladi.

### **Nazorat savollari:**

- 1.Pedagogik tadqiqotning tuzilishi haqida nimalarni bilasiz?
- 2.Ilmiy tadqiqotning usullariga nimalar kiradi?

## 2-MODUL

### METODOLOGIK APPARAT VA TADQIQOT SIFATINI TA'MINLASH

---

#### 1-MAVZU: PEDAGOGIK MUAMMONI TANLASH VA PEDAGOGIK TADQIQOT MAVZULARINI SHAKLLANTIRISH.

REJA:

- 1.Pedagogik tadqiqotlar muammosi.
2. Tadqiqot muammosining dolzarbliji.
3. Pedagogik tadqiqotlarning dolzarbligini aniqlash

*Tayanch so'zlar: Muammoing qo'yilishi, dastlabki faraz, ishchi faraz, dolzarblik, aniqlik.*

##### **1.Pedagogik tadqiqotlar muammosi.**

Mavzuni tanlash va asoslash jarayoni ilmiy tadqiqot ishini dastlabki bosqichi hisoblanadi. Bunda asosan soha, yo'nalish va undagi mavzuni tanlash amalga oshiriladi. Mavzu tanlashda tadqiqotchining sohaga, yo'nalishga qiziqishi va bu boradagi ilmiy salohiyati e'tiborga olinadi. Bunda tadqiqotchining o'zi shug'ullanmoqchi bo'lgan sohaning yutuq va kamchiliklarini mustaqil o'rGANISH orqali mavzuni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Mavzu tanlanayotganda shug'ullanishi kerak bo'lgan sohaning yirik — istiqbolli mutaxassislari maslahatiga amal qilinsa yaxshi samaralar beradi.

Mavzuni asoslashda esa tanlangan mavzu bo'yicha qilingan ishlar atroflicha o'rGANILADI, tahlil qilinadi, soha bo'yicha yutuq va kamchiliklar tahlil qilinadi va muammoning qo'yilishiga zamin tayyorlanadi.

*Muammoning qo'yilishi* bevosita mavzuni dolzarbligini asoslashning davomi hisoblanadi va u soha bo'yicha yutuq, kamchiliklar tahlili natijasi asosida ifodalanadi. Bu tadqiq qilinishi kerak bo'lgan muammoni izlash bilan bog'liq bo'lib qolmasdan, ilmiy tadqiqotning vazifalarini (hal qilinadigan masalalarni) aniq va ravon ifodalanishini ham o'z ichiga oladi.

Muammoning qo‘yilishida ma’lumot yig‘ish va ularni qayta ishlashga katta e’tibor beriladi. Undagi nazariy usullar va texnik yechimlar, o‘xshash muammolarini yechimini topish vositalari, tadqiqotga yaqin sohadagi tadqiqotlar natijalari haqidagi ma’lumotlar va boshqa maxsus ma’lumotlar yig‘ish tadqiqot boshlangunga qadar emas, balki butun tadqiqot davomida amalga oshiriladi.

**Dastlabki faraz**, ya’ni ishchi faraz aniq ifodalangan tadqiqot muammosiga va yig‘ilgan dastlabki materialning tanqidiy tahlili natijasiga tayangan holda shakllantiriladi. U bir necha variantda ifodalanadi va ularning ichidan muammo qo‘yilishiga mosi tanlab olinadi. Ishchi farazni ifodalashning turli usullari bor. Ular, asosan tadqiqot muammosini aniqlashda va mavzu dolzarbligini asoslashda nazariy ma’lumotlarga asoslanadi va tadqiqot manbasini churqurroq o‘rganish imkonini beradi. Ishchi farazni shakllantirishda anketa so‘rovlari, suhbatlari, mutaxassis-olimlar bilan maslahatlar va ayrim hollarda dastlabki tajriba-sinov ishlari ham o‘tkaziladi

**Dolzarblik** Yangilik, jamiyat hayoti bilan bog‘liqlik, yetilgan ziddiyat, aniqlik Tipik kamchiliklari: mavzuning asossiz kengligi, global tusdagi mavzu ifodalanishida mavhumlik. Masalan, agar «Davlat boshqaruvi» mavzusi tanlanadigan bo‘lsa, unda bunday mavzu ilmiy ish uchun yaramaydi, haddan ortiq mavhum bo‘ladi. Birmuncha torroq mavzuni tanlagan ma’qulroq.

**Muammolilik** «Maktabgacha ta’lim –pedagogik fan sifatida » mavzusi o‘quv ishi (referat, kurs yoki diplom ishi) uchun bo‘lishi mumkin, lekin uning nomida muammo yo‘q. Hatto o‘quv maqsadlari uchun ham qandaydir aniq bir jihatni olgan yaxshi: « *Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni o’yin vositasida mактабга таъвишлар* ». Bunda muammo yaqqol ko‘rinib turibdi: Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni maktabga qanday tayyorlashimiz ko‘rinib turibdi. Ilmiy ish uchun undan ham aniqroq mavzuni tanlagan ma’qul: « *Maktabgacha yoshidagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik tizimi* ». Aniqlangan mavzuga muvofiq ravishda aniq-ravshan ifodalangan maqsad shakllantiriladi.

**Tushunchalarning aniqligi** Masalan, «rivojlanish masalalari», «tarbiyaning pasayishi», «muammo falsafasi», «muammoning izoxlanishi» kabi va boshqa ikki xil ma’noli va noaniq ifodalarni ishlatmaslik kerak.

**Lo‘ndalik** « *O’zbekistonda maktabgacha yoshidagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik mexanizmini takomillashtirish.* » Bunday nom to‘g‘ri va ishlatish mumkin, lekin juda uzun. Uni qisqaroq ifodalagan ma’qul: « *Maktabgacha yoshidagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik tizimi* ». Birinchi nom ancha aniqroq, lekin idrok etish qiyinroq. Darvoqe, qisqa nomning ham o‘z kamchiliklari bo‘ladi, shuning uchun muallif

aniqlik yoki qisqalikni tanlashi kerak bo‘ladi, yaxshisi esa har ikkalasini ham o‘z joyida qo‘llagan yaxshi.

**Nazorat uchun savollar:**

- 1.Pedagogik tadqiqotlar muammosi nimalardan iborat?
2. Muammoning qo‘yilishida nimalarni hisobga olish kerak?
- 3.Dolzarblik, anqlik tushunchalarini izohlab bering?

## **2.2. MAVZU. PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING OBYEKTI VA PREDMETI.**

**Reja:**

- 1.Tadqiqot obyekti haqida tushuncha
2. Tadqiqot ob’yekti va predmetining muhim belgilari.

**Tayanch so’zlar:** tadqiqot ob’yekti, tadqiqot bosqichlari, ob’yekt, matematik model, fizikaviy model.

### **1.Tadqiqot obyekti haqida tushuncha**

Ilmiy tadqiqot ishlarining dastlabki bosqichi o‘zidan oldingi erishilgan (fan, ta’lim, texnika va texnologiya sohalari) yutuq va kamchiliklarni o‘rganish, tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqarish hamda yondosh sohalar ma’lumotlarini ham o’rganishdan boshlanadi. Ayniqsa, pedagogik tadqiqotlarda bularga qo‘sishimcha ravishda muammo yechimini izlashga zamonaviy texnika va pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini baholashni ham talab qiladi. Bu borada tadqiqotchi yuqoridaqgi bosqichni o‘tamasa, ishlangan muammolarni ishlashga to‘g‘ri kelib qolishi mumkin va ayrim hollarda mavjud ishlanmalarga nisbatan soddarroq (pastroq darajadagi) ishlanmalarga urinish hollari ham uchrab qolishi mumkin. Shu sababli ham bu dastlabki bosqich ilmiy tadqiqot ishlarning asosiy bosqichlaridan biri bo‘lib, uning samarali bo‘lishi tadqiqotchining ilmiy salohiyatining yuksakligiga va ustozining (ilmiy rahbarining) keng qamrovli bilimga ega bo‘lishiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi.

Demak, bu jarayon ham o‘ziga xos murakkabliklarga ega, chunki bu bosqich orqali ilmiy tadqiqot ishiga «poydevor» qo‘yilishi boshlanadi. Ya’ni muayyan soha bo‘yicha e’lon qilingan juda katta hajmdagi ma’lumotlarni to‘plash, ularni sinflab biror tizimga keltirish va ularni axborotga aylantirish lozim bo‘ladi.

Ilmiy tadqiqot ishini olib borishda mazkur muammo, asosan ikki bosqichda olib boriladi. Quyida biz ular to‘g‘risida qisqacha to‘xtalamiz.

**Birinchi** bosqich - tadqiqot manbai va unga tegishli ma'lumotlarni izlash. Ushbu bosqichdagi ilmiy tadqiqot ishida manbani o'rganish adabiyotlarni (monografiya, maqola, tezis, referat va h.k.) izlashdan boshlanadi. Bunda, ayniqsa, monografiyalar va ilmiy anjumanlar materiallarining o'rni beqiyos.

Ma'lumki, monografiya to'liq bibliografik ko'rsatkichga ega bo'ladi va ayni bir muammo yechimiga bag'ishlangan bo'ladi, shuningdek, ilmiy anjumanlardagi ma'lumotlar ham muayyan muammoga (yo'nalishga) tegishli eng zamonaviy natijalar bo'ladi. Shu sababli ham bular orqali tadqiqot qilinadigan muammoga zamonaviy istiqbolli yondashuvlarni (zamonaviy tadqiqot usuli bilan tanishish) bilish va asosiy adabiyotlar bilan tanishish imkoniyati tug'iladi. Umuman olganda, ushbu bosqichni quyidagi ketma-ketlikda olib borilsa ijobjiy samaralarni qo'lga kiritish mumkin:

- bibliografik ko'rsatkichlar bo'yicha ish yuritish. Ularda muayyan muammoga tegishli ilmiy, ilmiy-uslubiy jihatdan tayyorlanib, keng tarqalishiga erishilgan kitoblar, o'quv qo'llanmalari, uslubiy tavsiyanomalar va ko'rsatmalar, broshyuralar, davriy ilmiy va ilmiy-uslubiy jurnallardagi maqolalar, ilmiy anjumanlar materiallar (maqolalar, tezislar), dissertatsiyalar, avtoreferatlar va shu kabilarga e'tibor beriladi;

- fan va texnikaning muayyan muammoga tegishli referativ jurnallarini va informatsion varaqalarni hamda boshqa ommaviy axborot vositalaridagi ma'lumotlarni o'rganish;

- muayyan muammoga tegishli jurnallardagi ma'lumotlarni muntazam ravishda o'rganib va kuzatib borish;

- institutlar ilmiy ishlari bo'yicha maqolalar to'plamlarini va an'anaviy ilmiy-amaliy anjumanlari materiallarini muntazam ravishda o'rganib borish;

- «INTERNET» xalqaro tarmog'idan muayyan muammo yechimiga bag'ishlangan axborotlarni to'plash va o'rganish.

- Ma'lumot manbalarini izlash (kutubxona, ilmiy anjumanlarga qatnashish, «INTERNET» tarmog'ida shug'ullanish, respublika va mintaqaviy ilmiy markazlar faoliyatidan o'rganish, ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalanish, tadqiqot manbaidagi suhbatlar uyshtirish, anketa savollariga javoblar olish va h.k.) tadqiqotchining ilmiy tadqiqot ishiga qanday jalb qilinganlik harakatiga bog'liq va u ilmiy faoliyatning uzviy bosqichi bo'lib, salmoqli o'rniga ega bo'ladi.

**Ikkinci** bosqich - yig'iladigan ma'lumotlarni axborotlarga almashtirish , ularni o'rganish bosqichi. Bunda olinadigan axborot (ishning muallifi, nomi, sarlavhasi, chiqqan vaqt, nashri, yili , turi va h.k.) muayyan muammo yechimiga mos aniq tizimga bo'lmog'i lozim. Zamonaviy adabiyotlarda (kitoblarda) annotatsiya shartli holda bo'ladi. Agarda tanishilayotgan materiallarning kerakligi aniq bo'lib qolsa, uni yana yaxshilab o'qib,tahlil qilib chiqish kerak. Tahlil paytida

quyidagi ketma-ketlikka rioya qilinsa, yaxshi bo‘ladi: (Mavzu: o‘rganilayotgan muammo), (asosiy mazmuni-maqsadi-mohiyati-muammo yechimi va unga bog‘liq ko‘rsatgichlar yechimlar topishda ishlatiladigan mezonlar, farmonlar, qonunlar) - (qo‘yilgan muammoning izlanayotgan yechimiga mos ishlanmalar mavjudligi) - (tahlil natijasi orqali qaralayotgan muammo yechimiga etishga bo‘lgan ta’sir bahosi).

**Ob’ekt:** Bu har qanday ilmiy tadqiqotda asosiy bosqich bo‘lib, bunda ob’ektni tanlash va asoslash ko‘zda tutiladi. Ob’ektni tanlashda quyidagi ikki holatni hisobga olish kerak:

- tadqiqot ob’ektlarining tadqiqot olib borish uchun o‘rganilishi zarurligi va muhimligi;
- ob’ektni o‘rganish zarurligi ko‘proq fundamental (ilmiy-nazariy) tadqiqotlarga xos va ob’ektning o‘rganilishi muhimligi esa ilmiy-amaliy (ilmiy-uslubiy, ilmiy-metodik va shu kabi) tadqiqotlarga xos bo‘ladi.

Fundamental tadqiqotlar jamiyat uchun (umuminsoniyat uchun) istiqbolli yo‘nalishdagi (sohadagi) keng qamrovli tadqiqot olib borishga mo‘ljallangan bo‘lib, u ilm-fanning asosiy vazifasini va xalqning turmush darajasini yuqori saviyaga yetkazishni ta’minlovchi amaliy tadqiqotlar asosidir.

Ilmiy-amaliy tadqiqotlar ko‘proq xalq xo‘jaligining muhim sohasidagi vazifalarning yangi pog‘onalarga ko‘taradi. Jumladan, ta’lim-tarbiya jarayonining mazmun-mohiyatini, o‘qitish uslubini va texnologiyasini yangi istiqbolli pog‘onaga ko‘taradi yoki ishlab chiqariladigan mahsulotning ishlab chiqarish qiymatini pasaytiradi, mustahkamligi (yaroqliligi)ni kuchaytiradi, shuningdek, foydalanishga qulayligini ta’minlaydi yoki biror texnologik jarayon kechishining optimal varianti tanlanadi yoki biror texnika ishlab chiqariladi, yoki ishlab chiqilgan texnika takomillashtiriladi va vaqtning chegaralanganligi: har qanday tadqiqotni olib borishda, unda muammo qo‘yilishi va vazifalarni e’tiborga olgan holda ma’lum bir chegaralangan muddat bo‘lishi shart, aks holda ish rejasiz bo‘lib, vaqtlar o‘tishi bilan tadqiqot dolzarbligi o‘z ahamiyatini yo‘qotishi mumkin. Ayniqsa, ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarida, ob’ektni tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi va hattoki tajriba-sinov ishlarini olib borishda vaqtning optimal chegarasini tanlash tadqiqot samaradorligini ta’minalash mezoni ham bo‘lib olishi mumkin. Aytaylik pedagogik tajriba sinov ishlari (TSI)ni iyul va avgust oylariga rejallashtirildi. Bu maqsadga muvofiqmi? Yoki g‘alla ekishda olib boriladigan TSIni saratonga belgiladik. Bu to‘g‘ri yo‘lmi? Demak, ob’ekt va u bilan olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishi mazmun-mohiyati o‘zaro aloqadorlikda olib borilishi lozim, biri ikkinchisisiz faoliyat yuritsa, samarasiz, vaqt me’yorisiz ilmiy faoliyat yuzaga kelib, ularda ilmiy yangilik bo‘lishining o‘zi ham alohida muammoga aylanadi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, tadqiqot ob'ektini faqat «predmet»: asbob- uskuna, moslama, mexanizm, mashina va shu kabilar ko'rinishida tushunish kerak emas, balki u algoritm, usul, metodologiya, texnologiya, tamoyillar, qonunlar, qoidalar ishlab chiqarish jarayoni ham bo'lishi mumkin. Faqatgina ayrim tadqiqotlarda tadqiqot ob'ekti bilan predmeti ustma-ust tushishi mumkin. Ular ayrim yangi modda, qurilma, asbob va h.k.ni hosil qilishda uchrashi mumkin.

### **Ilmiy tadqiqot ob'ekti va uning modelini tanlash**

Tadqiqot ob'ektini tanlash bevosita muammoning qo'yilishi (maqsadi) bilan uzviy bog'liq. Ilmiy tadqiqotlarning uzlusizligi va vaqt bo'yicha chegaralanganligi uchun, tadqiqot ob'ekti ko'pchilik hollarda, tadqiqotchiga fanning ushbu tarmog'ini rivojlanishining o'tmishi bo'yicha beriladi. Tadqiqotning aniq bir muddatda va mos chegaralarida bajarilishi zarurligi hech kimga sir emas, chunki tadqiqot ob'ekti muammo qo'yilishiga qarab vaqt nuqtai nazardan ham, ko'rsatkichlar fazosi nuqtai nazardan chegaralanadi, ya'ni ko'rsatkichlarning aniqlanish va o'zgarish sohalari belgilab olinadi.

Modelni tanlash ham tadqiqot ob'ektiga mos holda olib boriladi. Bunda og'zaki, ya'ni so'zlar (fikrlar) orqali ifodalangan **modellarga** asoslangan fanlar mavjud bo'lsada, tadqiqot ob'ektini, tabiiy tillarning so'zları orqali ifodalovchi bu model turli ilmiy-texnik tadqiqotlarda faqat boshlang'ich bosqichlarida yordamchi vosita sifatida foydalilanadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda esa bu model turining ahamiyati ancha yuqoriroq bo'ladi, chunki bularda soniy ma'lumotlardan tashqariy sifatiy ma'lumotlar o'rni ko'proq ahamiyat kasb etadi. Shunga o'xshash chegarali shartlar grafik modellash jarayoniga ham tegishli. Bular ayniqsa, ma'lum ko'rinishdagi va o'lchamdagisi rasmlar, sxemalar, shakllar, grafiklar va ularning turli masshtablardagi ko'rinishlarini tayyorlashda yaqqol seziladi. Ammo, ba'zi bir tadqiqot sohalarida analitik modellarga yaqinlashtirilgan grafik modellarni yaratish mumkin. Masalan, geometriya fandagi turli qonuniy egri chiziqpar va sirtlar yoki muntazam ko'pyoqpar yoki graflar nazariyasi va h.k.

**Matematik model.** Buning ta'rifi mazkur qo'llanmaning 6.1-qismida beriladi. Bu turdag'i model ilmiy-texnik tadqiqotlar yechimlarini topishda muhim rol o'ynaydi.

**Fizikaviy model**-ushbu ko'rinishdagi modellar ashyoviy ko'rinishda bo'ladi va ular ma'lum qonuniyat (mezon, qoida va shu kabilar) asosidagi vositalar majmuasidan iborat bo'ladi, ya'ni u ma'lum darajada (muammo maqsadi va yechimini qanoatlantiradigan darajada)gi qurilma yoki qurilmalar majmuasidan iborat bo'ladi. Ular asosan quyidagi holatlarda bo'ladi: ob'ekt bilan tabiatan bir bo'lgan kichraytirilgan (k o'lchamli) yoki ixchamlashtirilgan masshtabdagi model;

- boshqa tabiatga ega bo‘lgan model (dastgohning laboratoriya maketi, o‘lchov
- zanjirli mexanik qurilma bilan almashtirish maketi;
- mashina yoki mexanizmning harakatdaga kichik o‘lchamli (laboratoriya uchun) maketi;
- jarayon va hodisalar faoliyati kechishini ifodalovchi kompyuterli maketlar va shu kabilar.

Deyarli har qanday matematik (analitik) yoki fizikaviy modelni kompyuterlar yordamida raqamlı shaklda (dasturlar asosida) amalga oshirish mumkin. Bunda matematik model yoki kompyuterda modellashtirish hosil bo‘ladi.

### ***Nazorat uchun savollar:***

- 1.Ilmiy tadqiqot ob’ekti va uning modelini tanlash qanday amalga oshiriladi?
- 2.Tadqiqot ob’yekti va predmetining muhim belgilari nimalarda iborat?

## **2.3-MAVZU. PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING MAQSADI VA VAZIFALARI**

1. Tadqiqotning maqsadi-ilmiy izlanishning natijasi.
2. “Tadqiqot vazifalari” tushunchasi mazmuni

***Tayanch so’zlar: tadqiqot maqsadi, tadqiqot vazifalari, analiz, sintez, model.***

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi tadqiqot o’zagini tashkil qiluvchi va yangilik, originallikning muhim belgilariiga ega masalalar doirasiga chiqib olishni ta’minlaydi.

***Tadqiqot maqsadi*** - bu tadqiqotchi o‘z ishini yakunlashda erishishni xohlagan pirovard natijadir.Muammo yechimi magistrant ishining maqsadi sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqsad tadqiqotning xarakteri, borishi va vazifalarini belgilovchi o’ziga xos oxirgi sababdir.Shu asosda ish tuzilishining aniq maqsadga bo‘ysundirilishi kerak bo‘lgan mantiqiyligi kelib chiqadi.

***Tadqiqot maqsadini ifodalashdagi «ishlatiladigan»***

***iboralar va so‘z birikmalari:*** «aniqlash...», «belgilash...», «asoslash... », «anqlashtirish... », «ishlab chiqarish...».

***Misollar.***

***Tadqiqot maqsadi*** Maktabgacha yoshidagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik tizimini nazariy-metodologik yondashuvlarning asoslanishidan iborat.

**Tadqiqot maqsadi** Maktabgacha yoshidagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik tiziminining ilmiy-uslubiy va amaliy tavsiyalarning ishlab chiqilishidan iborat.

**Tadqiqot maqsadi** Maktabgacha yoshidagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik tizimini imkoniyatlarini belgilashdan iborat.

**Tadqiqot maqsadi** Maktabgacha yoshidagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik tizimi takomillashtirishdan iborat

## 2. «*Tadqiqot vazifalari*» tushunchasi mazmuni

**Tadqiqot vazifalari** bu ilgari surilgan farazga muvofiq maqsadga erishish uchun yo’llar va vositalarning tanlanishidir.

Vazifalarni maqsadga erishish uchun qilinishi zarur bo’lgan narsaning tasdiqlanishi shaklida ifodalash eng ma’qul variantidir.

**Vazifalarning qo’yilishi** tadqiqot maqsadining kichik maqsadlarga bo’linishiga asoslanadi. Vazifalarning sanab o’tilishi unchalik murakkab bo’lmagan vazifalardan eng murakkab, ko’proq mehnat talab qiladigan vazifalarga tomon yurish tamoyili bo’yicha ko’riladi, ularning soni esa tadqiqotning teranligi bilan belgilanadi. Vazifalarni juda sinchiklab ifodalash zarur, chunki keyinchalik ular yechimlarining bayoni boblar mazmunini tashkil etadi. Boblar sarlavhalari ayni shu vazifalar ifodalaridan hosil bo’ladi.

### *Ilmiy tadqiqotning tipik vazifalari*

tadqiq qilinayotgan hodisani *bayon qilish*

sabablar va shartlarni *aniqlash*

sabablarni *izohlash*

tadqiq qilinayotgan hodisalarining tasnifini *qurish*

qonuniyatni *aniqlash va asoslash* mazmunni *tushunish* va *izohlashaniqlangan*, bayon qilingan va izohlangan hodisa uchun *nomberish*

**Anik ilmiy pedagogik vazifani hal etishga ehtiyojning aniqlanishi.** Mayjud vaziyatdagi holatni qanday o’zgartirishni bilmagan, bunga hech kim yordam bera olmaydigan holda uni o’zgartirish yuzasidan kuchli xohish-istik paydo bo’lishida ifodalanadi (ma’lum texnologiyalar xohlagan samaraga erishishga imkon bermaydigan holda texnik yoki ma’muriy ziddiyat darajasida-empirik fakt yoki ta’sir ko’rsatish natijasini bashorat qilishni izohlash zarur bo’lganida **ehtiyoj paydo bo’ladi**).

### **Ilmiy tadqiqotni o’tkazishga ehtiyojning belgilanishi.**

Agar ilmiy tadqiqot ma’lum va hamma tomonidan qilinishi mumkin bo’lsa, unda bunday tadqiqotni o’tkazish talab etilmaydi.

Markaziy ilmiy, ko'pincha ilmiy-ommaviy nashrlar bo'yicha bat afsil tahlil o'tkazilganidan keyin va shunga o'xshash yechimlar topilmaganida tadqiqotchi original yechimni topish uchun to'liq ilmiy tadqiqotni o'tkazish bo'yicha reja tuzishi kerak bo'ladi.

### ***Ilmiy tadqiqot maqsadlarining belgilanishi va joy-joyiga qo'yilishi***

Maqsad — ehtiyoj mahsuli. Aniq ifodalangan ehtiyoj ko'pincha maqsadni belgilaydi. Ilmiy tadqiqotni o'tkazishda asosiy maqsad shu asosiy maqsaddan kelib chiqadigan, jami bo'lib ilmiy-texnik ishga singib ketadigan kichik maqsadlarga bo'linib ketadi. Ularni o'z o'rinalariga to'g'ri joylashtirish zarur, shunda maqsadlarning joy-joyiga tushishi va ilmiy izlanishdagi muayyan izchilllik hosil bo'ladi.

### **Dissertatsiyaning predmetli sohasining bir tizimga solinishi.**

**Bir tizimlilik** — ilmiylikning muhim belgilaridan biri. Bilimning ilmiy tizimga solinishi to'liqlikka intilish, bir tizimga solishlikning asoslari va ularning ziddiyatli emasligi haqidagi aniq tasavvur bilan tavsiflanadi. Bir tizimlilik tadqiqot predmeti va ob'ektini tasniflash mahorati orqali amalga oshiriladi. Tasniflash tadqiqotni nafaqat bir tizimli qiladi, shu bilan birga ishlab chiqayotgan ilmiy nuqtani aniq belgilaydi.

**Tasniflashga talablar** - predmetli sohani 3 - 6 ta muhim belgilarga qarab bo'lish, ravshanlik va ko'rgazmalilik, bir tizimga solinayotgan predmetli sohaning imkonи boricha to'laroq qamrab olinishidir.

*Tadqiqot maqsadlari va tipi, yangilik elementlari asosidagi vazifalar doirasi:*

- Ma'lum g'oyalarning chuqurlashtirilishi, ularning foydasiga mantiqiy va amaliy tusdagi qo'shimcha dalillarning keltirilishi, yangi hayotiy faktlar yoki raqiblarning dalillari munosabati bilan ularning himoya qilinishi;
- masalaning rivojlangan nazariyasining yaratilishi, unga ma'lum g'oyalalar asosida amaliy tusdagi faktlarning qo'shilishi;
- yangi g'oyalarning ilgari surilishi, yangi takliflarning ishlab chiqilishi, yangi xulosalarning olinishi, yangi shakllar va qonuniyatlarning ochilishi, eski xulosalar va qoidalarning qayta ko'rib chiqilishi, shakllar, kategoriylar, qonunlarning yangicha talqin qilinishi;
- yangi nazariyalar, konsepsiyalarning ifodalanishi.

Adabiyotlarga murojaat etish, ularning tanlanishi, ular ustidagi ishning mantiqiyligi va izchilligi muammoning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi, sizning sa'y-harakatlarining aniqligi va samaradorligi esa muammoning qo'yilishining aniqligi va mantiqan to'g'rilingiga bogliq bo'ladi

## *Muammoni hal etish vazifalarining qo'yilishi*

Ishda, odatda, tadqiqot umumiy muammosining turli jihatlari bilan bog'liq bir necha vazifalar ifodalanadi:

- Tadqiqot predmetining nazariy qoidalarini rivojlantirish;
- Sinovlarning o'tkazilishi;
- Sinovli tekshirishlarning yangi uslublarini ishlab chiqish;
- Yangi bilimlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar belgilanishi

## *Muammoni hal etish jarayonidagi vazifalar:*

-Nazariy tushunchalarning ushbu tadqiqotda qo'llaniladigan jihatlarini aniqlash;

- Amaliy muammolarning nazariy bilim darajasidagi tahlilini o'tkazish va bu bilan uning natijalari, xulosalari va tavsiyalarining ilmiy asoslanishini ta'minlash;

- O'r ganilayotgan hodisalarning miqdoriy, statistik ko'rsatkichlar yordamidagi o'lchanishi va ro'yxatdan o'tkazilishini ta'minlash;

Qo'yilgan muammo dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot maqsadining ifodasida aks ettirilishi kerak. O'z navbatida, maqsad tadqiqot taktikasini — aniq qadamlarning izchilligini - muammoni hal etishga asos bo'ladigan tadqiqotchilik vazifalarini belgilaydi.

## *Misollar:*

### **Tadqiqotning asosiy vazifalari** quyidagilardan iborat:

- Maktebgacha yoshdagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda bugungi kundagi xolatini o'r ganish;

- Maktebgacha yoshdagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va rivojlantirishning institutsional negizlarini takomillashtirish;

- Maktebgacha yoshdagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash borasidagi xorijiy tajribani qiyosiy tahlil qilish;

- bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tajribasini umumlashtirish;

- bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash -muhit va asosiy muammolarni tahlil etish;

- bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning natijalarini baholash;

- monitoringni tashkil etish va konsalting loyihalari samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqot vazifalari.** Qo'yilgan maqsadga muvofiq ishda quyidagi vazifalar belgilangan:

- Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash ijtimoiy-pedagogik zaruriyat ekanligini nazariy-empirik jihatdan asoslash;

Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash borasidagi xalqaro tajribani tahlil qilish;

Maktabgacha yoshdagi bolalarni faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning o’ziga xos xususiyatlari va pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tavsiflash;

Bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash modelini ishlab chiqish;

Integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga yo’naltirilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish;

Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasini takomillashtirish;

Dissertatsiya mazmunini tashkil etuvchi muammo yechimining varianti avval-boshda tadqiqotning asosiy farazi sifatida kristallashtiriladi (sxemaga qarang). Bu dissertatsiya matnida tekshirilishi va dalillar bilan asoslanishi kerak bo’ladigan sinovli yechimdir. Pirovard natijada adabiyotlar bilan ishslash ana shu vazifaga xizmat qiladi.

**Maqsad-vazifa:** Bunda tadqiqot yo‘nalishi (sohasi), mavzu tanlanib, uning dolzarbliji asoslanadi va maqsad ifodalanadi. Ma’lumki, har qanday ilmiy tadqiqot ishida maqsad aniq bo‘lmas ekan, ishning oxirgi natijaga etib borishi kafolatlanmaydi yoki tizimli ilmiy tadqiqot ishi ham bo‘la olmaydi. Ilmiy tadqiqot ishi tizimli bo‘lmadimi, unday ishda samara ham ko‘rinmaydi.

Demak, **maqsad** — tadqiqotchi ilmiy faoliyatda etib borishi kerak bo‘lgan «ufq»ni belgilaydi. Bu «ufq»qa etib borish uchun esa maqsadlar ketma-ketligini belgilab olish kerak va ular **vazifalar** deb ataladi.

Tadqiqot vazifalarining, hattoki, tanlab olingan tadqiqot ob’ektida ajratib olinadigan soni, amaliy jihatdan cheksizdir. Bu cheksizlik maqsadlari ketma-ketligini ifodalanishiga qarab o‘zgarib boraveradi. Demak, har qanday ilmiy tadqiqotda mavzu dolzarbliji, ob’ekt, maqsad, vazifa, metodologiya aniq bo‘lsa, ilmiy tadqiqot ishini olib borish mumkin.

Bu umummetodologik metod ham bo‘lib, har qanday ilmiy tadqiqot ishi ushbu qonuniyat asosida amalga oshirilidi. Shuning bilan birga ushbu tipdagि tadqiqot ishlarini olib borishda quyidagi bosqichlar muhim ahamiyat kasb etadi:

**1.Tahlil (analiz):** Bu bosqichda ilmiy tadqiqot jarayoni uchun kirish ma’lumotlar (axborotlar, ayrim hollarda ko‘rsatkichlar) va ularni qayta ishlovchi ilmiy tadqiqot ishini olib borish faoliyati (qonun, qoida, usul, texnologiya va h.k.) qoidalari R (ob’ekt qurilmasi) berilgan bo‘ladi. Bundan maqsad chiqish natijalarini

aniqlashdir. Ko‘pchilik tadqiqot ob’ektlarida tahlil bosqichini bajarish dastlabki ishlardan biri hisoblanadi.

**2. Sintez:** Ushbu bosqichda qonuniyat (E) va ob’ektning tuzilishini aniqlash ishlarini hal etadi.

**3. Korreksiya (tuzatishlar kiritish):** Bu bosqichda asosan kirish ma’lumotlari  $x$ , va ularni qayta ishlash G‘ qonuniyati orqali chiqish natijalarini U, ni olish jarayoni faoliyat ko‘rsatadi.

**4. Barqarorlik:** Yuqoridagi bosqichlarni amalga oshirish davomida nazorat qilinmaydigan tashqi omillar (ko‘rsatkichlar, parametrlar, masalan, harorat, namlik va h.k.) o‘zgarmas hisoblanadi va ular boshqarilmaydigan omillar deb hisoblanadi. Ammo ularning amaliyotdagi o‘zgarishi ilmiy tadqiqot ishiga ta’sir ko‘rsatadi, chunki tadqiqot jarayonidagi shart-sharoitlar mazkur ishning samarali kechishida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli ham barqarorlik, aniq (real) shart-sharoitlarda ilmiy tadqiqotlarni bajarish tizimining ishga yaroqliliginini ta’minlaydi.

**5. Model:** U tabiat va jamiyatdagi ob’ektlarda bevosita nazariy va amaliy tadqiqotlarni olib borishda ilmiy tadqiqot ishining asosini tashkil etib, juda murakkab tadqiqot bosqichi hisoblanadi. Shuning uchun ham ilm-fan faqatgina ob’ektlar bilangina emas, balki ularning modellari bilan tadqiqot o‘tkazadi. Bunda olingan natijalar ob’ektlarda tekshirib ko‘riladi, ya’ni bilimni tushunishlik bu - o‘zlashtirish va boshqa ko‘rsatkichlarni sintez qiluvchi yakuniy natijalarni ifodalovchi bir muncha umumlashgan sifatdir.

U bilimning chuqurligisi, mukammalligi va tizimlanganligiga qarab bir bilimning o‘zi turlicha tushunilishi, ifodalanishi va undan foydalaniishi mumkin:

**1. Bilimning mukammalligi** - buni aniqlash uchun tushunchaning barcha belgilari va ularning bir-biri bilan aloqasini ajratish kerak.

**2. Bilimning chuqurligi** — buning uchun u yoki bu tushunchalar va ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarini hamda ulardagi muhim belgilar sonini aniqlash lozim.

**3.Bilimning operativligi** (tezkorligi) - bu o‘rganilgan bilimlar o‘zgarishi mumkin bo‘lgan ko‘p variantli vaziyatlarni taqdim etish va ulardagi qarorlar qabul qilishni o‘z vaqtida bajarishligi bilan aniqlanadi.

**4.Bilimning ixchamliligi** — buni tekshirish topshiriqni hal qilishda bir necha usullarni uyushtirish yoki o‘xhash masalalarni hal qilishda bir shaklda bo‘lmagan yondashuvlar ichidan masalaga qulay va mosini tanlash orqali amalga oshiriladi.

**5.Bilimning aniqligi va umumiyligi** — umumlashtirilgan bilimning aniq namoyon bo‘lishini ochib berish mahorati, aniq bilimlarni umumlashtirish

ostida yakunlash, xususiylikdan umumiylikka (induksiya) o‘tkazish qobiliyatini aniqlash bilan tekshiriladi.

**6.Bilimning tizimiyligi** — buni topshiriqlarni tushunchaning ierarxiyasini aniqlashdagi ularning izchilligi, o‘zaro bog‘liqligi tizimi bilan tekshiriladi.

Endi bular asosida bilimni tekshirish va nazorat qilish masalasi bayoniga o‘tadigan bo‘lsak, uning ko‘p qirraligi va ko‘p variantliligiga e’tibor berish kerak. Ularning ko‘pchiligi bilimni, bu muammoning umumiy va xususiy masalalarini baholash va nazorat qilishni, ularni tashkil etishning funksiyalari, metodlari va tamoyillariga tegishlidir.

Nazorat qilishni tashkil etuvchi funksiya, uning butun o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishga ta’sir qilishida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchilarining talabalar bilimini o‘zlashtirishdagi qiziqishi, faolligi, ijodiy mustaqilligini oshirishga, ularni amaliy faoliyatga tadbiq etish, mahorat va ko‘nikmalarni shakllantirishda yordam beruvchi o‘qish - o‘qitishning mazmuni, shakllari, usul va vositalarini ishlab chiqish va foydalanishga yo‘naltirilgan bir maqsadga qaratilgan faoliyati tushuniladigan faollik, pedagogik jarayonning tashkil etuvchi markaziy jihatni hisoblanadi.

Maqsadli tashkil etilgan pedagogik nazorat katta tarbiyaviy natija beradi. Sohadagi ilmiy izlanishlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘qitish natijalarini tekshirish bilimni takomillashtirishga katta yordam beradi, ularni aniqlashtiradi va muayyan tizim bo‘yicha shakllantiradi, xotira hamda fikrning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ishoritning ta’lim, o‘qish-o‘qitish va tarbiya bilan aloqasi tamoyili, nazoratning oliy o‘quv yurti umumpedagogik nazoratining ajralmas qismi sifatida zarurligini tasdiqlaydi. Bunda nazorat rolini me’yorida saqlash muhim ahamiyatga ega, chunki ta’lim-tarbiya ishining muvaffaqiyati umumpedagogik jarayonda nazoratning qo‘yilish darajasi bilan aniqlanadi. Bu borada pedagogik nazoratning xolislik tamoyiliga turli yo‘llar bilan erishiladi. Bundagi birinchi yo‘l - jamoaviy baholashni shakllantirish. Bunda olingan baholar bir qancha sub’ektiv fikrlar doim ham ob’ektiv bo‘lavemasada, ko‘pincha uni xolis deb qabul qiladilar.

### **1.Mustahkamlashni ta’minalashga oid savollar:**

- Nazorat qilish deganda nimani tushunasiz?
- Pedagogik diagnostika termini fanga kim tomonidan va qachon kiritilgan?
- Bilimlarga qo‘yilgan talablarni sanab bering.
- Nazorat turlari va ularning mazmun-mohiyati nimalardan iborat?
- Reyting so‘zining lug‘aviy ma’nosini ayting.

### **2.Mavzu bo‘yicha mustahkam esda saqlab qolishga oid ma’lumotlar:**

- Fanga pedagogik diagnostika tushunchasi 1968 yilda K.Ingenkamp tomonidan kiritilgan;
- Bilimlarga qo‘yilgan talablar quyidagilardan iborat: bilimning tushunarligi; bilimni tushunishlik; bilimning mukammalligi; bilimning chuqurligi; bilimning operativligi (tezkorligi); bilimning ixchamligi; bilimning aniqligi va umumiyligi; bilimning tizimiyligi;
- So‘nggi nazorat. Bu yakuniy nazoratlar natijalari to‘g‘risida qarorni jamoaviy bo‘lib qabul qilish kerak bo‘lgan komissiya tarkibida an’anaviy tarzda o‘tkaziladi. Talabalarga nafaqa belgilash va ularni kursdan - kursga o‘tkazish hamda yakuniy davlat attestatsiyasi so‘nggi nazoratga tegishli.

### **3.Mavzu bo‘yicha muammoli savollar va topshiriqlar:**

- Talabalar bilimini o‘lchash va baholash zamonaviy o‘qish - o‘qitish nazariyasida qanday ahamiyatga ega?
- Bayon qilinadigan ma’lumot bilan o‘zlashtiriladigan ma’lumot orasidagi funksional bog‘lanish haqida yozma ma’lumot tayyorlang. Ularni muayyan misollar asosida tahliliy xulosasini (hosil bo‘lgan qonuniyatni) e’tiboridan chetda qoldirmang;
- Ijodiy faoliyatda bilimga qo‘yilgan talablarga e’tibor berish shartmi? Agar shart bo‘lsa nima uchun?

## **2.4-MAVZU. ILMIY TADQIQOTNING FARAZI.**

### **Reja:**

1. Ilmiy farazni belgilashning maqsadi va vazifalari.
2. Farazning tabaqalashtiruvchi belgilari

**Tayanch so’zlar:** faraz, tadqiqot farazi, farazlarning turlari, xulosa sifatidagi faraz, ishchi faraz.

### **Farazning ilgari surilishi va ifodalaniishi**

Siz bu bobda «faraz» tushunchasining nima ekanligi, farazlarning qanday turlari mavjudligi, ularning ahamiyati va roli nimadan iboratligini bilib olasiz, farazlarni ilgari surish, tekshirish va ifodalash qoidalari bilan tanishasiz.

### **«Faraz» tushunchasi mazmuni**

Biz muammoga duch kelishimiz hamon miyamiz uni hal qilish usullarini kurishga - farazlarni kashf qilishga kirishadi. **Faraz (gipoteza)** (qadimgi grek tilidan - asos, taxmin) — oldindan o'rganilgan faktlar, hodisalar, jarayonlarning muayyan majmuiga asoslangan, ularni izohlash uchun ilgari suriladigan va tasdiqlanishi yoki inkor etilishi lozim bo'ladigan nazariy taxmin.


**Tadqiqot farazi** - bu bevosita kuzatilayotgan hodisa, o'rganilayotgan hodisaning tuzilishi yoki uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi aloqalar xususiyati haqidagi ilmiy asoslangan taxmindir. Farazlar mavjud faktlar asosida ishlab chiqiladi.


**Xulosa sifatidagi faraz** ob'ektiv voqelikda o'z ildizlariga ega bo'ladi, fikrning bevosita kuzatilayotgan hodisalardan ularning sababli izohlanishigacha bo'lgan harakati hisoblanadi.

#### **Farazning tabaqalashtiruvchi belgilari:**

- Farazning uni yaratish uchun asos bo'lgan va asoslanishi uchun yaratilgan faktlarga muvofiqligi tekshiriluvchanligi;
- Imkonи boricha kengrok xodisalar doirasiga nisbatan nisbat berilishi mumkinligi;
- nisbatan soddaligi;
- mazmunida muammoni hal etish usullari va natijalari haqidagi taxminning mavjudligi;
- mantiqan zid kelmasligi
- natijaga yo'naltirilganligi

#### **FARAZLARNING TURLARI**





**Farazlar tushunchalarning nazariy talqin etilishini takrorlovchi ierarxiya tizimlarni hosil qiladi.** Farazning ifodalanishi - tadqiqotning nazariy tayyorlanishining yakunlovchi qismi.

Dissertatsiyaning nazariy bo'limini muayyan bazaviy faraz negizida ko'riliishi mumkin bo'lib, u mantiqiy dalillash, obro'li mualliflarga tayanish, amaliyotga va masala tarixiga murojaat etish yo'li bilan asoslanadi.

Agar tadqiqotchi **farazlarni ifodalagan bo'lsa**, unda empirik ma'lumotlar ularni tekshirish, tasdiqlash yoki inkor qilish uchun xizmat qiladi.

Agar avval-boshidan farazlar ilgari surilmagan bo'lsa, unda tadqitqotning ilmiy darajasi keskin pasayadi, uning natijalari va umumlashmalari esa u yoki boshsa indikatorlarning foizli ifodalari bayonlari va ancha jo'n tavsiyalardan iborat bo'lib qoladi.

### **Farazlarni ilgari surish qoidalari**

Faraz o'zi tegishli bo'lgan barcha faktlar bilan kelishgan bo'lishi yoki, hech bo'limganda, ularga muvofiq bulishi kerak. Faktlar turkumini izohlash uchun ilgari surilgan ko'plab bir-biriga zid bo'lgan farazlar ichida shu faktlarning eng ko'pini bir xilda izohlaydigani maqbulroqdir. Faktlarning bog'langan turkumini izohlash uchun imkonи boricha kamroq farazlarni ilgari surish kerak va ular imkonи boricha maxkamroq bog'langan bo'lishi kerak. Farazlarni ilgari surishda uning xulosalarining ehtimolli tusini idrok etish zarur. Bir-biriga zid keladigan farazlarga asoslanib ish qilish mumkin emas.

### **Farazlarni qurishning prosessual tuzilmasi.**

Ushbu faktlar doirasini izohlovchi sabab haqidagi taxmin tuziladi.

Yo'l qo'yilgan sababdan oqibatlar ajratiladi va tajribadagi ma'lumotlar bilan qiyoslanadi.

Uning farazning tasdiqlanishi yoki inkor etilishiga olib boradigan barcha qoidalari astoydil tekshiriladi:

- tasdiqlash uchun uning empirik ma'lumotlarning imkonini boricha ko'proq'i bilan kelishuvi talab qilinadi;
- inkor qilish uchun tajribaga mos tushmagan bir faktning o'zi yetarli.

### **Farazning ifodalanishidagi “qo'llaniladigan” iboralar va so'z birikmalari:**

- «*agar..., unda...*», «*chunki ...*», «*bo'lgani holda...*»

Ular tadqiqotchining e'tiborini hodisaning mohiyatini ochish, sababli-oqibatli aloqalarni belgilashga qaratadi.

### **M A G I S T R A T I K   D I S S E R T A T I O N**

Magistrlik dissertatsiyasining tanlangan mualliflik annotatsiyasi bilan ishslashni davom ettiring va ushbu tadqiqot farazini ifodalashga harakat qiling. Tahlil tanqidiy nuqtai nazardan qaraladi va o'rganilayotgan manbaga nisbatan yutuq hamda kamchiliklar baholanadi. Shular asosida ilmiy farazni ifodalab olish imkoniyati tug'iladi.

**Ishchi** faraz-kuzatilgan omilning jarayonning yoki hodisaning ehtimoliy, bashoratlari, faraziy rivoji keltirib chiqaradigan tadqiqotchi tomonidan asoslab aytilgan fikr, qarash.

Ilmiy farazni shakllantirishda mavjud bilimlar (tahlil qilingan) chegarasidan chiqadigan yangi mazmunli holatlar ifodalanadi.

Ehtimoliy faraziy holatlarda yangi g'oyalar, qarashlar, ta'limotlar olg'a suriladi hamda ular asosida yangi ilmiy natijalar paydo bo'lishi rejalashtiriladi

Ilmiy faraz ilm-fanni rivojlantirishda va ilm-fan mazmunini o'rgatishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Ilmiy faraz dastlab ilmiy fikrga asoslangan bo'lib, ichki his va sezgi bilan olg'a suriladigan shaklda paydo bo'ladi, chunki ilmiy dunyoqarash (tafakkur)siz fan-texnikada hech bir ilmiy g'oya (fikr, ta'limot, qonuniyat)ni shakllantirib bo'lmaydi. Ammo aniq bir hodisa jarayon yoki predmet, xullas manba to'g'risidagi taxmin yoki fikr ilmiy faraz bo'la olmaydi. Faqatgina quyidagi-shartlarni qoniqtira oladigan taxminlar ilmiy faraz bo'la olishi mumkin:

1.Tahlil natijasida shakllangan xulosa taxminlarning barchasiga teskari bo'lmasligi kerak;

“Shakllangan xulosa”ning ro'y berish ehtimolligi asoslangan bo'lishi kerak;

2. Shakllangan xulosaning nechog'lik muammo yechimiga erishishiga ta'sir ko'rsata olishgiga e'tibor qaratilib, unga muammo yechimiga yetgunga qadar suyana olishga imkoniyat yaratilgan bo'lishi lozim;

3.Ishchi faraz tadqiqot manbaiga mos muammo yechimiga yerishishni ta'minlamog'i lozim;

Ishchi faraz ilmiy tadqiqot ishining asosiy sharoitlarini, harakatlantiruvchi kuchini aniqlaydi. Ishchi faraz, ilmiy tadqiqot ishining rivoji va hech bo‘lmaganda shunga yaqin natijani qo‘lga kiritishni o‘z zimmasiga oladi. Ammo buni olg‘a surilgan faraz nazariy va amaliy asoslangandan keyingina olish mumkin, ya’ni ilmiy tadqiqot ishi jarayonida asoslangan, tasdiqlangan va rivojlangan ishchi faraz ilmiy nazariyaga o‘sib o‘tadi.

To‘liq ilmiy asoslangan, tahliliy ishchi faraz keyingi ishlarni rivojlantirishda muhim bosqich bo‘ladi, chunki har qanday ilmiy tadqiqot ishida nazariy va amaliy qism bo‘lib, ular tadqiqot manbaini tasdiqlaydigan aniq ko‘rsatkichlarga (omillarga, vositalarga, parametrlarga) ajratish imkonini beradi. Bulardan tashqari ishchi faraz ilmiy tadqiqot ishining asosiy poydevorlaridan biri bo‘lib, uning yordamida ilmiy tadqiqot ishini to‘g‘ri boshqara oladigan dastlabki analistik ishchi faraz shakllantiriladi va shu asosda muammo yechimi bo‘yicha ilmiy izlanishlar boshlab yuboriladi.

Ishchi faraz - kuzatilgan omilning, jarayonning yoki hodisaning ehtimoliy, bashoratlari, faraziy rivoji keltirib chiqaradigan tadqiqotchi tomonidan asoslab aytilgan fikr, qarash. Ma’lumotlarni o‘rganish manbai va unga tegishli.

Ilmiy faraz — bu avvalo, ilmiy fikrga asoslangan bo‘lib, u ichki his va sezgi bilan olg‘a suriladigan shaklda paydo bo‘ladi, chunki ilmiy dunyoqarash (tafakkur)siz fan - texnikada hech bir ilmiy g‘oya (fikr, ta’limot, qarash, qonuniyat)ni shakllantirib bo‘lmaydi.

Ishchi faraz, ilmiy tadqiqot ishining rivoji va hech bo‘lmaganda shunga yaqin natijani qo‘lga kiritishni o‘z zimmasiga oladi.

***Mavzu bo‘yicha muammoli savollar va topshiriqlar::***

1.Ilmiy faraz nima va uni qanday turlari mavjud?

2.Farazning tabaqlashtiruvchi belgilari nimalardan iborat?

---

## 3-MODUL

### MAKTABGACHA PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING METODOLOGIK TAMOYILLARI

---

#### **3.1-mavzu. Maktabgacha pedagogik tadqiqotlarning tamoyillari**

##### **Reja:**

1. Pedagogik tadqiqotlarning umumiy konkret–metodologik tamoyillari.
2. Shaxsiy-faoliyatga yo‘naltirilgan yondoshuv.

**Tayanch so’zlar:** *kasbiy “akme”, akmeologiya, refleksiv yondoshuv, kompetensiyaviy akmeologik yondoshuv, professionalizm, kasbiy kompetentlik, akmeogramma*

Metodologianing pedagogika uchun muhimligi, bir tomondan, fan rivojining umumiy xususiyatlari bilan, ikkinchi tomondan, pedagogik bilimlar rivojining o‘ziga xosligi bilan, uchinchi tomondan, bilish bosqichlarining murakkabligi bilan belgilanadi. U o‘zining rivojlanishi davomida boyib boradi, tajriba orttiradi, ob’ektiv voqelik hodisasi sifatida tarbiyaning muhim qonuniyatları va tamoyillarini ochib beradi.

Pedagogik tadqiqotlarning zamonaviy yo‘nalishlari dolzarb va amaliy jihatdan muhim masalalarining yangicha yechimlarini izlab topish jarayonining tezlashuvi, ayni vaqtida istiqbolli muammolarning nufuzi oshib borayotganligi bilan tavsiflanmoqda. Bunda ikki yo‘nalishdagi tadqiqotlar alohida ko‘zga tashlanadi:

1. Umumiy xarakterdagи yirik tadqiqotlarni talab etadigan keng doiradagi muammoni o‘rganish.
2. Murakkab pedagogik jarayonlarning ichki, nozik qirralarini topishga imkon beradigan tor muammolar yechimiga qaratilgan chuqur detalli o‘rganish.

**Birinchi yo‘nalish** tarafдорлари pedagogik jarayonning barcha unsurlari o‘zaro aloqada va ularni ajratish yaramaydi, degan dalilga tayanishadi, pedagogik tajribani yaxlit o‘rganish zarurligiga urg‘u berishadi. Biroq ular quyidagi holatni nazardan chetda qoldirishadi: pedagogik jarayon o‘zining bor munosabatlari bilan olib qaralganda pedagogika fani ob’ekti hisoblanadi. **Ikkinci yo‘nalish** vakillari pedagogik jarayonning alohida unsurlari (*metod, shakl va b.*) o‘rganishga uringan holda bir narsani unutishadiki, o‘quv-tarbiyaviy ishlar tizimida yulib olingan hech bir vosita to‘liq hisoblanmaydi.

Bugungi kunning jiddiy metodologik muammosi - bu zamonaviy ta'limni pedagogik tadqiqotlarga oid ilmiy muammolarda ishonarli va samarali aks ettirishdir.

Bajarilayotgan tadqiqotlarda uchraydigan umumiyl kamchiliklar:

- Mavzularning dolzarb pedagogik muammolar yechimiga qaratilmaganligi, ularda yangi, konseptual g'oyalarning yo'qligi;
- farazlarning isbot talab qilmaydigan holatda noaniq ifodalanishi;
- jiddiy xulosalarning yo'qligi, ularning nazariy va amaliy jihatdan noaniqligi;
- shablonlik (bir qolipdalilik)
- tavsiyalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatlari yo'qligi va boshqa cheklaydigan asosiy omillar;
- malakaning yetarli emasligi;
- tadqiqot metodlaridan to'g'ri foydalan bilmaslik va h.k.

Zamonaviy pedagogik bilimlar sezilarli darajada shu kunga qadar tashkil topgan tushunchalarining an'anaviy tizimi girdobidan chiqib ketadi. Bunday sharoitda pedagogika fanining o'z predmeti, chegarasi va xarakteri, ilmiy bilimlarni egallash, ularni amaliyotda qo'llash kabi masalalarni yangicha talqinda qo'ymoqda. Boshqacha qilib aytganda, metodologik muammolarni doktorlik dissertatsiyasi darajasida tadqiq qilshga ehtiyoj tug'ilmoqda. Ular qatorida:

- pedagogikada ilmiy fakt muammosi;
- tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish texnologiyasi;
- o'qitish tarkibi, tuzilmasi va funksiyalarini ilmiy asoslash;
- nazariya va amaliyot kabi fundamental tadqiqotlar ham o'z yechimini kutyapti;

Tadqiqot sifat-samaradorligi metodlarga bog'liqligi sir emas. Pedagogik tadqiqotlar metodi arap pedagogik hodisalarning ob'ektiv mohiyatini to'g'ri ifodalasa, pedagogika predmetining o'ziga xosligiga javob bersa, shubhasiz, ilmiy deb e'tirof etiladi. Shu jihatdan olib qaralganda, pedagogik tadqiqot metodlari uchun metodologik baho zarur bo'ladi. Afsuski, ularni yoritishga bag'ishlangan ishlar kam, borlari ham rus tilida, o'zbek tilida bu soha bo'yicha yirik pedagogik asar kam.

Pedagogik tadqiqotlarning samaradorligi tadqiqotchining metodologik madaniyatiga to'g'ri proporsionaldir. Shu boisdan bu tushuncha integral sifat ko'rsatkich hisoblanib, tadqiqotchidan o'zida xususiy ilmiy faoliyatni tahlil qilish ko'nikmasini, ma'lum konsepsiya (nazariya)ni ilmiy asoslash va ijodiy qo'llash qobiliyatini egallashni talab etadi.

Aniq fanlar metodologiyasi umumiyl metodologiyaga tayangan holda:

- 1.Uning talablarini muayyan fan ob'ekti tashkil etadigan hodisa va jarayonlarni o'rganishga tatbiq etadi;

2.O‘zida bilishning aniq ilmiy metodlari haqidagi nazariyani o‘rganilayotgan hodisa va jarayon qonuniyatlarining o‘ziga xos jihatlari bilan bog‘liq holda mujassamlashtiradi.

Pedagogika - boshqa rivojlangan fanlar qatori o‘zining alohida predmetiga, nazariy prinsiplariga ega va alohida tadqiqot metodologiyasi biluvga tortilgan ob’ektiv voqelikning o‘ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini hisobga olgan holda qo‘llaydi.

Metodologiyaga e’tiborning kuchayishi, kun tartibida turganligining ob’ektiv omillari mavjud: mamlakatimizda insonparvar demokratik huquqiy davlat zaminida kuchli fuqarolik jamiyati qurilmoqda va ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotiga mos holda tubdan yangilandi. Bu yangi modelning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan pedagogik tadqiqotlar natijasiga, umuman, pedagogika fanining rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liqdir.

Kasbiy rivojlanishdagi “akme” yoki kasbiy “akme”- shaxsning kasbiy rivojlanish jarayonida muayyan vaqt oralig‘i uchun xos bo‘lgan u uchun eng yuqori daraja hisoblangan psixik holatdir. Kasbiy “akme” barcha kasbiy qobiliyatlarni safarbar etish, ro‘yobga chiqarish, imkoniyatlarini maksimal tarzda namoyon etish, hayotining muayyan bosqichida ortiqcha zo‘riqishlarsiz, inson imkoniyatlarining chegarasidan o’tmagan holda yutuqlarga erishishini ta’minlaydigan psixik holatdir. Inson tomonidan eng yuqori cho‘qqilarga erishishining shakli sifatida kasbiy “akme” B.G.Ananev, A.A.Bodalev, A.A.Derkach, E.A.Zazikin, E.A.Klimov, N.V.Kuzmina, A.K.Markovalar tomonidan o‘rganilgan va tavsiflab berilgan. Kasbiy “akme”- muayyan vaqt oralig‘idagi shaxsning kasbiy rivojlanishining kulminatsiyasi, eng qaynoq nuqtasidir. B.G.Ananev kulminatsiya deganda, inson tomonidan o‘zi uchun eng qadrli narsalarni ijod qilishda yuksak samaradorlikka erishish davrini tushunadi. Kulminatsianing bosqichlari esa, B.G.Ananevning fikricha, vaqt, faoliyat ko‘lami, kasbiy tayyorgarlik metodlariga bog‘liq bo‘ladi. Kasbiy rivojlanishdagi “akme” vaqtga ko‘ra kishining individ sifatidagi va shaxs sifatidagi “akme”siga mos kelmasligi mumkin. Insonning individ, shaxs va kasbiy faoliyat sub’ekti sifatidagi rivojlanishining “tig‘iz” payti turli davrlarda ro‘y berishi mumkin. Har bir kishi o‘z hayoti davomida turlicha ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan kasbiy “akme”ga erishishi mumkin.

Ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega kasbiy “akme”- alohida insonning eng yuqori darajadagi kasbiy muvaffaqiyatlari bo‘lib, hamkasblari va atrofdagilar tomonidan e’tirof etilgan, jamiyat uchun zarur bo‘lgan natija, me’yoriy darajani ortda qoldiruvchi ko‘rsatkichdir. Mehnatning bunday natijasi odatda kasbiy mahoratni va undan kasbiy ijodkorlikka o’tishni ifodalaydi. Agar u kasbiy tajriba chegaralaridan chetga chiqsa kasbiy faoliyatga yangi vazifa, usul, texnologiya,

umuman yangi natijalarni olib kirish bilan birga kasb tajribasiga o'zining yangi individual ijodiy ulushini qo'shamdi.

Ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy "akme" o'zida ilg'or yutuqlar (nazariy g'oyalar va kashfiyotlar), alohida ijodiy topilmalar, novatorlik tajribasi va boshqalarni aks ettirishi mumkin. Ba'zan esa yirik muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda ko'rsatkichlarning pasayishi, ijoddagi tanaffuslar, quyi darajadagi natija, faoliyatning sustlashishi va boshqalar kuzatilishi mumkin, biroq odatda insonlar haqida ular erishgan yutuqlarga qarab fikr yuritishadi. Shaxsiy ahamiyatga ega kasbiy "akme"- alohida kishining kasbiy muvaffaqiyatining eng yuqori darajasi bo'lib, avval erishilgan natijalarni sezilarli tarzda ortda qoldirishdir. Mazkur yutuqlar hamkasblari tomonidan e'tirof etilmasligi mumkin, ammo kishining o'zi shu vaqt ichida professionalizm darajasiga erishishning maksimal imkoniyati sifatida anglanadi va baholanadi.

Individual sub'ektiv ahamiyatga ega kasbiy "akme"- kishining o'z ustidan g'alaba qozonishi, kuchlarini safarbar etishi, dastlab erishgan natijalaridan o'zib ketishi, o'zi uchun yangi hisoblangan professionalizm darajasiga ko'tarilishi, kasbiy mahoratining rivojlanishi uchun ilg'or shart-sharoit yaratishda namoyon bo'ladi. Sub'ektiv ahamiyatga ega kasbiy "akme" hamma vaqt ham kasbdoshlar jamiyati tomonidan e'tirof etilmasa ham, mutaxassis uning imkoniyat va yangi yutuqlarini qanday baholashlariga befarq emas.

Kasbiy "akme"ning yuqori cho'qqilarning miqdori, "tig'izliklar", ko'tarilish darajasiga bir necha turlarini farqlash mumkin:

Katta "akme"- insonning butun hayoti davomida erishgan eng asosiy muvaffaqiyati, avvalgi ko'rsatkichlardan o'zib ketuvchi kasbiy natijalarning tig'izlashuvi, kasbiy faoliyatdagi yutuqlardan iborat bo'lib, uni bir cho'qqili "akme" deb nomlanadi;

- kichik "akme" –mutaxassisning kasbiy faoliyatdagi bir necha marotaba takrorlanadigan, katta "akme"dan avval ro'y beradigan muvaffaqiyat, ya'ni ko'p cho'qqili "akme".

Kasbiy faoliyatdagi "akme"lar bir-biridan quyidagi xususiyatlarga ko'ra farq qilishi mumkin:

- muddati va vaqt chegaralariga ko'ra (kunlar, haftalar, oylar, ba'zan yillar)
- masshtabi yoki ko'lamiga ko'ra (bir yoki bir necha kasbiy va ijtimoiy faoliyatni qamrab olishi).

Kasbiy "akme" umumiylashtirilgan kasbiy rivojlanish jarayonidagi o'rniga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin:

- kasbiy "akme" pasayish yoki turg'unlik davrlaridan keyin (yashirin rivojlanayotganga o'xshab), ba'zan barqarorlashuvdan so'ng namoyon bo'lishi mumkin;

- kasbiy “akme”ning o’zi pasayishga, bo’shliqqa, rivojlanishdagi inqirozga sabab bo’lishi mumkin;

- kasbiy “akme” yangi “akme”ning paydo bo’lishiga, ko’tarilish va innovatsiyalarga olib kelishi mumkin.

Kasbiy “akme” bir-biridan ichki tuzilishiga ko’ra ham farq qilishi mumkin:

- barqaror darajadagi kasbiy muvaffaqiyatlar, bir maromda davom etuvchi natijalar;

- “sakrash”ga o’xshagan bir necha faoliyatni faollashtirish bosqichlari.

Har bir kishida kasbiy “akme” mavjudligini va uning tabiatini baholash uchun mazkur kasb bilan shug’ullanish jarayonida shakllangan prefessinalizm va kasbiy loyiqlik yoki kompetentlik ko’rsatkichlarini inobatga olish zarur. Kasbiy “akme”ni aniqlash va baholash alohida ijtimoiy-tarixiy davrda mazkur kasbiy faoliyatda shakllangan professionalizm va professional kompetentlikning ko’rsatkichlari qanday tushunilishiga bog‘liqdir.

Professionalizm –inson mehnat faoliyatning integral psixologik tavsifi bo‘lib, uning kasbni qanday o’zlashtirganligi, shu kasbning zamonaviy bosqichiga xos namunalar asosida mehnat faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlarini o‘zida aks ettiradi. Professionalizm o‘z ichiga kishining yuqori darajadagi mehnat samaradorligiga erishishi, boshqalar bilan o’zaro ta’sir jarayonida kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli bajara olishi, mehnat kishisiga xos bo’lgan muhim kasbiy sifatlarning mavjudligini qamrab oladi. Shuning uchun ham professionalizm mehnat faoliyatning uchta tomonini – kasbiy faoliyat, kasbiy muloqot va mutaxassis shaxsini o‘z ichiga oladi.

Kasbiy faoliyat- kishining ijtimoiy va shaxsiy, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ne’matlar yaratish uchun yo’naltirilgan, mehnat predmetlarini qayta o’zgartirishga qaratilgan faolligidir.

Kasbiy muloqot mehnat predmetlarini qayta o’zgartirish jarayonida boshqalar bilan o’zaro ta’sir etish va hamkorlik qilishga yo’naltirilgan faolligidir. U kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish vositalaridan biri sifatida namoyon bo’lishi mumkin. Mutaxassis (professional- o‘z ishining ustasi) shaxsi- mehnat kishisining psixik xususiyatlari, sifatlari va holatlari yig’indisidan iborat bo‘lib, u kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishi uchun imkoniyat yaratadi hamda mehnat jarayonida o’zgaradi va takomillashib boradi. Kasbiy “akme” kasbiy faoliyatning yuqori darajasini, kasbiy muloqot va shaxs yetukligini egallahda namoyon bo’ladi. Shuning uchun shaxs, faoliyat va muloqot yetukligi ko’rsatkichi kasbiy “akme”ning shakl va turlari mavjudligining mezoni sifatida qaralishi mumkin.

Kasbiy faoliyat samaradorligining ko’rsatkichlari quyidagilar:

1. Natijaviy ko’rsatkichlar:

- maqsadga muvofiqlik, natijalarning dastlabki maqsadlarga mosligi, samaradorlik;
- mahsuldorlik, mehnat predmetini o'zgartirishda namoyon bo'ladigan natijalar;
- tejamkorlik, manbalar, vaqt va ishchi kuchidan minimal darajada foydalanish;
- qulaylik, mazkur sharoitda eng yaxshi natijalarga erishish uchun minimal darajada vaqt va kuch sarf qilish;
- yuksak namunalarga mos keladigan faoliyat usullarini o'zlashtirish va natijalarga erishish;
- yangi vazifalar qo'yish, nostandard texnologiyalarni topish, umuman yangi mahsulot yaratish, shakllangan tajribalardan chetga chiqish  
( kasbiy ijod, yangiliklar yaratish).

## 2. Jarayonga xos ko'rsatkichlar:

- kasbiy faoliyat vazifalarining turli-tumanligi;
- ijtimoiy talablarga moslashuvchan, qulay texnologiyalardan foydalanish;
- kasbiy faoliyat sub'ektining shakllanganligi ( kishining maqsad qo'ya olishi, anglashi, faoliyatni boshqara olishi);
- kasbiy faoliyatda deformatsiyalarning mavjud emasligi ( maqsad, zveno va operatsiyalarni o'tkazib yubormaslik);
- o'tmish tajribaga asoslanish va o'zining shaxsiy tajribasiga ega bo'lish;
- aniq faoliyat turlarini egallash, ixtisoslashuv;
- bir necha oraliq faoliyat turlarini egallash ( universallik);
- ixtisoslik talablariga mos keladigan bilim, ko'nikma va malakalarni egallah.

## Professional muloqotning rivojlanganlik ko'rsatkichlari:

- hamkorlikda, jamoa bo'lib bajariladigan kasbiy faoliyat samaradorligining oshishi;
- “komanda” bo'lib bajariladigan ish usullarini egallah, yuqori darajada mahsuldor kasbiy faoliyatning mavjudligi;
- Yangi kasbiy muhit, ishga oid va ijodiyl muloqotni loyihalash;
- Hamkorlikdagi mehnat faoliyatida o'zaro bilish, o'zaro tushunish, bir-birini tuzatish;
- Hamkorlikdagi faoliyat ishtirokchilarining psixik rivojlanishi uchun ichki zahiralarni safarbar etish uchun zarur sharoit yaratish;
- Hamkorlikdagi mehnat faoliyatida funksiya va rollarni oqilonan taqsimlash;
- Kommunikativ texnikaning ko'plab turlaridan foydalanish;
- Hamkasblar bilan nizolarsiz hamkorlik qilish;
- Mehnat jarayonida boshqa kishini o'rganish, unga hamdard bo'lish;

-Boshqa kishilar tomonidan samarali natijalarga erishish maqsadida to'plangan tajribani tahlil qilish;

-Iste'molchilar ehtiyojlari va kasbiy faoliyat natijalarini hisobga olish;

-Kasbiy faoliyatda ijobjiy psixologik muhitni ta'minlash, ishtirokchilarning hamkorlikdagi faoliyatdan o'zaro qoniqishiga erishish;

-Mazkur guruhda qabul qilingan kasbiy etika, me'yor va muloqot tiliga rioya qilish.

Yetuk mutaxassis shaxsining ko'rsatkichlari:

-mazkur kasbning axloqiy qadriyatlari va mentalitetini tushunish;

-shaxsiy kasbiy tajribasini to'plash va tahlil qilish;

-o'z kasbining ustasi sifatida namoyon eta olish, kasbiy rivojlanishi uchun eng qulay senariyni tashkil eta olish;

-o'z imkoniyatlaridavn maksimal darajada foydalana olish va kompensatsiya qilish (o'rnini to'ldirish);

-kasbiy faoliyatda kishining imkoniyatlariga mos keluvchi, kasbiy topshiriq va faoliyat ususllarini birlashtiruvchi individual uslubni shakllantirish;

-o'zini saqlab qolish uchun xavf tug'ilgan paytda ham mehnat faoliyatini blokirovka qilish( ajratib olish), xulq-atvorga xos kasbiy hatti-harakatlarning adekvatligi va tejamkorligi;

-o'z imkoniyatlarini maksimal tarzda safarbar eta olish, kuch -quvvatni bir joyga to'plash;

-mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda butun kuch-quvvatni yuqori darajada safarbar etish va to'plash, ortiqcha zo'riqishlarning oldini olish;

-o'z kasbining ustasi sifatida mehnatga ijobjiy munosabat va undan to'liq qoniqish hosil qilishni ta'minlash;

-har bir yangi imkoniyatni kasbiy takomillashuvga safarbar etish, foydalanilmay qolgan imkoniyatlar uchun mas'uliyatni his qilish;

-individual kasbiy optimumni ishlab chiqishga qobiliyatli bo'lism;

-kasblar dunyosi va ular uchun zarur sifatlar haqida bilimga ega bo'lism;

-o'zining kasbiy faoliyat ko'p qirrali ekanligi anglagan holda faoliyat hamda muloqotning turli soha va turlarida muvaffaqiyat qozonishga intilish;

-shaxsning kasbiy tipiga yaqinlashishi, mazkur mehnat faoliyati uchun muhim bo'lgan sifatlarni rivojlanirish;

-shaxs deformatsiyalarining mavjud emasligi;

-kasb uchun muhim bo'lgan cho'qqilarni zabit etish usullarini o'zlashtirish, akmeogramma tuzish.

Kasbiy kompetentlik- bu kishining kasbiy vazifalarni bajara olish qobiliyatidir. Professionalizm ko'plab kasbiy kompetentlikdan tashkil topgan bo'ladi. Kompetentlik tarkibida kishining bilim, ko'nikma va malakalariga

bog'liq holda bu qobiliyatlardan foydalana olish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Kasbiy kompetentlikning bir necha turlari- kasbiy faoliyatdagi kompetentlik, kasbiy muloqotdagi kompetentlik, mutaxassisning o'z shaxsini namoyon eta olishdagi kompetentligi kabi guruhlarni farqlash mumkin.

Kasbiy faoliyatdagi kompetentlik va uning turlari quyidagicha:

- Maxsus kompetentlik (o'z ishini yaxshi bilish);
- Texnologik kompetentlik;
- Sub'ektiv kompetentlik;
- Professiologik kompetentlik ( kasblar olami haqida ma'lumotga ega bo'lish);
  - Huquqiy kompetentlik;
  - Iqtisodiy kompetentlik va boshqalar.

Kasbiy muloqotdagi kompetentlik va uning turlari:

- kommunikativ va muloqotchanlik kompetentligi ( hamkorlik qila olish qobiliyati);
  - ijtimoiy-perseptiv kompetentlik ( boshqa kishilarni idrok qilish qobiliyat);
  - differensial-psixologik kompetentlik;
  - diagnostik kompetentlik ( boshqalarni o'rganish qobiliyati);
  - axloqiy kompetentlik;
  - empativ kompetentlik;
  - madaniyatlararo, ijtimoiy-madaniy kompetentlik (boshqa madaniyatlarga nisbatan bag'rikenglik);
  - nizoli vaziyatlardagi kompetentlik va boshqalar.

Mutaxasis shaxsining shakllanishidagi kompetentlik va uning turlari:

psixologik kompetentlik ( boshqa kishilarni o'rgana olish ko'nikmasi):

- individual, autopsixologik kompetentlik ( o'zini o'rganish ko'nikmasi);
- madaniy kompetentlik ( jamiyatda qabul qilingan madaniy normalarni qabul qilish va o'zi uchun etalon sifatida o'zlashtirish);
  - refleksiv kompetentlik va boshqalar;

Professiogramma- kishining jamiyat uchun zarur bo'lgan mehnat mahsulotlarini yaratishi, ijtimoiy ahamiyatga ega muvaffaqiyatlarga erishishi uchun kasbiy faoliyatga qo'yiladigan talablar yig'indisidan iborat. Professiogrammada kasbiy topshiriqlar, vositalar, usullar va texnologiyalar, mehnat natijalari va xodim uchun zarur sifatlar mohiyati aks ettirilgan hujjatdir.

Akmeogramma- malakali mutaxassis shaxsi va faoliyatiga qo'yiladigan talablar aks ettirilgan talablar yig'indisidir. Unda nafaqat jamiyat talab qilgan natijalarga erishish uchun zarur sifatlar va faoliyatga xos xususiyatlar, balki

mutaxassisning kasbiy mahoratga erishishi, professionalizmni egallashi uchun zarur jihatlar ham o'z aksini topgan.

***Akmeogramma quyidagi tuzilishga ega:***

***Akmeogramma***

Nº \_\_\_\_\_

«\_\_\_\_\_» 20 yil

F.I.O. \_\_\_\_\_

Jinsi \_\_\_\_\_

Yoshi \_\_\_\_\_

Ma'lumoti \_\_\_\_\_ Mutaxassisligi \_\_\_\_\_

Xodim sifatida o'sishi \_\_\_\_\_

Ixtisoslik darajasi \_\_\_\_\_

Malakasini oshirish va qayta tayyorlash ( shu jumladan mustaqil ta'lim olish orqali) \_\_\_\_\_

Qo'shimcha ma'lumotlar \_\_\_\_\_

***1. Imkoniyat va qobiliyatlar osttuzilmasi:***

- murakkab xususiy;
- istidor va talantning mavjudligi;
- shaxsning imkoniyatlari bahosi;
- qo'shimcha ma'lumotlar.

***2. Individuallik osttuzilmasi:***

- "Men" obrazining tavsifi;
- Muvaffaqiyatga ehtiyoj va motivatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari;
- o'zini-o'zi baholash xususiyatlari;
- qadriyatli oriyentatsiyalar va qiziqishlar tavsifi;
- o'zini namoyon etish bahosi;
- qo'shimcha ma'lumotlar.

***3. Yo'nalganlik osttuzilmasi:***

- yo'nalganlik tavsifi ( kengligi, chuqurligi)
- yo'nalganlikning mazmuni;
- kasbiy faoliyatga munosabat;
- o'zaro ta'sirga yo'nalganlik;
- qo'shimcha ma'lumotlar.

***4. Xarakterologik xususiyatlar va axloqiy sifatlar osttuzilmasi:***

- maqsadga intiluvchanlik,
- tashabbuskorlik;
- irodaviy sifatlar;

- uyushqoqlik;
- mas'uliyatlilik;
- boshqalar muvaffaqiyatga hasad qilmaslik;
- munosabatlarning insonparvarlikka yo'nalanligi;
- samimiylilik;
- tartiblilik;
- qat'iyatlilik;
- xolislik;
- qo'shimcha ma'lumotlar.

**5. *Kasbiy sifatlar osttuzilmasi:***

- kasbiy kompetentlik;
- kasbiy bilim va ko'nikmalarning chuqurligi;
- kasbiy ijodkorlik;
- kasbiy ko'nikmalar tavsifi;
- qo'shimcha ma'lumotlar.

**6. *Professionalizmning akmeologik variantlari:***

- shaxsning kuchi;
- antitsipatsiya darajasi;
- o'zini-o'zi boshqarish darajasi;
- qaror qabul qilish va uni amalga oshirish darajasi;
- ish qobiliyatining darajasi
- maxsus sifatlar;
- kasbiy ahamiyatga molik psixologik sifatlar;
- shaxsiy- ishga oid sifatlar;
- qo'shimcha ma'lumotlar.

7. Umumlashtirilgan qo'shimcha ma'lumotlar.

8. Keng umumiy xulosalar.

***Mavzu bo'yicha muammoli savollar va topshiriqlar:***

1. Kasbiy kompetentlik qanday qismlardan iborat?
2. Akmeogramma tuzishda qaysi jihatlarga e'tibor qaratish kerak?
3. Professionalizm nima?

### **3.3-MAVZU.PEDAGOGIK ILMIY-TADQIQOT METODLARINI TASNIFFLASH MUAMMOLARI.**

Reja

1.Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari tushunchalari.

## 2. Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari tasnifi va tavsifi

**Tayanch so'zlar:** metod, pedagogik kuzatish, suhbat, statistika, modellashtirish.

Hozirgi zamon ta'lim-tarbiya tizimi faqat insoniyat aniqlagan bilimlarni o'zlashtirishgina emas, balki jamiyat endi hal qilishi va bunda bugungi o'quvchi-talabalar qatnashishi lozim bo'lgan masalalar bilan tanishishini ham talab qiladi. Bunday masalalar kosmosni o'zlashtirish, atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish, cho'llarni hosildor yerkiriga va bog'-rog'larga aylantirish, qishloq xo'jaligini intensivlashtirish va hokazolardan iborat bo'lishi mumkin. Xalq xo'jaligi va fan-texnikaning hamma sohalarida juda katta burilishlar ro'y bermoqda va har bir o'qituvchi o'zining tarbiyalanuvchilarini o'zi o'qitadigan fan sohasi bo'yicha navbatdagi qayta qurilishlar va erishilgan yutuqlar bilan keng tanishtirishi kerak. Bu ishni o'quvchi-talabalarga mos metoda va o'quv dasturiga muvofiq amalga oshirish lozim. Mazkur talabning ikkinchi xususiyati pedagogning o'quvchi-talabalar fikr doirasini kengaytirishga doimo g'amxo'rlik qilishidir. Shunday qilib, ilmiy, ya'ni tadqiqot metodi tadqiqotchi nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan tadbirdir. Unga quyidagi muayyan talablar qo'yiladi:

1. Ilmiy materialini o'rganishning tadqiqotchi tavsiya etgan metodi respondentlarda fikrlashning dialektik qarashlari, irodaviy xususiyatlari va xulqining shakllanishiga olib borishi kerak. Ana shu talab nuqtai nazaridan metod tarbiyaviy tusda bo'lishi ham mumkin.
2. Tadqiqot metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo'lishi zarur. Shundagina tadqiqotchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo'yilishi va hal qilinishi mumkinligini, qanday masalalarni hal qilib bo'lmeligini ko'ra oladi.
3. Tadqiqotning tizimliligi uning samaradorligini belgilaydi.
4. Tadqiqot metodining tushunarligi o'quvchi-talabalar uchun qabul qilinishi va qo'llanishi, o'quv materialini o'rganishning metodi esa bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi shart.
5. Tadqiqotning onglilik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir.
6. Bilimlarning puxtaligi va asosliligi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.
7. Tadqiqot metodida nazariy va amaliy hodisalarni muvofiqligiga erishmay ham dars o'tib bo'lmaydi.

Har qanday metoddan biror maqsadga erishish ko'zda tutiladi va shuning uchun u qandaydir maqsad qo'yishni, ilmga erishish bo'yicha faoliyat metodi ana shu faoliyatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni bilishni taqozo etadi.

Har qanday faoliyat uning ob'ektini bilishni talab qiladi. Nihoyat, metod maqsadga olib borishi kerak, aks holda, u qo'ygan maqsad uchun yaroqsizligini, yo bo'lmasa, bu holatda uning umuman noto'g'ri qo'llanganligini e'tirof etish lozim. Shunday qilib, har qanday ta'lim metodini qo'llashdan ko'zlangan maqsadni, shu maqsadni amalga oshirish faoliyatini va faoliyatni bajarish vositalarini talab qiladi. Bu vositalar faoliyat ob'ekti to'g'risidagi predmetli yoki aqliy bilimlar, qo'yilgan maqsadga albatta erishishdan iborat bo'lishi mumkin. Bularning hammasi ham qanday metodga nisbatan maqsadga muvofiqdir, lekin o'qitish metodlari uchun etarli emas. Tadqiqot metodlarini quyidagilarga bo'lish mumkin:

- tafakkur, xotira, diqqat va xayolning alohida operasiyalarini tarkib toptiradigan va faollashtiradigan metodlar;
- fikrlash faoliyatida muammoli va izlanishli vaziyat larni vujudga keltiradigan metodlar;
- Tadqiqotlarning ilmiy materialini o'zlashtirishi bilan bog'liq kechinmalari va hissiyotlarini faollashtiradigan usullar;
- nazorat tadqiqotlarning o'zini-o'zi nazorat metodlari;
- Tadqiqot jarayonida jamoaviy va shaxsiy o'zaro munosabatlarini boshqarish metodlari;

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'z yo'li, tamoyillari tarbiya jarayonida hali avvalgi keksa avlod oldida turgan yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo'ladigan xislat va sifatlar shakllantirilishini taqozo etadi.

Ijtimoiy zaruriyatdan kelib chiqqan holda, yoshlarga pedagogika ilmidagi tushunchalar, ta'riflar milliy istiqlol mafkurasiga mos umuminsoniylik ruhida tushuntirilmog'i maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Albatta, ta'lim va tarbiyada umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy o'ziga xoslik nisbati, muvozanati alohida ahamiyatga ega. Yana bir tomonidan ta'lim nazariyasini, ta'lim -tarbiya mazmunini, shaklini va uslublarining asosiy jihatlari Sharqda ishlab chiqilib, Yevropa orqali o'zgarib, rivojlanib yana Sharqqa qaytib kelganini va dunyo pedagogik jarayonini bir butunligini hisobga olinsa, quyidagi tushunchalarda xususiy milliylikdan ko'ra, umuminsoniylik jihatlarining ko'pligi ko'zga tashlanib turadi. Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari qanchalik to'g'ri qo'llansa, ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yuksaladi. Lekin ilmiy tadqiqot metodlarining aniq chegaralangan tizimi hozirgacha fanda yaratilgan emas. Pedagog pedagogik jarayonda o'z auditoriyasidagi tarbiyalanuvchilarning xarakter-xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularning psixologiyasini chuqr o'rganishda bir qator metodlarni qo'llashi mumisin. Chunki pedagogning asosiy maqsadi dars

jarayonini tarbiyaviy ta'sirini oshirish hisoblanadi. Buning uchun quyidagi pedagogik ilmiy tekshirish metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ldi:

1. *Adabiyotlarni o'rghanish metodi*
2. *Pedagogik kuzatish metodi.*
3. *Suhbat metodi (yakka tartibda, guruh bilan).*
4. *Pedagogik so'rash metodi.*
5. *Test sinovlari metodi.*
6. *Ta'lismuassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.*
7. *Eksperiment-tajriba-sinov metodi.*
8. *Statistika ma'lumotlarinn tahlil qilish metodi.*
9. *Matematika va kibernetika metodi*
10. *Modellashtirish metodi.*

Ta'lismetodlarini tanlash bilan bir qatorda o'qituvchi darsdagi talabalarni yosh va individual xarakter xususiyatlarini o'rGANishi hamda tahlil qilishi shart.

***Adabiyotlarni o'rghanish metodi*** - tadqiqot mavzusi bo'yicha pedagogika, psixologiya, madaniyat, iqtisod, siyosatga doir adabiyotlar va dissertatsiyalar o'rGANISHDA qo'llaniladi.

***Pedagogik kuzatish*** - odatda tabiiy kuzatish orqali talabalarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi. Bu metod tadqiqotchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko'zda tutib idrok etish tashkil etadi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish ob'ekti, vaqt, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va hokazolar hisobga olinadi.

***Suhbat metodi*** – so'rashning bir turi bo'lgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan shaxs bilan, bevosita aloqada bo'lish vaqtida og'zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala shaklida qo'llaniladi.

Suhbat metodi - ta'lismuassasasi o'qituvchilarini va o'quvchi-talabalar jamoasi hamda ota-onalar va keng jamoatchilik bilan, yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo'llaniladi. Suhbat metodidan farq qilib intervyyu olish metodi savollarni oldindan belgilangan izchillikda intervyyu yo'li bilan bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar magnit tasmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so'rash nazariyasi va amaliyotida intervyyu tashkil etishning ko'p metodlari mavjud:

- guruhlar bilan;

- intensiv;
- sinash va h.k.

**Pedagogik so‘rov** metodi - tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayoni bu metodning asosini tashkil qiladi. So‘rash savollarning mantiqiy o‘ylangan sistemasini, ularning aniq ifodalanishini, nisbatan kamchiligi (3-5ta) nazarda tutiladi. Shuningdek, qat’iy shakldagi javobni («ha», «yo‘q») ham taqozo etishi mumkin.

**Test sinovlar metodi**- bu yozma javoblarning ommaviy ravishda yig‘ib olish metodidir. Test sinovlarini (anketalarini) ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Pirovard natijada, tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga, berilayotgan savollar shakliga, to‘ldirilgan anketalar soniga bog‘liq bo‘ladi. Odatda test savollarining ma’lumotlarini kompyuterda matematik statistika metodlari bilan ishslashga imkon beradigan qilib tuziladi.

**Ta’lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi** -bunda o‘quvchi-talabalarning umumiyligi miqdori, uning o’sishi yoki kamayish sabablari tavsifi, o‘quvchi-talabalarning fanlar bo‘yicha o’zlashtirish darajasiga, sinf yoki kursidan qolishning oldini olish, rag’batlantirish va jazolash chorralari turlariga, ta’lim muassasasining moddiy bazasiga e’tibor beriladi.

**Eksperiment-tajriba-sinov metodi** - ushbu tajriba asosan ta’lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbiqi jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o’tkaziladi.

**Statistika ma’lumotlarini tahlil qilish metodi** - ta’lim sohasiga, jumladan, ajratilgan mablag’larning doimiy o’sib borishi, darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ko’rgazmali quollar, o‘qituvchi kadrlar tayyorlash, o‘quv binosi qurilishi, xo’jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag’lar statistika metodi orqali aniqlanadi.

**Matematik metodlari**- o‘qitish nazariyasi, amaliyotida hisoblash matematikasi mashinalari yordamida bir tildan ikkinchi tilga tarjima, dasturli ta’lim va uni mashina orqali boshqarish, o‘qitishni mustahkamlash, baholash orqali ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish differensial va individual ta’lim berysh, ta’lim-muassasasi hisobotini mashinalar yordamida tuzish kabi jarayonlardir. Bu kabi metodlardan foydalanib ta’lim va tarbiya ishlarini olib borish faqatgina pedagog uchun emas, iqtisodiyot jabhalarida faoliyat yuritayotgan boshqaruvchi xodimlar, oilada farzand tarbiyasi bilan shug’ullanuvchi ota-onalar uchun ham, jamoa bilan ishlaydigan mas’uliyatli shaxs uchun ham zaruriy shart bo’lgan metodlardan biridir.

Zero, shaxs tarbiyasidek murakkab jarayonga hech qachon e'tiborsiz bo'lmaslik zarur.

***Mavzu bo'yicha muammoli savollar va topshiriqlar:***

1. Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari qanday turlarga ajratiladi?
2. Pedagogik kuzatish qanday maqsadda qo'llaniladi?
3. Statistika ma'lumotlarini tahlil qilish metodiga ta'rif bering?

**3.4-MAVZU. ADABIYOTLAR, ARXIV MATERIALLARINI  
O'RGANISH.**

**Reja:**

1. Pedagogik kuzatish metodi.
- 2 Suhbat metodi va uni o'tkazish metodikasi.
- 3 Anketa metodi va uni o'tkazish metodikasi

**Tayanch so'zlar:** *darslik, suhbat, suhbat turlari, tushuntirish, anketa, pedagogik kuzatish metodi, test, ochiq va yopiq testlar, matematik-statistik metod.*

O'quv adabiyotlari orasida darslik alohida o'rinni tutadi. Darslik muayyan o'quv fani bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba bo'lib, u mazmuni va tuzilishiga ko'ra fan bo'yicha yaratilgan o'quv dasturiga mos keladi. Namunaviy o'quv dasturlari asosida yaratilgan darsliklar maqsadga muvofiq holda Respublika Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirliklari tomonidan barcha maktablar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun tavsiya etiladi. G'oyaviy va metodik jihatdan mukammal bo'lган darslik ta'lim mazmuniga qo'yiladigan barcha talablarga javob bera olishi, o'quvchilar uchun qiziqarli, iloji boricha qisqa, tushunarli, ko'rgazmalilik nuqtai nazaridan estetik xususiyatga ega bo'lishi kerak. Darslik bir vaqtning o'zida ham barqaror, ham qulay tarkibiy tuzilmaga ega bo'lishi kerak. Darslik barqarorligiga ko'ra mustahkam asosga ega, mobilligiga ko'ra ega asosiy tuzilmaga daxl etmagan holda yangi bilimlarni tezlikda kiritish imkoniyatini namoyon etadi. Ularga qo'yiladigan talablar turli-tuman va qarama-qarshi bo'lib, mukammal darsliklarning yetishmovchiligi doimo his etiladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda muqobil, parallel darsliklar nashr etiladi, shu sababli o'qituvchilar va o'quvchilar ular orasidan eng yaxshilarini tanlab olish imkoniyatiga egalar. Darslik o'quvchilarning ta'lim jarayonida ongli ravishda va faol ishtirok etishlari, o'quv materialini to'la o'zlashtirishlarini

ta'minlashi kerak. Ana shu masalalarini hal etish yo'lida darsliklar quyidagi vazifalarni bajaradi:

Motivatsion vazifa - bu vazifa o'quvchilarni ushbu fanni o'rganishga yo'naltiradigan, ularda ishga pozitiv munosabati va qiziqishini shakllantiruvchi rag'bat (sabab)larni hosil qilishdan iborat;

Axborot vazifasi o'quvchilarga axborotlarni yetkazish, samarali usullar yordamida ularning bilimlari hajmini kengaytirishga imkon beradi;

Nazorat-tuzatish (mashq qilish) vazifasi – ta'lim jarayoni, uning natijalarini tekshirish, o'quvchilarda o'zini baholash va tuzatish layoqati hamda zarur bo'lgan ko'nikma, malakalarni shakllantirish uchun o'rganish mashqlarini tavsiya etishni nazarda tutadi.

Muvofiqlashtirish vazifasi material ustida ishslash jarayonida ta'limning boshqa vositalari (xaritalar, ko'rgazmali materiallar, diapozitiv va boshqalar)ni jalg'etishni ifodalaydi;

Rivojlantiruvchi-tarbiyalovchi vazifasi darslik mazmunining o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy ta'sir ko'rsatishi, kitoblar bilan ishslash jarayonida ulardan mehnatsevarlik, faol fikrlash, ijodiy qobiliyat kabi sifatlarni shakllantirishdan iborat;

O'qitish vazifasi darslik bilan ishslashda mustaqil bilim olish uchun zarur bo'lgan konspekt yozish, umumlashtirish, asosiysini ajratib ko'rsatish, mantiqiy eslab qolish kabi malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishida ko'zga tashlanadi.

Ta'lim mazmuni o'quv materiali darajasida darsliklar bilan bir qatorda turli xil o'quv qo'llanmalari: adabiyot va tarix xrestomatiyalari, izohli lug'atlar, matematika, fizika, ximiya bo'yicha masalalar to'plamlari, geografiya, biologiya bo'yicha atlaslar, til bo'yicha mashqlar to'plamlari va boshqalarda ochib beriladi. O'quv qo'llanmalari darslikning ba'zi tomonlarini kengaytiradi va aniq masalalarini hal etish maqsadiga ega bo'ladi (axborot, mashq qilish, tekshirish).

**Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari.** Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g'oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta'minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma'naviyatiga ziyon etkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o'rganish, mavjud ko'rsatkichlar vositasida ularning sodir bo'lish sabablarini o'rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator ob'ektiv va

sub'ektiv omillarga bog'liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul, ayni vaqtda samarali bo'lган metodlarni tanlay olish ham muhimdir.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, ob'ekti va sub'ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir. Ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasida pedagogik yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, vogelik va ularning qonuniyatlarilarni aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomilashtirib borishini ta'minlashi, qaramaqarshiliklarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e'tirof etadi. Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lган jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir:

- muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi;
- ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi;
- vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi;
- tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan ob'ektiv yondashuv;
- tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to'g'ri hisobga olinganligi;
- tadqiqot natijalarini oldindan tashhislash va uning natijalarini aytib o'tish;
- tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo'nalishda, tadqiqotlarni olib borishda Pedagogik kuzatish metodi metodidan ham keng foydalanimoqda.

Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo'llash jarayonida, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba- avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- 1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- 2) kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;
- 3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- 4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish;
- 5) xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Pedagogik tarbiya haqidagi fanda pedagogik reallikni haqiqat voqelik bilish usullsridan eng ko'p qo'llaniladigan usul bu kuzatuvdir.

“Kuzatuv” iborasi bir necha ma'noga ega. Hayotiy ma'nosini insonning atrof-muhit bilan chambarchas bog'liqligini qamrab oladi. Kuzatuv unga (insonga) muhitga moslashishiga o'z hatti-harakatlarini o'zgaruvchan sharoitga moslashtirishga yordam beradi. O'quv-ta'limiy kuzatuv o'quvchiga (talabaga) o'rganayotgan narsasi haqida bu narsaning jarayoni bir-biriga bog'liqligi miqdoriy sifatiy o'zgarishlari haqida tushuncha beradi. Pedagogik kuzatuv tarbiyachi, sinf rahbariga o'zini tutishini idrok etishdan iborat. Nazoratchi uchun kuzatuv, o'qituvchi hatti-harakati, ma'lum sharoitda sinf rahbarining harakati, uning kasbiy faoliyati orqali pedagogik jarayonning tuzilishini ochib beradi. Ko'rinish turibdiki, kuzatuv hayotiy yoki ilmiy (tadqiqot uchun) bo'lishidan qat'iy nazar pedagog uchun juda qimmatlidir. Kuzatuvchanlik – pedagogik mutaxasislikning qimmatli qaratqichlaridan biridir.

Lev Tolstoyning pedagogik ijodidan ma'lumki, maktab –bu laboratoriya, bu yerda o'qituvchi hamma narsani kuzatishi o'z kuzatuvlarini tekshirishi va yana kuzatishi kerakdir. Fan olamida ilmiy tadqiqot kuzatuvlar – bu olimning umumiyligi qurolidir. Texnika rivojlanishi bilan tadqiqotchilar oddiy ko'z bilan ko'rolmaydigan narsalarning maxsus moslamalar yordamida bilib olmoqdalar. Fiziologiya va psixologiyadan ma'lumki, kuzatuvda barcha sezgi organlari qatnashsa, uning natijasi yuqori bo'ladi. Kuzatiayotgan ob'yeektni insonni ko'rish, hidlash, sezish orqali har tomonlama ko'radi.

Tadqiqot kuzatuvi ko'rinishidan oddiyga o'xshasa ham murakkabdir. U mukammal bo'lishi uchun bir necha bosqich va shartlardan iborat. Uning murakkabligi yana shunda ko'rindiki, kuzatuvchi maqsad qilib olgan tadqiqotini diqqat bilan har tomonlama o'rganish bilan birga sharoitni ham qo'shib o'rganishi kerak. Bu usulni ko'p olimlar ta'riflab berishgan. Jumladan, P.A.Gloriozov, V.I.Zagvyazinskiy, L.V.Zangol, E.I.Monoezonov, M.N.Skatkin, S.P.Sshapovalenko kabilar. Bu usulning ilmiy tushunchasi yuzaga kelgan: biror-bir pedagogic hodisa jarayonini kuzatish orqali aniq ma'lumotlar yordamida maqsadga erishish.

Faylasuf olimlar, sotsiologlar, iqtisodchilar, pedagoglar, psixologruhshunoslar uchun kuzatuv usuli, gnosologik quroq bo'lishi bilan birga uning umumiy tushunchasi ham uchraydi. Ba'zi mualliflar kuzatuv tushunchasini aniqlashda ham hayotiy, ham ilniy ma'nosini birlashtirishadi. Masalan falsafiy ensiklopedik lug'atda yozilishicha, kuzatuv oldinda (belgilangan) va aniq maqsadga yo'naltirilgan maqsadli faoliyatdir. Biroq bu yerda tushuncha ma'nosida kuzatuvning bir nechta ta'rifi ta'kidlangan: birinchidan, kuzatuv inson bajaradigan ish, ikkinchidan bu mehnat faoliyatining tarkibiy qismidir.

Pedagogika fanida uslub tushunchasiga qaytamiz. Tadqiqotchi talaba quyidagicha ta'rifni qo'llashi mumkin.

Pedagogik tadqiqotda kuzatuv - bu sezgi organlari orqali qabul qilingan va kelayotgan ma'lumotni birlamchi qayta ishlangan pedagogik holatlarni bilish usuli.

Kuzatuvning asosiy vazifasi: olimning kuzatuv ob'yekti bilan to'g'ridan-to'g'ri va qarama-qarshi bog'liqligi sharoitda o'rganilayotgan jarayon haqidagi ma'lumotlarni tanlab olish

Falsafa nuqtai-nazaridan qaraganda, kuzatuv uslubi bilishning avvalida joylashgan bo'lib, tom ma'noda anglash bilan bog'liq bo'lgan "jonli kuzatuv"dir. Kuzatuv uslubiga asos-dialektikadir. Unga tayangan holdagina biz pedagogik jarayonning murakkab pedagogik holatlarini, unig muhim tomonlarini ocha olamiz. Kuzatuv fanga ma'lum bo'lgan va isbotlangan holatlarga qat'iy o'zgarishlar kiritishi mumkin. Kuzatuv shunday yangi dalil kiritadiki, avvalgi izohni talab qiladi Tadqiqotchining gneseologik qurollangan bo'lishi muvaffaqiyatning metodologik sharti hisoblanadi. Bu ayniqsa o'quv-tarbiyaga kerak, chunki ilmiy bilish o'quv bilim doirasiga joylashgan. Pedagogik kuzatuvda dialektika asosiy mazmunni tashkil etadi, uning talablariish tashkil etishga bog'liqdir. Materialistik dialektikadan ognli va mohirona ravishda foydalanish aniq va tushunarli natija olishga olib keladi. O'quvchining aqliy rivojlanishiga foydali mehnatningta'sirini tadqiqot uchun olaylik. Tadqiqotchi uchun bu ta'sirning xarakterini bilish qaysi va qay miqdordagi kuzatuv ob'yektlari yordam beradi. Nazar doirasida sinaluvchi shaxslar (o'quvchining yoshi, pedagogik, psixologik, sotsial, demokratik, tibbiy-biologik ma'lumotlari) bo'lishi kerak. Ular o'rganayotgan fanlar, narsa mazmunini, bunga ishlab chiqarish va faoliyatga doir mavzular ham kiradi. O'quvchining ikkita bir-biriga bog'liq bo'lgan; pedagogik va iqtisodiy foydali mehnatning mazmuni, uslublari, vositalari va maxsuli bo'ishi kerak. Sinaluvchilarningishlab chiqarish faoliyatidagi intelektual siljishlarni o'lchaydigan "Apparat" uskuna ham zarur. Kuzatuv tadqiqoti uchun shunday ob'yektlar kerak. Shunisi aniqki, faqatgina materialistic dialektika asosidagina o'rganilayotgan pedagogic aloqalar ichiga kirish mumkin. Kuzatuvning mohiyati nimada? Bu savolga javob berish uchun

idrok etishga murojaat qilish kerak, chunki ilmiy kuzatishning psixologik xususiyati idrok etishda mujassam. Bu ibora mazmun jihatdan birdek emas. Jarayon –anglashdan natija idrok etishni ham bildiradi. Kuzatuv idrok etish jarayonini bildiradi. Aytish joizki kuzatuv va idrok etish sinonim ma'noda bo'lsa ham bir xil tushunchaga ega emas. Idrok etish – psixik jarayon: Kuzatuv – atrof-muhit hodisalari pedagogik jarayonni bilish usulidir. Kuzatuv mohiyati tadqiqotchi ongida o'rganilayotgan ob'yektning miqdoriy, sifatiy, tarkibiy belgilar, vector, dinamik holati va o'zgarishlari aks etishi va jamlanishidan iborat. Kuzatuvning o'ziga xos xususiyati uni ham tadqiqiy maqsadni yechishga qaratilgan mustaqil uslub holida, boshqa uslublarning tarkibiy qismi sifatida ishlatsa bo'ladi. Masalan pedagogik tajribani uning borishi va natijasini o'tkazib bo'lmaydi. Biror uslub tarkibiga qarab, kuzatuv ixtisoslashadi. Masalan, statistik kuzatuvda pedagogik jarayonning miqdoriy ma'lumotlari jamlanadi.

#### Pedagogikada tadqiqiy kuzatuv turlari

Pedagogikada tadqiqiy kuzatuv mohiyatini tushunish uchun uni guruhlarga bo'lib olish kerak. Tadqiqotchini o'rganilayotgan ob'yekt bilan bog'liqligiga qarab quyidagi turlarga bo'lish mumkin. Bevosita va bilvosita ochiq va yopiq vaqt va joyiga ko'ra uzlucksiz cheklangan, monografik va maxsus va hokazo.

Kuzatuv turlari harakatchan bo'lagni sabab aniq va to'la bir guruhga jamlab bo'lmaydi. Bevosita kuzatuv – tadqiqotchi va o'rganilayotgan ob'yekt o'rtasida to'g'ridan –to'g'ri munosabatlar hech bir o'tish o'zgarishlarsiz bo'ladi.

Tadqiqotchining uch xil o'rni ajraladi:

1. Tadqiqotchi – guvoh (betaraf)
2. Tadqiqotchi – pedagogik jarayonning rahbari
3. Tadqiqotchi – pedagogik jarayonda qatnashchi

Qaysi rolda ishtirok etishiga qarab kuzatuv dasturi tuziladi, dalillarni to'plash, yig'sh uslubi va texnikasi tanlanadi. Bevosita kuzatuv bilvosita kuzatuvni to'ldirishi va o'zgartirishlar kiritishi mumkin. U tadqiqotchi dasturi va topshirig'i bo'yicha ishlaydigan vakil shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Masalan Kuban Davlat Universiteti studentlarini 4 ta guruhga birlashtiramiz. Bir necha oy mobaynida ular o'qituvchisining dasturi asosida o'rta maktab bitiruvchilarini o'zini tutishini kuzatadilar, Bitiruvchilar hokimiyatga kelishiga joylashmoqchi bo'lishgan. Talaba aytilgan tajribani amalga oshirish uchun kichik o'quvchilar o'yinlarini 10-sinfagini o'quvchilar kuzatuvini yo'lga qo'ydi. Amaliyot dasturini mukammal o'rgangan yigit va qizlar dalillar yig'ndisini qayd etdilar. 1-3-sinflar tanaffusda darsdan so'ng uyda o'zlashtirishni jismoniy ko'rsatkichi do'stona kompaniyalarga mas'uligiga

ko'ra bolali yoki yakka bolali oiladanligi, kun vaqtin hafta kuniga va xonadonga qarab o'quvchilar o'yinda o'zini qanday tutishini kuzatdilar. O'yin qoidalariga rioya qilishi qoida bizilishlarga nisbatan chora ko'rishga ham e'tibor qaratishdi.

Mavzu: Bolalar erkin o'yinlarining tarbyaviy jihatlari.

Bu misolda tadqiqotchi bevosita olgan keyin o'zi olgan kuzatuv natijalari bilan solishtirish va ko'proq sinaluvchilarni jalb qilish maqsadida:

Bir mакtabda bir guruh ota-onalarni o'z bolalarini maktab kun tartibi o'zgarganda moslashishini kuzatishini iltimos qilishdi. Bevosita kuzatuvda muvaffaqiyatga erishish tadqiqot qatnashchilarini tyyorgarligini, aniq va mazmunan ma'lumot berilganligiga bog'liq. Bir ob'yeektni bir guruh bo'lib bir xil kuzatuv olib borish ishlatildi. Oxirida natijalar rahbarga uzatiladi. Masalan, pedagogik jarayonni kuzatuvchilardan biri dars davomida o'qituvchining harakatini kuzatadi. Boshqasi o'quvchilar harakatini, uchunchisi alohida bir o'quvchini harakatini jamladi. Tadqiqotchi topshirig'iga binoan o'quvchi o'z-o'zini kuzatishi ham qiziq bo'ladi. Lekin bunday manba to'g'ri ma'lumot bera oladimi?

Bunday holatda o'quvchi tadqiqot ob'yekti emas, ishtirokchisi sifatida namoyon bo'ladi. Umuman olganda o'z-o'zini kuzatish o'rинli degan savolga ha deya javob berish mumkin. Biroq bunday qat'iy qaror qabul qilish ham noo'rin bo'ladi. Bu ayrim holdagi kuzatuv desa bo'ladi. O'z-o'zini kuzatishda olingan natijalar ishonarli ko'rinsada, ular baribir sub'yekdir. Shu bilan birga bu orqali pedagogik holatini ayrim noma'lum tomonlari ochiladi. Masalan, yuqori sinf o'quvchilari tadqiqotchi iltimosiga ko'ra, shu vaqtin tuzlishini o'rgatish uchun fanlardan topshiriqlarni bajarish navbatini har bir topshiriqga ketadigan vaqtini uy vazifalari tartibini qayd etadilar. Ba'zi hollarda ularni mustaqil ishslash samaradorligini kuzatishganda o'quvchining uslubini maqsadga muvofiqligi aniqlanadi. Abatta, bu ma'lumotlar tekshiriladi, kuzatishning boshqa turlari bilan solishtirib, aniqlab kiritiladi. Psixilogik tomonidan mustaqil (o'z-o'zini) kuzatish inson ongi orqali psixomotor harakatlarini nazoratga olish degani. Faoliyat asab sistemasining turli bosqichlarida o'tishi mumkin. Ongli harakat (operatsiya) kechayotganda inson ongida faraz qilingan ma'no (mazmun) bilan birga "ongli nazoratdagi" ma'ni ham paydo bo'ladi. Bunda ikkala ma'no ham bir-biriga o'tishi mumkin. Shunga o'xshash narsa adabiyot o'qituvchisi insholarni tekshirganda bo'ladi. Ya'ni o'qituvchi avtor fikrlarini uning so'z bilan ifodalash shakliga ko'chiradi. Shunday qilib sinaluvchilar o'z-o'zini "mustaqil" kuzatuvini bo'lishini va maqsadga muvofiqligini inkor etib bo'lmaydi. Biroq olingan ma'lumotlar pedagog yoki psixolog uchun faqt yordamchi vazifasida keladi.

## Kuzatuv tadqiqot usuli

O’z-o’zini kuzatuvni tanlagan tadqiqotchilar uchun quyidagi qoidalar joiz:

a) O’quv-tarbiya jarayonini tadqiqot qilishda o’z-o’zin kuzatuv o’quvchilarga va ayrim hollarda o’smirlarga tegishli.

b) Ishga yollanga o’quvchilar mustaqil kuzatuv uslubi va natijalarni qayd etish haqida yetarlicha tavsiyalar olishi kerak.

c) O’quvchilar o’z-o’zini (mustaqil) kuzatuv ma’lumotlarini umumlashtirishda tadqiqotchi ularning individual xususiyati va yoshini, hamda ularning o’z fikrlarini e’tiborga olish kerak.

Biz ko’rib chiqqan bevosita kuzatuvning turlarida tadqiqotchi pedagogik holatlarni dastur asosida harakatlangan boshqalarning idrik etishiga tayanadi.

Biror vosita yordamidagi kuzatuv bilan birgalikda o’quv va tarbiya natijalarining moddiy guvohi bo’lib xizmat qiladigan sinovdagilarning harakati faoliyati mahsuli yordamidagi kuzatuv ham ishlataladi. Tadqiqotchi kuzatgan pedagogik jarayonning tabiiyligi kuzatuv natijalarining qimmatli va ob’yekтивligiga ta’sir qiladi. Faqat sinaluvchilar harkati va sharoitini haqiqiyligi. Tadqiqotchi uchun boshqalarga o’qituvchi va o’quvchilarning sahnalashtirgani yoki tayyorlangani kerak emas. Ochiq kuzatuv shundayki, Bunda o’qituvchi va o’quvchilar kuzatayotganlarni ongli ravishda bilib turadilar. Tabiiyki o’zgalar oldida pedagogik holat o’zgaradi. Oddiy holatdagidan farqlaydi. Chunki inson hissiyoti va o’zini tutishi yakkalik holati va kuzatuvdagisi turlicha bo’ladi. Ayniqsa o’z mehnatini boshqalar qanday baholashiga befarq bo’lmaganlar uchun. Boshqalar tomonidan kuzatuvda sharoitni, normallashtirish uchun moslashish bosqichi muhim. Biroq moslashish bolalar fe’l-atvorida sun’iylik bo’lmasligini kafolatlashadi. Ular mehmonlar huzurida ko’proq o’zlarini bir xilda tutadilar. O’quvchilar o’zgalarning darsda ishtirokiga munosabatlarini anketa qilishganda, bu holga befarqlar bo’lmasligi aniqlandi. Bu esa shuni ko’rsatadiki, aniq natijalar olish uchun ochiq kuzatuv yetarli emas. Yopiq kuzatuv-jarayonni haqiqiy holatini beradi. Kuzatuvning bu turi ziddiyatli, lekin qimmatlidir. Ayniqsa pedagog o’zini tutishini ko’rinmay nazorat qilish ahloqdan emasdek ko’rinadi. Biroq o’qituvchi doimo bolalar kuzatuvida bo’ladilar. Nazorat ostida bo’lish o’qituvchi uchun oddiy holder. Odamlarni yopiq kuzatish television o’rnatmalar yordamida bo’lib ishlab chiqarishda, tibbiyot muassasalarida, ko’chalarda transport harkatini kuzatishda, universamlarning savdo zallarida keng qo’llaniladi. Germaniya gazetalarida yozilishicha, bir tomoni oynali devor bo’lgan sinf xonalari xalaqitsiz kuzatish imkonini beradi. Umuman bunda taassufni yengib o’tish kerak, chunki tashqi tomonidan qaraganda ilmiy maqsadda kuzatuv bilan oddiy hayotdagi bildirmasdan

kuzatish va qulqoq tutish o'xshashdir. Ikkisidan biri: yoki biz pedagogik jarayonning ichiga kiramiz yoki yashirincha qilinayotgan kuzatuvdan uyalsak, haqiqiy ahvolni ko'ra olmaymiz. Yopiq nazorat uchun texnika vositalari bo'limganda tabiiy sharoitda foydalansa bo'ladi, ya'ni qulay o'rinni tanlab olib:

Nazoratdagilarga bildirmagan holatda ko'z bilan quyidagicha kuzatish mumkin.

- sport maydonida jismoniy tarbiya darslarini
- maktab hovlisida matematikadan amaliy ishlarni
- film, teleko'rsatuv, qiziqarli uchrashuvlardagi o'quvchilarningta'sirlanishi.

Ayrim hollarda tadqiqotchilar o'zlarining birdaiga paydo bo'lismaydi ta'siridan foydalanishi, lekin bu o'quvchiga salbiy hissiyotlarni keltiradi.Tadqiqotchining odobi bildirmaslikning qay me'yorda bo'lishini har holda aytib turadi.

Ochiq va yopiq kuzatuv yordamida olinganni taqqoslaganda bir turdag'i kuzatuvdan ko'ra ularda voqealar holatini to'laroq ko'rsatadi, ochib beradi.

Uzluksiz kuzatuv –pedagogik jarayonni boshidan oxirigacha kuzatish kerakligida qo'llaniladi. Kuzatuv vaqtida sinaluvchilarning faoliyati davomiyligi va jismonanumkin bo'lgan vaqtida o'tayotganiga bog'liq. Masalan dars tuzilishini muvofiqligini o'rganish uchun kuzatuv 45 minut oralig'ida o'tadi. Bunday holni boshqa darslarda kuzatish boshqa ob'yektni qayta ifodalash bo'ladi. Uzluksiz kuzatuvga yana bir misol bitta yoki bir nechta o'quvchining o'yinda o'zini tutishi bo'la oladi. O'yin aniq chegaraga,ya'ni boshi va oxiriga ega.Lekin boshi va oxiri yo'q bolgan jarayon bo'lishi, uni uzuq-uzuq bo'lishi uzluksiz kuzatuv olib borishga imon bermaydi. Bunday hollarda diskret (uzuq-uzuq) kuzatuvga murojaat qilinadi. Diskret kuzatuv nazoratdagi jarayon birdek bo'limgandaginaqo'llanmaydi. Pedagogik jarayon yopiq bo'lganda, tadqiqotchiga faqat ayrim hollari ko'ringanda masalan, o'quvchilarni bir sharoitda o'zini tutishida qo'llansa foydali bo'ladi. Vaziyatni poylab yoki ataylab tashkil etilganda, tadqiqotchi nazoratdagi jarayon "kadr"larni kuzatadi. Monografik (bir mavzudagi) kuzatuv ko'p miqdordagi bir-biriga turlicha bog'liq bo'lgan hodisalarni o'z ichiga olidi. Misol uchun N.K.Krupskaya nomidagi Moskva viloyati pedagogic institutining pedagogika kafedrasi o'qituvchilarining birinchi yil ishlayotganlarning (stajyor) kasbiy tayyorgarligini kuzatishini olsak. Oliygohdagi tahsilning sifatini keyingi qoldirilgan nazorat bilan kuzatish uchun ular bitirgan talabalar ish joyiga bordilar va talabalarning pedagogic kasbiy mahorati jamlamasini kuzatdilar. Yosh o'qituvchining ma'lum bir dars vaziyatida, sinfdan tashqari tadbirdarda, ota-onalar

yig'lishlarida, maktab rahbarlari va jamoasi bilan muloqotdagi uslubi texnikasi, odati, madaniyati, ilmiyligi, bilimdonligi, mustaqilligi kuzatuvga olindi. Mazkur holatda kuzatuv ob'yekti ham o'qituvchilar, ham o'quv- tarbiya jarayonining ikkinchi tomoni bo'lmish o'quvchilar bo'ldi.

### ***Mutaxasislikka oid kuzatuv***

Ilmiy izlanishdagi maqsad qilib olingen pedagogik holatni butun bir pedagogik jarayonda ajratib olish kerak bo'lganda qo'llaniladi.Tadqiqiy ishlarda ba'zan aniq bir pedagogik hodisani alohida ko'rib chiqishga tobeligini o'rganishga o'tiladi. Masalan, tarbiyaga qarshilik ko'rsatish muammosini o'rganilganda kuzatuv orqali tarbiyachi talablariga ochiq va yopiq qarshi turish holatlarini qayd etish mumkin. Kuzatuv –izlanish ko'rib o'tilgan (qidirish) uslubning o'ziga xos bir turidir. Bu usulni ko'proqdiagnostik tajriba bodqichida, tadqiqot mavzusiga ayrim o'zgarishlar kirituvchi dalillarni qidirishda qo'llaniladi.Tadqiqotchi kuzatuvni shunday o'rnatadiki,pedagogic holatni keng doirda o'rnatib, ular orasidan eng boy va qiziqarli dalillarni qidirib topadi. Yuqori sinf o'quvchilarining o'z-o'zini tanqid qilish qachon tug'iladi, nima bilan harakatga keladi? Qanday hollarda u albatta namoyon bo'ladi va qanday ko'rinishda bo'ladi. Bu savollarga javobni kuztuv- qidirish beradi. Kuzatuv davrida davrida nazoratchi voqe-hodisalar, kelishmovchiliklarning qatnashchisi, guvohi rahbari bo'lishi mumkin. Masalan, sinf faollari bilan qolgan o'quvchilar birdamligini nima buzishini (keltirishini) kuzatganda sinfdagi vakillar bilan jamoaning qolgan qismi o'rtasidagi munosabatni tuli vaziyatlarda: o'qish, ish, o'yin, rasmiy, odatiy, noodatiy, oddiy va romantic, kattalar huzurida va ular yo'qligidagi holatlarda ko'rib chiqishga harakat qilinadi. Bunday kuzatuv ko'p vaqt va katta tahliliy ishni talab qiladi.Kuzatuv-izlanish kutilmagan natijalarni beradi va bu qiziqarlidir. Bu kuzatuv yordamida tadqiqotchi ko'p jarayonlar ma'lumoti baln boyiydi, o'quv-tarbiya jarayonining kompleks (umumiy) xarakteri (tavsifi) ochiladi. Ayrim hollarda tadqiqotchi muvaffaqiyatsizlikka erishadi, qisqa vaqt ichida olingen natijalar umidsizlantiradi. Kuzatuv-izlanish kutilmagan natijalarga to'la va boshqa uslublar bilan bog'liq holda olib borishni talab etadi. Kuzatuning asosiy muammolardan, uni takomillashtirish usuli bo'lib nafaqat pedagogik jarayonni kuzatishga mo'ljallangan turlarini ishlab chiqishdir. O'quvchi, talabalarni ta'lim-tarbiyasini uzoqdagi (uzoqlashtirilgan) natijalarni kuzatuvga qo'yish istiqbollidir. Bunday kuzatuv ma'lumotlari pedagogika fani va amaliyotini o'qituvchi va tarbiyachilar mehnatini eng so'nggi natijalarining sifati haqidagi ma'lumot bilan ta'minlaydi. Biz bir necha turdagilmiy pedagogikada keng tarqalgan kuzatuvlarni ko'rib chiqdik. Albatta aytilganlar bilan cheklanib qolmaslik kerak. Kuzatuvning har bir turi zamonaviylashtirilishi mumkin. O'rganilayotgan ob'yektga, uning tabiatiga

paydo bo'lish shartlariga bog'liq. Kuzatuv metodi cheklanganligini aytish joiz. U jarayonning faqat tashqi ko'rinishini tekshiradi. Sezgi organlarimiz qabul qiladigan narsalarnigina kuzata olamiz. O'qituvchining tashqi harakatlarini kuzatih mumkin, unga javoban yoki mustaqil bo'lgan o'quvchi harakatlarini pedagogik jarayonning o'zaro ta'siri sistemasini qatnashchilar joylashtirishini kuzatish mumkin. Biroq kuztuv yordamida harakatning sababi, hissiy holatlarini, intelektual va jismoniy zo'riqishlarini namoyon etib bo'lmaydi. Biroq tadqiqiy kuzatuv imkoniyatlari texnik (rivojlanish) ayniqlsa, kuzatuv asboblari kengaymoqda.

Ta'llim-tarbiyada oddiy ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan o'quvchi harakati o'zini tutishi, kuzatuv apparatlari yordamida yangi, yopiq ma'lumotlar olinmoqda. Kuzatuvni amalga oshirish va uning natijalaridan (ilmiy) masalalarni yechishd foydalanish. Kuzatuv uslubini qo'llashda umumiy qoidalarga murojaat qilamiz. Kuzatish metodikasi, uning tuzilishi, turlari, yo'naliishlari, texnikasi ob'yekтив va sub'yekтив holatlar, asosan o'rganilayotgan ob'yektning o'iga xos xususiyatalari, tadqiqotchi tajribasi uning qurollanganligi va ishlash sharoitlari bilan belgilanadi. Barcha jihatlar inobatga olinganda, kuzatuvning bo'lishi mumkin bo'lgan va mumkin bo'lмаган imkoniyatlari ishlab chiqilganda, uning turlari tanlab olingandan so'ng kuzatuv rejasi tuziladi. Rejada ob'yekt, maqsad, vaqt,davomiyligi, kutilayotgan natija ko'rib chiqiladi. Kuzatuv jadvali ishlab chiqiladi. U savollardan iborat bo'lib, javobni kuzatuv yordamida olinadi. Msalan, mактабда mehnat bayramini tashkillashtirishni kuzatish uchun bir qator kuzatuv ob'yektlari belgilanadi. Maktab binosini bezash, bolalar ishi ko'rgazmasi, bayramda o'quvchilar ishtiroki (kim mehmonlarni kutib oladi, kim ko'rgazmaga rahbarlik qiladi, kim ko'rgazmada tushuntirish ishlarini olib boradi) mehnat bayramini mazmuni. Kuzatilayotgan narsani qayd etish texnikasi o'ylb chiqiladi. Agar yozib olinsa, uning turi belgilanadi. Bu bayonnoma yozuvi bo'lishi mumkin, unda kuzatilayotgan barcha narsalar qayd etiladi; voqealarni ketma-ket tanlab qayd etish, agar kuzatuv diskret bo'lsa, kundalik ko'rinishidagi yozuv, agar matritsa holidagi yozuv ishlatsa bo'ladi, bunda oldindan tayyorlangan jadvalga ma'lum sistemada dalillar, harakatlar, pedagogic jarayon sharoiti haqida ma'lumolar va hokazolar kiritiladi. Kuzatuv materiallarini matn-yozuv formasida qayd etishdan tashqari miqdoriy joy vaqt ko'rsatgichli formalar ham mavjud. Pedagogik jarayonni kuzatishda ishlatiladigan texnik vositalarni ishlatish usullarini ko'rib chiqamiz. Pedagogik jarayonni haqiqiy ko'rinishini videoyozuv, foto va kinoregistratsiya beradi. Biroq kinosyomka maxsus tayyorgarlikni talab qiladi, ayniqlsa talaba guruhsiz rahbarsiz o'zi yakka bajaradi. Darsni yozib olish o'quv jarayonini ovozli manzarasini beradi va ko'z orqali kuzatuvni to'ldirib boradi. Uning afzalligi yozuvni bir necha marta katta ko'rishga va tahlil qilishga imkon beradi. Fonogrammaning kamchiligi ko'p pauza (to'xtashlar) va noo'rin ovozlar


(bor taqillashi, qadam taqillashi) bo'lishi. Shuning uchun bo'shliqlarni yo'qotib montaj qilinadi. Yopiq yozuv juda qimmatlidir. Pedagogik odobdan chetga chiqmasdan tadqiqotchi apparatni ma'lum vaqtga sozlaydi, pedagogik jarayonni magnitafon orqali uzoqdan boshqaradi. Pedagogik tadqiqotlardan boshqa usullar kabi kuzatuv ham cheklangan ma'lumotlarni beradi. Shuning uchun uning samaradorligi, tadqiqotchining boshqa uslublar bilan aralashtirib ishlashiga bog'liq.

**Suhbat – savol va javob shaklidagi dialogik ta’lim metodi hisoblanadi.**

Suhbat metodi fanga qadimdan ma'lum, hatto undan o'z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan. Suhbat ta'lim jarayonida ko'p funksiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiysi o'quvchida faollikni yuzaga keltiradi. Suhbat o'qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi.

Suhbat faoliyatini endigina boshlagan o‘qituvchi uchun murakkab ta’lim metodi hisoblanadi, binobarin, savollarni tayyorlash, ularning ketma-ketligini ta’minlash ko‘p vaqt talab etadi, uni tashkil etishda esa barcha o‘quvchilarning diqqatini jalb etish talab qilinadi. O‘qituvchi oddiy savollar berishi, o‘quvchilarga ular yuzasidan batafsil o‘ylash uchun vaqt ajratishi, o‘quvchilarning javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, zarur o‘rinlarda ularni sharhlashi lozim. Shu bois suhbatda bilish deduktiv yoki induktiv yo‘l bilan amalga oshadi. Deduktiv suhbat o‘quvchilarga oldindan ma’lum bo‘lgan qoidalar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, o‘quvchilar tahlil yordamida xususiy xulosalarga keladi. Suhbatning induktiv shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlil asosida umumiylashtirish xulosaga kelinadi.

Suhbat ko‘proq o’quvchilarni yangi bilimlar bilan tanishtirish, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash, nazoratni tashkil etish hamda o’zlashtirilgan bilimlarni tashxislashda ijobiy natijalarni beradi. Mazmuniga ko’ra suhbat turli ko’rinishlarda tashkil etiladi. Ya’ni :



## **1-rasm. Mazmuniga ko'ra suhbat turlari**


**1. Kirish suhbat** o‘quv ishlarining boshida tashkil etiladi. Uni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad hal etilishi zarur bo‘lgan ishlar mohiyatining o‘quvchilar tomonidan anglab yetilganligini tekshirib ko‘rishdan iborat. Bunday suhbatlar o‘quvchilarning o‘quv salohiyatini aniqlash, loyihalashtirish ishlarini tashkil etish hamda yangi bilimlarni o‘zlashtirishga kirishish oldidan uyushtiriladi.

**2. Yakuniy suhbat** o‘quvchilar tomonidan egallangan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

**3. Qisqa bayonli suhbat** – o‘quvchilarning boshlang‘ich bilim darajasi hamda ularning yangi o‘quv metodikasini o‘zlashtirishga tayyorgarligini aniqlash uchun tajribali o‘qituvchilar tomonidan dars avvalida yohud o‘rganilgan materialni mustahkamlash uchun dars so’ngida qo‘llaniladi.

**4. Evristik suhbat** yangi bilimlarni muammoli tarzda egallahsga yo‘naltiriladi. Bunda savollar shunday ketma-ketlikda berilishi zarurki, natijada ularga “ha” yoki “yo‘q” tarzidagi javoblarni olish emas, aksincha, o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, ularda faollikning yuzaga kelishini ta’minlash, ularni tahlil qilishga undash, dalillarni ilgari surishga erishish imkoniyati yaratilsin.

Suhbatlar, shuninigdek, unga shaxslarning jalb etilishiga ko‘ra ham muayyan turlarga bo‘linadi. Ular :



## 2-rasm. Shaxslarning jalb etilishiga ko‘ra suhbatlarning turlari

**Tushuntirish** o‘quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo‘llaniladi. Undan odatda nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o‘rganishda foydalilaniladi. Tushuntirish jarayonida o‘quv materialining bir qadar qiyin unsurlari ko‘zga tashlanadi va shu asosda materialning mohiyati ochib beriladi.

*Ma’ruza – yirik hajmdagi o‘quv materialini og‘zaki bayon qilish metodi sanalib, u qat’iy mantiqiy ketma-ketlik, uzatilayotgan axborotlarning ko‘pligi, bilimlar bayonining tizimliliği kabi o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi*

Ilmiy ma’ruza mazmunini murakab tizimlar, hodisalar, ob’yektlar, jarayonlar, ularning sababli-oqibatli bog’lanishlari, qonun va qoidalari tashkil etadi. Shu bois ma’ruza maktab sharoitida yuqori sinflardagina qo’llaniladi. Chunki u butun dars jarayonini qamrab olishi mumkin. Ma’ruza metodi tushuntirish va suhbatning asta-sekin kengayib borishidan vujudga keladi va bir vaqida o’quvchilarni qisqacha yozib olish (konspektlash)ga o’rgata boradi.

Anketa metodi (fransuzcha – tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to’plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko’p hollarda, yozma ravishda olinadi. O’rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo’ladi:

- 1)     ochiq turdagи savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);
- 2)     yopiq turdagи savollar (respondentlar “ha”, “yo’q”, “qisman” yoki “ijobiy”, “qoniqarli”, “salbiy” va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

Anketa metodini qo’llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

- 1)     anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;
- 2)     anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo’lmasligi kerak;
- 3)     anketa savollari o’quvchilarning dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;
- 4)     anketa savollari respondentlar tomonidan to’la javoblar berilishini ta’minlovchi vaqtini kafolatlay olishi zarur;
- 5)     anketa o’quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylantirib yuborilmasligi zarur;
- 6)     anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta’minlaydi. Intervyu respondent e’tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o’tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta’lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta’lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma’lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy

dasturi» talablarining ta’lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o’rganish, bu boradagi faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo’l qo’yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg’or tajribalarni ommalashtirish va ta’lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo’llaniladi.

Ta’lim muassasasi faoliyatini mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: O’quv mashg’ulotlarining jadvali, o’quv dasturi, guruh (yoki sinf) jurnallari, o’quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig’ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash qarorlari, ta’lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlari rejasi, o’quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta’lim muassasasi jihozlari (o’quv partalari, stol stillar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar.

Mazkur metod muayyan yo’nalishlarda o’quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, o’quvchilarda hosil bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalar hajmi, ilg’or pedagogik tajribalar mazmunini o’rganishda muhim ahamiyatga ega.

Test metodi. Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo’yicha o’zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko’nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o’z mohiyatiga ko’ra quyidagi savollardan iborat:

2) ochiq turdagи savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdagи savollar (respondentlar “ha”, “yo’q”, “qisman” yoki “ijobiy”, “qoniqarli”, “salbiy” va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

3) to’g’ri javob variantlari qayd etilgan savollar (respondentlar o’z yondashuvlariga ko’ra to’g’ri deb topgan javob variantini belgilaydilar).

Test metodini qo’llashda aniqlanishi zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga e’tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo’yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejalishi bilan tavsiflanadi. Biroq, metod ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlardan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o’z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyaga ega emas.

Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo’llashdan ko’zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo’nalishlarda o’rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat

bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Bolalar ijodini o'rghanish metodi. Mazkur metod o'quvchilarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilarning ijodiy ishlari – kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Bolalar ijodini o'rghanishning quyidagi shakllari mavjud:

- 1) fan olimpiadalari;
- 2) turli mavzulardagi tanlovlari;
- 3) mакtab ko'rgazmalari;
- 4) festivallar;
- 5) musobaqalar.

Pedagogik tajriba (eksperiment – lotincha «sinab ko'rish», «tajriba qilib ko'rish») metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o'rghanish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalangan tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlash hamda unga baho bera olishi zarur. Pedagogik tajriba tashkil etilish sharoitiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:



3- chizma. Pedagogik tajriba turlari

Pedagogik tajriba ham bir qator shartlarga amal qilgan holda tashkil etiladi. Xususan:

- 1) tajribaning maqbul loyiha (dastur) asosida uyushtirilishi;
- 2) tadqiqot ilmiy farazining puxta asoslanishi;


- 3) tadqiqot ob'ektlari va usullarining to'g'ri tanlanishi;
  - 4) tajriba o'tkazilish vaqtini hamda davomiyligini aniqlanishi;
  - 5) zarur pedagogik shart-sharoitlar (asbob-uskuna, jihozlar, vositalar)ning yaratilganligi;
  - 6) tajriba ma'lumotlarini umumlashtirish, tahlil qilish va natijalarni qayta ishslash

Pedagogik tajriba yakunida olingan natijalarga asoslanib umumiy xulosaga kelinadi va ilmiy-metodik taysivalar ishlab chiqiladi.

Matematik-statistik metod tajriba-sinov ishlari, shuningdek, umumiyl holda tadqiqotning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi, muammo holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar maxsus matematik formulalar yordamida qayta tahlil etiladi. Yakuniy qiymat tadqiqot samarasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ayni vaqtda, pedagogik yo'nalishda, tadqiqotlar olib borishda St'yudent, Kivirlyag, Rokich, V.P.Bespalko hamda V.V.Grechixin metodlaridan keng foydalanjilmoqda.

Pedagogika fani o‘z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o‘rganadi.

Demak, zamonaviy pedagogikadaga ilmiy-tadqiqot metodlari pedagogik jarayon qatnashchilarini har tomonlama chuqur o'rganishga, pedagogik muammolar yechimini topishga xizmat qiladi.



#### **4 - rasm. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari**

---

## 4-MODUL

### PEDAGOGIK ILMIY-TADQIQOT ISHLARINI TASHKIL ETISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH.

---

#### **4.1.MAVZU.PEDAGOGIK ILMIY-TADQIQOT JARAYONINI MODELLASHTIRISH.**

REJA:

1. Modellashtirish jarayonini tashkil etish.
2. Modellarning turlari.
3. Modellashtirish –yaxlit tizim sifatida.

**Tayanch so’zlar:** *modellashtirish, model, grafik modellash, matematik model.*

##### **1. Modellashtirish jarayonini tashkil etish**

Tadqiqot ob’ektini tanlash bevosita muammoning qo’yilishi (maqsadi) bilan uzviy bog’liq. Ilmiy tadqiqotlarning uzlusizligi va vaqt bo‘yicha chegaralanganligi uchun, tadqiqot ob’ekti ko’pchilik hollarda, tadqiqotchiga fanning ushbu tarmog’ini rivojlanishining o’tmishi bo‘yicha beriladi. Tadqiqotning aniq bir muddatda va mos chegaralarida bajarilishi zarurligi hech kimga sir emas, chunki tadqiqot ob’ekti muammo qo’yilishiga qarab vaqt nuqtai nazardan ham, ko’rsatkichlar fazosi nuqtai nazardan chegaralanadi, ya’ni ko’rsatkichlarning aniqlanish va o’zgarish sohalari belgilab olinadi.

Modelni tanlash ham tadqiqot ob’ektiga mos holda olib boriladi. Bunda og’zaki, ya’ni so’zlar (fikrlar) orqali ifodalangan **modellarga** asoslangan fanlar mavjud bo‘lsada, tadqiqot ob’ektini, tabiiy tillarning so‘zлари orqali ifodalovchi bu model turli ilmiy-texnik tadqiqotlarda faqat boshlang’ich bosqichlarida yordamchi vosita sifatida foydalilanadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda esa bu model turining ahamiyati ancha yuqoriq bo’ladi, chunki bularda soniy ma’lumotlardan tashqari sifatiy ma’lumotlar o’rni ko’proq ahamiyat kasb etadi. Shunga o’xshash chegarali shartlar **grafik modellash** jarayoniga ham tegishli. Bular ayniqsa, ma’lum ko’rinishdagi va o’lchamdagи rasmlar, sxemalar, shakllar, grafiklar va ularning turli mashtablardagi ko’rinishlarini tayyorlashda yaqqol seziladi. Ammo, ba’zi bir tadqiqot sohalarida analitik modellarga yaqinlashtirilgan grafik modellarni yaratish mumkin. Masalan, geometriya fanidagi turli qonuniy egri chiziqlar va sirtlar yoki modelni muntazam ko’pyoqlar yoki graflar nazariyasi va h.k.

**Matematik model.** Buning ta’rifi mazkur qo’llanmaning 6.1-qismida beriladi. Bu turdag'i model ilmiy-texnik tadqiqotlar yechimlarini topishda muhim rol o'ynaydi.

**Fizikaviy model**-ushbu ko'rinishdagi modellar ashyoviy ko'rinishda bo'ladi va ular ma'lum qonuniyat (mezon, qoida va shu kabilar) asosidagi vositalar majmuasidan iborat bo'ladi, ya'ni u ma'lum darajada (muammo maqsadi va echimini qanoatlantiradigan darajada)gi qurilma yoki qurilmalar majmuasidan iborat bo'ladi. Ular asosan quyidagi holatlarda bo'ladi: »ob'ekt bilan tabiatan bir bo'lgan kichraytirilgan (k o'lchamli) yoki ixchamlashtirilgan masshtabdagi model;

-boshqa tabiatga ega bo'lgan model dastgohning laboratoriya maketi, o'lchov – zanjirli mexanik qurilma bilan almashtirish maketi;

- mashina yoki mexanizmning harakatdaga kichik o'lchamli (laboratoriya uchun) maketi;
- jarayon va hodisalar faoliyati kechishini ifodalovchi kompyuterli maketlar va shu kabilar.

Deyarli har qanday matematik (analitik) yoki fizikaviy kompyuterlar yordamida raqamli shaklda (dasturlar asosida) amalga oshirish mumkin. Bunda matematik model yoki kompyuterda modellashtirish hosil bo'ladi.

Modellash har doim boshqa ilmiy va maxsus usullar bilan birga qo'llaniladi. Avvalo, modellash eksperiment bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli ham jarayon yoki hodisaning modeli yaratilib, keyin modeldan maxsus algoritm yordamida yechim olinadi-da, o'sha yechimlar tadqiqot ob'ekti, muammo maqsad va vazifalariga to'g'ri kelishi tekshiriladi. Bunda modelning manbaga nisbatan adekvatligi, uning muammo yechimi bilan adaptatsiyalashishi, muammo yechimlarining model yechimi bilan identifikatsiyalanuvi va h.k. model bilan manbadagi o'xshashlik mezonlari tekshiriladi. Demak, biror hodisani uning modelida o'rganish eksperimentning alohida turi, deb aytish mumkin. Modelda o'rganish yordamida mumkin bo'lмаган holatlarini ham eksperimental o'rganish imkonini beradi. Matematik model faqat ob'ektning o'zini emas, balki ular amal qiladigan qoidalaringin ma'lum majmuini tavsiflaydigan aksiomalar tizimini ham qamrab oladi. Qoidalar majmui berilgan ob'ekt ustidan amalga oshirish mumkin bo'lgan amallarni belgilaydi. Dalillar yig'ilishi bilan model asta-sekin matematik nazariyaga aylanadi, bu nazariyaning o'zi axborotning yangi manbai bo'lib xizmat qila boshlaydi, yangi fenomenlarning mavjudligini aytib beradi, u yoki bu jarayonlarni chuqurroq o'rganishni talab etadi, yangi texnikani yaratish va rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlaydi. Xuddi shu formalashtirilgan modellar texnika taraqqiyotining biriga aylanadi. Hayotda uchraydigan barcha masalalarning matematik modelini tasvirlash ancha murakkab ish hisoblanadi. Chunki, ular turlituman bo'lib, ishlab chiqarishni boshqarish, tabiat hodisalarining o'rganish,

maishiy xizmat ko'rsatish, inshootlarni loyihalashtirish, matnlarni tarjima qilish, mahsulot yetishtirishni rejallashtirish hamda ko'proq foyda olish, dars jadvalini tuzish uchun ularga mos matematik modellar qurish kerak. Demak, matematik modellashtirish masalasini faqat hisoblash texnikasi bo'yicha mutaxassislar hamda matematiklar hal etmasdan, unda turli soha mutaxassislari hamda dasturchilar birgalikda faoliyat ko'rsatishlari kerak.

Matematik model o'rganilayotgan jarayonga aynan mos kelishini test, tajriba yoki boshqa usullar yordamida amaliyotda tekshirilib ko'rildi. Bu esa moslik darajasini belgilaydi va zarur bo'lsa modelni yanada aniqlashtirish imkonini beradi.

***Mavzu bo'yicha muammoli savollar va topshiriqlar:***

1. Model yordamida qanday jarayonlar tasvirlanadi?
2. Qachon model yordamida eksperiment o'tkazish amalga oshiriladi?
3. Modellashtirishda hisoblash texnikasi vositalari va dasturchilar ishtiropi shartmi, agar shart bo'lsa aniq misollar keltiring.
4. Formallashtirilgan modellardan qanday jarayonlarni boshqarishda foydalaniladi?

***Tadqiqotchiga mavzu materiallardan ijodiy amaliyotda foydalanishga oid tavsiyalar:***

- ilmiy tadqiqot ishini olib borishda modellash tadqiqot usulidan foydalanish tadqiqot ob'ekti va uning tashkiliy -tuzilmaviy ko'rinishini ifodalash tili asosida ifodalananishiga imkoniyat yaratadi va unday jarayonni boshqarishni kafolatlaydi;
- modellash yordamida kuzatish va ko'rish hamda amalda bajarish mumkin bo'limgan holatlar ustida eksperiment o'tkazishni amalga oshirish mumkin. Ta'lim jarayonida modellashning imkoniyatlaridan samarali foydalanilsa ijobiy pedagogik samaralarga erishiladi.

Hayotda uchraydigan barcha masalalarning matematik modelini tasvirlash ancha murakkab ish hisoblanadi. Chunki, ular turli-tuman bo'lib, ishlab chiqarishni boshqarish, tabiat hodisalarining o'rganish, maishiy xshmat ko'rsatish, inshootlarni loyihalashtirish, matnlarni tarjima qilish, mahsulot yetishtirishni rejallashtirish hamda ko'proq foyda olish, dars jadvalini tuzish uchun ularga mos matematik modellar qurish kerak. Demak, matematik modellashtirish masalasini faqat hisoblash texnikasi bo'yicha mutaxassislar hamda matematiklar hal etmasdan, unda turli soha mutaxassislari hamda dasturchilar birgalikda faoliyat ko'rsatishlari kerak.

Matematik model o'rganilayotgan jarayonga aynan mos kelishini test, tajriba yoki boshqa usullar yordamida amaliyotda tekshirilib ko'rildi. Bu esa moslik

darajasini belgilaydi va zarur bo'lsa modelni yanada aniqlashtirish imkonini beradi.

### ***Mavzuni o'zlashtirishni taminlashga oid savollar:***

- Modellashda eksperimentdan foydalansa bo'ladimi? « modellashtirish matematik nazariya bo'la oladi?
- modellashtirishda moslik tamoyiliga amal qilish shartmi? Mavzu bo'yicha mustahkam esda saqlab qolishga oid ma'lumotlar:
- matematik model faqat obektning o'zini emas, balki ular amal qiladigan qoidalarning ma'lum majmuani tavsiflaydigan aksiomalar tizimini ham qamrab oladi;
- matematik modelning o'rganilayotgan jarayonga aynan mos kelishini test, tajriba yoki boshqa usullar yordamida amaliyotda, geometrik o'xshashlikdan samaradorlikni aniqlashda tajriba -sinov ishlarida foydalanish mumkinmi?
  - o'xshashlik mezoni bilan o'xshashlik koeffisenti orasida qanday farq bor?

### ***Tadqiqotchiga mavzu materiallaridan ijodiy faoliyatda foydalanishga tavsiyalar:***

- ijodiy faoliyatda o'xshashlik tadqiqot metodidan foydalanishda uning quyidagi xossalari e'tibor berish lozim bo'ladi:
  - mos figuralarga tegishli to'g'ri chiziqlar orasidagi burchaklar o'zaro teng;
  - o'xshashikdagi almashtirishlar to'plami guruppani tashkil qiladi;
  - yopiq o'xshash figuralar yuzlarining nisbati ularning o'xshashlik koeffisentlarining kvadratiga, hajmlarining nisbati esa uning kubiga teng.

Agar o'rganilayotgan hodisalar (jarayon va tizimlar)da barcha mezonlar emas, balki ularning ba'zilari o'rinni bo'lsa, bunday o'xshashlik noto'liq yoki qisman (ayrim elementlari, sohalari, yo'naliishlari, qismlari bo'yicha) o'xshashlik deyiladi.

Bunday o'xshashliklar amaliy faoliyatda ko'p uchraydi va tadqiqot paytida ular bo'yicha kerakli joriy xulosa chiqariladi hamda tadqiqot davomidagi joriy nazorat amalga oshiriladi. Odatda bunday hollardagi joriy nazorat taqqoslashlar va umumlashtirishlar orqali amalga oshiriladi. Masalan, pedagogik tadqiqotlarda tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda ishchi gipoteza bilan **tajriba sinov ishidagi** joriy va oraliq natijalar solishtirilib boriladi.

Tengligi saqlanmaydigan o'xshashlik mezonlarining o'rganilayotgan jarayonga ko'rsatadigan ta'siri bo'lmasada yoki ikkinchi darajali bo'lsada, ular yordamida tadqiqot strategiyasini belgilab olish imkonini beradi. O'xshashlik mezonini ifodalovchi o'lchamli ko'rsatkichlar (parametrlar) o'xshash jarayonlar (tizimlar, figuralar, hodisalar va h.k.) uchun bir-biridan katta farq qiluvchi qiymatlarni qabul qilishi mumkin. Bunday hollarda jarayonlarni o'rganishda

o‘xshashlik koeffisientini aniq bilish va shu asosda xulosa chiqarish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘xshashlikning ushbu metodi modellash metodiga asos qilib olingan. Bu borada «Ilmiy modellash» (8.1.) va «Modellash yordamida baholash» (8.4.) nomli mavzularda yetarlicha ma’lumot berildi. Ushbu ishimizning mazkur qismida ularga misol keltirish bilan kifoyalanamiz.

### 1. O‘qitishni harakatchan model yordamida boshqarish

O‘qituvchida shakllangan bilim, ko‘nikma va malaka (BKM), o‘qitish vositalari hamda qurollari, ilg‘or pedagogik texnologiyalar (IPT) va boshqa mavjud imkoniyatlarini maqsadga muvofiq yo‘naltira olish qobiliyatları hamda Davlat ta’lim standartlari (DTS) talablari asosida ta’lim oluvchiga nisbatan ta’limning aniq maqsadini belgilab olish mumkin. Bu o‘z navbatida IPTni qo‘llash jarayoni rejasini iishab chiqishga, ya’ni tadqiqot vazifalarini belgilab olishga olib keladi. Belgilangan maqsad va vazifalarni e’tiborga olgan holda o‘qitishning harakatchan modeli (O‘HM) yaratiladi. O‘HMni yaratish ta’lim texnologiyasining asosiy talablaridan biridir. O‘HM o‘qitishni boshqarish tizimining asosiy rostlagichi hisoblanadi, ya’ni o‘qitish tizimini boshqarishning sifat ko’rsatkichi, harakatchan model ko’rinishi, yo’nalishi va funksiyasiga qarab o’zgarib, rostlanib boradi. O‘HM ko’rsatkichlari (parametrlari) quyidagi tamoyillar asosida o‘z vazifalarini yo’nalishi uchun o’rinlidir. Undagi bayon qilingan ketma-ketlikdan ixtiyoriy ta’lim yo’nalishida foydalanish mumkin. Bu ta’lim texnologiyasida samaradorlikni aniqlash mezoni an’anaviy ta’lim texnologiyasi bilan O‘HM ta’lim texnologiyasi solishtiriladi va natijalar uch xil ko’rinishda xulosalandi va tavsiyalar beriladi.

## **4.2-mavzu.Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o‘tkazish metodikasi va bosqichlari.**

### **Reja**

1. Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish.
2. Pedagogik tadqiqotlarni o‘tkazish bosqichlari.

**Tayanch tushunchalar:** taqqoslash, yangiliklar, samarador, tekshirish, tajriba, yo’nalish, yaratuvchi, shakllantiruvchi, tasdiqlovchi, nazorat qiluvchi, laboratoriya tajribasi, tabiiy ,aralash (majmuaviy) tajriba.

1. Pedagogik tajriba tadqiqot usullarining o’ziga xos majmui bo‘lib, u tadqiqotlar avvalida asoslangan faraz to’g’riligining ilmiy jihatdan xolis hamda

isbotli tekshiriluvini ta'minlaydi. Shuningdek, boshqa usullardan farqli o'laroq, ta'lim va tarbiya sohasidagi u yoki bu yangiliklarning samaradorligini tekshirish, mashg'ulotning yangi, yanada samarali vositalari, usullari hamda tashkil etish yo'llarini chuqurroq tadqiq etish imkonini beradi. Pedagogik tajriba o'quv-mashq jarayoni tuzilishidagi turli omillarning ahamiyatini taqqoslab, ma'lum vaziyat uchun ularning eng maqbul birikmalarini tanlash, muayyan pedagogik vazifalarni amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni aniqlashga zamin yaratadi. Tajribaning pedagogik kuzatishdan farqli jihat, shuningdek, u hodisalarni turli xil sharoitlarda o'rganish imkonini beradi, bundan tashqari, tajriba jarayonida bir hodisani bir necha bor aynan bir xil yoki sal boshqacharoq holatda tekshirish va, nihoyat, tajriba vositasida predmetni ancha aniq o'rganish, uni alohida tarkibiy qismlarga taqsimlash, ular orasida tadqiqotchini eng ko'p qiziqtiradigan qismlarni ajratib olish mumkin bo'ladi. Shunday qilib, sportda pedagogik tajriba: a) o'rganilayotgan hodisani sun'iy ravishda boshqalaridan ajratib olish; b) tekshiriluvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish sharoitlarini aniq maqsad yo'lida o'zgartirib turish, bunda olinadigan natijalarni kuzatib borish; v) o'rganilayotgan ayrim pedagogik hodisalarni o'zgartirgan holda takrorlash (taxminan xuddi shunday sharoitlarda o'sha dastur asosida muvoziy guruhlarda mashg'ulotlar o'tkaziladi, tekshiriluvchilarga ma'lum topshiriqlar ham beriladi) imkoniyatini yaratadi. Pedagogik tajriba o'quv-mashq jarayonidagi u yoki bu ob'yekтив bog'lanishlarni yuzaga chiqarishda yordam beradigan faktlarga ega bo'lish (yig'ish) uchun xizmat qiladi. Faktlarsiz tadqiqot bo'lmaydi. Akademik I.P.Pavlov «Faktlar - olimning havosi, ular bo'lmasa, siz hech qachon parvoz qila olmaysiz, ularsiz barcha nazariyalaringiz quruq chiranishdan bo'lak narsa emas», - degan edi.

2. Pedagogik tajribalarning turlari ko'p bo'lib, ular quyidagi belgilariga ko'ra tavsiflanadi: a) tajriba sharoiti amal qilishi uchun sarflanadigan vaqtga ko'ra- uzoq, yoki qisqa muddatli; b) o'rganilayotgan pedagogik hodisalarning tuzilishiga ko'ra - oddiy yoki murakkab, v) tadqiqot maqsadlariga ko'ra - pedagogik jarayonning yo'nalishini o'zgartirib yuboruvchi tajriba (u yana yaratuvchi tajriba, shakllantiruvchi tajriba deb ham ataladi) hamda tasdiqlovchi, nazorat qiluvchi tajriba; g) tajribaning tashkil etilishiga ko'ra - laboratoriya tajribasi, tabiiy hamda aralash (majmuaviy) tajriba.

Tajribaning har qanday turi: a) farazlar ichlab chiqilishini; b)tajriba ish dasturlari yaratilishini, o'quv-mashq jarayoni amaliyotiga aralashuvning usul hamda yo'l-yo'riqlari belgilanishini; v)tajriba ishini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar taminlanishini; d)tadqiqotchi tomonidan ushbu tajribada qatnashadigan barcha sportchilar tayyorlanishini: y) tadqiqotchi va tekshiriluvchilar orasida o'zaro to'g'ri munosabatlar yo'lga qo'yilishini talab etadi.

Pedagogik tajribalarni tashkil etish va o'tkazishda quyidagi talablarga rioya qilish lozim;

A) Dastlabki ma'lumotlar va farazlarni belgilab olish maqsadida o'rganilayotgan hodisalarni avvaldan sinchiklab kuzatish.

B) Tajriba o'tkazish mumkin bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish, buning uchun mos ob'yektlarni tanlash (sport zali, kontingen, jihozlar va h.k.).

V) Tajriba ishining barcha muolajalarini aniq ishlab chiqish.

G) O'rganilayotgan hodisaning (ob'yektning) rivojlanishini muntazam ravishda kuzatish va olingan ma'lumotlarni to'liq yozib borish.

D) Ma'lumotlarning turli usullar va yo'llar bilan tegishli moslamalar, sxemalar, so'rovnomalar, testlar, matematik apparatlarni qo'llagan holda muntazam ravishda qayd etib borish (imkoniyat bo'lganda o'lchash hamda baholash).

E) Takrorlanuvchi vaziyatlarni yuzaga keltirish, sharoit xususiyatlarini o'zgartirish hamda kesishma tasir o'tkazish; avval olingan ma'lumotlarni tasdiqlash (yoki inkor etish) uchun murakkablashtirilgan vaziyatlar yaratish.

J) Olingan ma'lumotlarni empirik o'rganishdan mantiqiy umumlashtirishga, tahlil etish va nazariy jihatdan qayta ishslashga o'tich. Faktlar har doim sabablarning natijasidir, ushbu sabablar esa faktlar asosida aniqlanadi.

3. Birinchi bosqichda mazkur mavzu bo'yicha ilgari chop etilgan ishlar nazariy tomondan chuqur tahlil qilinadi; hal etilishi lozim bo'lgan muammolar aniqlanadi; ushbu tadqiqot uchun mavzu tanlanadi; tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilanadi; muammoning yechimini topish bo'yicha mavjud amaliyotlar o'rganiladi; jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotida tekshirilayotgan muammoni hal qilishga yordam beradigan mavjud choralar ko'rib chiqiladi; tadqiqot farazi shakllantiriladi.

Ikkinci bosqichda qator vazifalarni bajarish kerak; tajriba ob'yektlarini zarur miqdorda tanlab olish (sportchilar, sport guruhlari, sport turlari va x.k.); tajriba qancha muddat davom etishini aniqlash; tajriba ob'yektining dastlabki holatini o'rganish uchun muayyan usullarni tanlash; usullarning qulayligi hamda samaradorligini oz sonli tekshiriluvchilar guruhida sinovdan o'tkazish; tajriba ob'yektda tegishli pedagogik taassurotlar natijasida yuz beradigan o'zgarishlar haqida hukm chiqarish mumkin bo'lgan belgilarni aniqlash.

Uchinchi bosqich asosiy hisoblanib, ishlab chiqilgan usuliyatning samaradorligini tekshirish bo'yicha tajribani o'tkazishga yo'naltiriladi. Ushbu bosqich quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi: tajriba o'tkazilayotgan tizimning boshlang'ich holatini o'rganish (sportchilarning jismoniy, texnik, taktik yoki funksional tayyorgarligi darajasi aniqlanadi); tajriba o'tkazilayotgan sharoitlarning dastlabki holatini o'rganish; taklif etilgan choralarining samaradorligi mezonlarini

shakllantirich; tajriba ichtirokchilariga uni o'tkazish tartibi hamda samaradorligi shartlari xususida ko'rsatmalar berish; tajribaning muayyan vazifani hal etish bo'yicha muallif taklif etgan tadbirlari tizimini amalga oshirish; tadbirlarning tajribaviy tizimi ostida ob'yektlarda bo'layotgan o'zgarishlarning xususiyatlarini ko'rsatuvchi oraliq tekshirish asosida olingan tajribaning borishi haqidagi ma'lumotlarni qayd qilish; tajriba o'tkazish jarayonidagi murakkabliklar hamda kuzatilishi mumkin bo'lган tipik nuqsonlarni aniqlash; sarflanadigan vaqt, mablag' hamda harakatlarni baholash.

To'rtinchi - yakunlovchi bosqich tajribadan kelib chiqadigan xulosalarni umumlashtirishga yo'naltiriladi; tadbirlarning tajribaviy tizimini amalga oshirish natijalari (sportchilar tayyorgarlik darajasining so'nggi holati, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini egallab olganliklari dariasi bayoni; tajriba ijobjiy natijalar bergen sharoitlar tavsifi; tajriba ishtirokchilarining (trenerlar, sportchilar) xususiyatlarini bayon etish; sarflangan vaqt, harakatlar hamda mablag'lar to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlash; tajribada tekshirilgan tadbirlar tizimining qo'llanish doirasini ko'rsatish.

4. Tadqiqotchi-pedagog oldida har doim shunday savollar ko'ndalang bo'ladi: tajribada nechta sportchi yoki shug'ullanuvchi qatnashishi kerak? Unda nechta o'qituvchi-trener ishtirok etishi lozim? Mazkur savollarga to'g'ri javob berish tajriba ob'yektlari miqdorining reprezentativ (hamma uchun ko'rgazmali bo'lган) tanlab olinishini amalga oshirish demakdir. Tanlab olish, birinchidan, sportchilarni qamrab olishi jihatidan e'tiborli bo'lishi kerak. Tanlab olish hajmi tajriba oldidagi vazifalarga bog'liq. Aynan shu vazifalar tanlab olishning zarur xususiyatlarini belgilaydi. Tajriba vazifalari va unga kiritilgan ob'yektlar soni o'zaro uzviy aloqada bo'lib, bir-biriga tasir ko'rsatadi. Biroq hal qiluvchi unsur, baribir, tajribaning pedagog-trener oldindan belgilab qo'ygan vazifalari hisoblanadi. Aynan ular tanlab olishning zaruriy xususiyatini belgilaydi.

Masalan, muvoziy tajribalar tashkil etilgan vaqtida (unda sportchining tezlik-kuch sifatlarini tarbiyalash usuliyatini tekshirish ko'zda tutilgan bo'lsa), bir tajriba guruhi va bir nazorat guruhi bilan chegaralanish mumkin. Tajriba guruhida ishlab chiqilgan usuliyatga muvofiq ravishda machg'ulotlar o'tkaziladi, nazorat guruhida esa odatdagi o'quv jarayoni boradi. Tajriba guruhidagi sportchilar tayyorgarlik darjasini, o'g'il va qiz bolalar tarkibiga ko'ra nazorat guruhidagi sportchilar bilan bir xil bo'lishi juda muhim. Buning ustiga, har doim tanlab olishning reprezentasiyalanganligini sportchilar, trenerlarning etiborliligi nuqtai nazaridan ham, sportchilarning muayyan guruhi uchun mumkin bo'lган natijalarning xolisligi nuqtai nazaridan ham isbot qilish talab etiladi.

5. O'ta qisqa muddatli tajriba noxolis ilmiy tavsiflarga, alohida pedagogik omillar ahamiyatining oshirib ko'rsatilishiga olib keladi. Haddan ziyod uzoq

muddat tajribachini boshqa vazifalarni hal etishdan chalg‘itadi, ishning sermehnatligini oshiradi. Shuning uchun ham har qanday tadqiqotda tajribaning eng qisqa zaruriy muddatini maxsus isbotlab berish lozim.

Buni, birinchidan, ehtiyyotkorona ilmiy-amaliy xulosalari chiqarilgan o‘xshash tajribalar o‘tkazishning ilgarigi yutuq va kamchiliklarini tahlil etish yo‘li bilan; ikkinchidan, tajribaning maqsad va vazifalarini uning zaruriy muddati (davomiyligi) bilan solishtirish yo‘li orqali amalga oshirish mumkin. Agar, masalan, tadqiqotchi kichik maktab yoshidagi bolalar tezlik-kuch xususiyatlarini o‘rganayotgan bo‘lsa, u tajribani uch yil davomida 1-2-3-sinflarni qamrab olgan holda o‘tkazishi kerak. Boshqa yosh guruhlarida ham tajribaning davomiyligi muvofiq ravishda tanlanadi. To‘g’ri, agar pedagog mazkur yosh guruhidagi barcha sinflarda bir vaqtda tajriba o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lsa va ish olib borilayotgan sinf aynan bir turli ekanligi isbotlansa, bu muddat qisqartirilishi ham mumkin.

6. Pedagogik tajribani tashkil etish va o‘tkazish chog‘ida tadqiqotchi ishga aloqador hamma narsani albatta qayd etib borishi shart.

Hujjatlarning standart shakllari yo‘q. Ular ko‘pgina omillar (tadqiqotning vazifalari, usullari va x.k) orqali belgilanadi. Lekin har qanday holatda ham tajribachi tadqiqot qaydlari kundaligini yuritishi, sportchining musobaqa faoliyati, tayyorgarligining turli jihatlari, organizmidagi har xil tizimlar tekshiruvni qaydnomalariga ega bo‘lishi, shuningdek, tekshiriluvchilarning tibbiy-pedagogik varaqalarini to‘ldirib borishi lozim.

Tadqiqot qaydlari kundaligiga pedagog o‘quvchilarga pedagogik ta’sir o‘tkazilgani to‘g’risidagi, jamoaviy, guruhli tadbirlar hamda alohida ta’sir chorralari amalga oshirilganligi haqidagi ma’lumotlarni yozib boradi. Ayni paytda, sportchilar ustida pedagogik kuzatuv olib borar ekan, pedagog ularning pedagogik ta’sirlarga munosabatini ham, hissiy qo‘zg‘alishlar, fikr bildirish, baholash, mulohazalar, faktlarni, ular ijobjiy bo‘lsa ham, salbiy bo‘lsa ham, muvaffaqiyatsizliklarning sabablarini, qayd etib borishi kerak.

Tadqiqot arafasida va u o‘tkazilgan kundagi ishchi yuklamalarini yozib borish, uyqu, umumiylahvol, shug‘ullanish istagi, ovqatlanish xususiyatlariga oid ma’lumotlarni tahlil qilich zarur. Qo’llanilayotgan tajriba amallarini yozib borish asnosida pedagog tajribaning tashkil etilishidagi nuqsonlarni bilib oladi, farazning ifodalaniishi to‘g‘riligini aniq tekshirib olish uchun kerakli o‘zgartirishlar kiritadi.

Tadqiqot qaydnomalarida quyidagilar belgilanadi: qaydnomaning tartib raqami, tadqiqotning o‘tkazilish sanasi va o‘rnini, uning o‘tkazilish vaqtini (boshlanishi va oxiri), tekshiriluvchilarning ism va familiyalari, tug‘ilgan sanasi, sport tayyorgarligi darajasi, tadqiqotning turi hamda o‘tkazilgan joyi.

7. Tajribani usuliy va texnik jihatdan tayyorlash uning g'oyasi va o'tkazish rejasidan kelib chiqadi. Uning tarkibiga tajriba o'tkazuvchi va texnik yordamchilarning tayyorgarligi ob'yektini, shuningdek, moddiy-texnik ta'minot vositalari-zaruriy jihozlar, qayd etish asboblari, kimyoviy moddalar, transport va h.k.ni tayyorlash ishlari kiradi.

Dastlabki bosqichda o'tkazilajak pedagogik tajribaning moddiy-texnik ta'minlanishiga katta e'tibor beriladi: asbob-uskunalar hamda kimyoviy moddalarni zaruriy miqdorda olish, tajriba uchun kerak bo'ladigan barcha asbob-uskunalarning ishga yaroqlilagini birma-bir tekshirish, tajribaning o'tkazilishini ta'minlovchi uskunalar majmuini o'rganish, ularni sozlash va talay ishlar shular jumlasidandir. Tajriba jarayonida o'rganilayotgan ob'yektda u yoki bu omillar ta'sirida yuz berayotgan o'zgarishlarni qayd etish usullari hamda asbob-uskunalarni tanlashga alohida ahamiyat bilan qarash kerak. Bu o'zgarishlar o'lchamlarining aniqligi umuman tajribaning «toza» o'tishini belgilaydi. Tajribani rioya qilishi shart bo'lgan ushbu qoidani doimo yodda tutishi kerak: «Tajribani o'tkazishda qo'llanadigan barcha asbob-uskunalar hamda texnik jihozlarning tayyorgarligi va ishga to'la yaroqliliga ishonch hosil qilmay turib, hech qachon tajriba o'tkazishga kirishma».

Shunday qilib, asbob (tajriba qurilmasi) - bilishning juda muhim vositasi, undan foydalanish esa empirik, shu jumladan, tajriba tadqiqotining o'ziga xos xususiyatidir.

Tajriba rejasini muvaffaqiyat bilan amalga oshirishda tajribachi va yordamchilarning usuliy hamda texnik tayyorgarligi nihoyatda katta ahamiyatga ega.

Tajribaga usuliy hamda texnik tayyorgarlik ko'rish sozlangan qurilmadagi (asboblar majmuidagi) barcha xalqalarni amalda sinab ko'rish va, ayni paytda, tajribachilar harakatlarini mashq qilib olish bilan yakunlanadi. Agar tayyorlanayotgan tajriba juda murakkab yoki yangi, hali yetarlicha chuqur o'zlashtirilmagan usuliyatga asoslangan bo'lsa, tayyorgarlik bosqichini sinov tajribasi o'tkazish bilan yakunlagan ma'qul, shunda uning barcha unsurlari uzilkesil yo'lga qo'yib olinadi.

#### **4.3.-mavzu. Pedagogik ilmiy tadqiqot ishlarini himoyaga tayyorlash va ommalashtirish.**

Reja:

1. Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi va rasmiy lashtirish qoidalari.
2. Magistrlik dissertatsiyasining dastlabki va rasmiy himoyasinio'tkazish tartibi.

**Tayanch tushuchalar:** Rejalash, sodda yoki murakkab, ob'ekti, predmeti, kombinatsiyalashgan reja, boblar, paragraflar, titul varagi, mundarija, kirish, asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar, ilovalar.

Ilmiy ish rejasi jamuljam holida uning mohiyatini aks ettiradi. Bu muallif aytmoqchi bo'lgan narsaning sxematik ifodasidir.

Reja tadqiqot jarayonida o'zgarishi mumkin, chunki ob'ektni o'rganish va ilmiy vazifa yechimining yangi jihatlari topilishi mumkin.

Rejalash sodda yoki murakkab bo'lishi mumkin. Sodda reja asosiy masalalar ro'yxatini o'z ichiga oladi. Murakkab rejada har bir bob paragraflarga bo'linadi.

Ba'zan kombinatsiyalashgan reja tuziladi, unda ayrim boblar paragraflarga bo'linadi, boshqalari esa qo'chimcha ruknlarsiz qolaveradi.

**Tadqiqot dasturi** bu aniq mavzu ustidagi bo'lg'usi ishning mohiyati va tarkibiy qismlari haqidagi aniq tasavvurdir.

#### *Faoliyatni rejalahstirishning protsessual tuzilmasi*

**Bir xillikni** aniqlash, faoliyat uchun foydalanish mumkin bo'lgan imkoniyatlar va resurslarni, shuningdek rivojlanish istiqbollarini belgilash.

Faoliyat *mazmunini* belgilash, u ideal ma'naviy ehtiyojlarni qondirish va jamiyatning faoliyat yuritishini optimallashtirish, umumiyl manfaatlarni ko'zlab har bir kishi va har bir odamlar guruhining erkin o'zini o'zi rivojlantirishi va o'z imkoniyatlarini o'zi amalga oshirishi uchun optimal shart-sharoitlarni yaratishdan iborat bo'ladi. Bunda faoliyat ob'ektni va predmetini (ob'ektga nuqtai nazar) belgilash muhimdir.

Tanlangan mazmun faoliyat strategiyasi va mazmuni bo'ladi.

Faoliyat maqsadlarini topish (taktika): aniq vazifalarning bosqichma-bosqich amalga ochirilishi.

Faoliyat tamoyillarini belgilash: tarixiylik, politsentrizm, ko'p o'lchamlilik, an'analar va yangilanishning birligi, integratsiya va differensiatsiyaning o'zaro aloqasi, qadriyatlar borasidagi bag'rikenglik, dialogchilik, legitimlilik, insonparvarlik. Faoliyat *yo'nalishlarini* tanlash: faoliyat ob'ekti va predmetiga qarab tanlanadi va unga har tomonlama ta'sir ko'rsatishni ta'minlashi kerak yoki, juda bo'limganda, ob'ektning eng muhim tomonlariga daxl qilishi lozim.

Faoliyat vazifalarini ifodalash: faoliyat nihoyasida kutilgan natijalarni olish uchun yechilishi lozim bo'lgan aniq muammolar va masalalar va faoliyatning strategik mazmunining tegishli yo'nalishlarda mujassamlashtirilishi

#### *Magistrlik dissertatsiyasi rejasingning tuzilishi*

variantlar

116

**Birinchisi** — tanlangan mavzuni boshlang'ich asos qilib olish va uning asosida maqsad va

**Ikkinchisi** — to'plangan materialga asoslanish, uning

## ***Magistrlik dissertatsiyasi rejasining tuzilmasi va mazmuniy ko'rsatkichlari***

**Kirish** - mavzu va uning ahamiyatining asoslanishi, nima uchun ayni shu mavzuning tanlangani, unga qiziqish nima bilan bog'liqligi sabablari izohini o'z ichiga oladi. So'ngra tanlangan mavzu bo'yicha adabiyotlar sharhi beriladi.

Kirishda muallif o'z oldiga qo'ygan maqsad va bu maqsadni amalgaloshirishga xizmat qiladigan vazifalar aniq ifodalanadi, muammoni hal etish metodologiyasi ko'rsatiladi.

**Asosiy qism.** Uch bo'limdan iborat bo'ladi:

a) muammoning nazariy fikrdan o'tkazilishi;

b) asosiy qismning birinchi bo'limida bayon qilingan nazariyani dalillar asosida tasdiqlaydigan empirik, faktik materialning bayon qilinishi; iqtisodiy amaliyotni tahlil etish va muammolarni ilgari surish;

v) muallifning tadqiqot muammosini hal etish bo'yicha tavsiyalari.

**Xulosa** Muammo ustidagi mushohada natijalari, ich muallifi chiqargan xulosalar, shuningdek bunday xulosalarning amaliyot uchun yoki muammoning keyingi o'rganilishi uchun ahamiyatining baholanishini o'z ichiga oladi.

**Rejaga talablar:**

a) masalalar tanlangan mavzuga muvofiq bo'lichi va uning doirasidan chetga chiqmasligi kerak;

b) mavzu masalalari mantiqiy izchillikda joylashishi kerak;

v) rejaga tadqiqotning asosiy jihatlarini aks ettiradigan mavzu masalalari kiritilishi kerak;

g) mavzu har tomonlama tadqiq qilinishi lozim.

## ***Rejalashtirish turlari***

- **Ishchi rejasi** – tadqiqotning qoralama nusxasi, u keyinchalik aniq belgilarga ega bo'ladi. Izchil bo'limlar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanish ishchi rejasining yaroqliligining zaruriy shartidir.

- **Reja-prospekt** – mantiqiy tartibda joylashgan masalalarning referativ bayoni, keyinchalik ular bo'yicha butun to'plangan faktik material bir tizimga solinadi.

- **Taqvimiylar** – ilmiy-tadqiqotchilik ishidagi asosiy bosqichlarning tadqiqot rejasi (dasturi)ga, ishlarni bajarishning taqvimiylar muddatlar, moddiy xarajatlariga (reja-grafik) muvofiq bir tartibda bayon qilinishi

N t\r	Ish bosqichining asosiy mazmuni	Natijalar	Bajarilis hi muddati
1	Tadqiqot predmetining belgilanishi	Mavzuning tanlanishi	25 sentyabr
2	Kutubxona fondlari va elektron resurslar bilan tanishish	Bibliografik ro'yxat tuzilgan	sentyabr
3	Ilmiy ish mavzuining rahbar tomonidan tasdiqlanishi	Mavzu tasdiqlangan, ilmiy rahbar tayinlangan	oktyabr
4	Manbalar va hujjatlarning yig'ilishi va o'rganilishi	Hujjatlar va manbalar topilgan va o'qib chiqilgan, bibliografik ro'yxat to'ldirilgan, ko'chirmalar, konspektlar, referatlar bajarilgan	sentyabr – yanvar
5	Ish tuzilmasining belgilanishi	Ilmiy ish rejasi tuzilgan	15 oktyabrgacha
6	Ayrim qismlarning yozilishi	Manbalar va adabiyotlar sharhi yozilgan, ishning ayrim po'limlarining qoralama	tahlil - 1 dek.; 1-bob - 1 yanvar.;

		husxalari bajarilgan	2-bob - 1 fevral.; 3-bob - 1 mart
7	Ishning umumiy xulosalarining ifodalanishi	Ishning har bir qismining xulosalari ifodalangan, xulosa yozilgan	15 mart
8	Ma'ruza tezislari matnining yozilishi	Tezislar tayyorlangan va rahbarga topshirilgan	15 mart
9	Ish nomi, maqsadlari, asosiy vazifalarining aniqlashtirilishi va ularning xulosalarga muvofiqligi	Kirish yozilgan, ish nomiga, ish maqsadlari va vazifalarini ifodalariga o'zgartirishlar kiritilgan	30 mart
0	Ish matni qoralama husxasining tayyorlanishi va rahbarga taqdim etilishi		
1	Tuzatishlar kiritilishi	Ilmiy rahbarning fikr-mulohazalari hisobga olingan	10 aprel
2	Ishning rasmiylashtirilishi	Oxirgi variant qog'ozga tushirilgan	20 aprel
3	Konferensiyada ma'ruza qilish	Ma'ruza qilindi	24-25 aprel
4	Ishning topshirilishi	Ish topshirildi	30 aprel

### ***Ilmiy tadqiqot (magistrlik ishi) ning namunaviy taqvimi***

Magistrant ishlarni bajarishning mantiqiy ketma - ketligini shunday qura bilishi kerakki, bunday navbatlilik belgilangan muddatlarda qo'yilgan maqsadga erishishga va ilmiy vazifaning hal etilishiga olib kelishi kerak. Ishda shu vaqtida

diqqat-e'tibor to'planishi kerak bo'lgan asosiy narsa ajratib ko'rsatilishi kerak, lekin shu bilan birga detallar e'tibor doirasidan chetda qolib ketmasligi lozim.

#### **4.2.Magistrlik dissertatsiyasini rasmiylashtirich va himoya qilish**

Dissertatsiya ishining muayyan kompozitsion tuzilishi an'anaviy tarzda qaror topgan, uning asosiy elementlari quyidagi tartibda joylashgan bo'ladi:

1. Titul varag'i
2. Mundarija
3. Kirish
4. Asosiy qism (3 bob)
5. Xulosa
6. Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati
7. Ilovalar.

##### ***Titul varag'i va mundarija***

**Titul varag'i** dissertatsiya ishining birinchi sahifasi hisoblanadi va qat'iy belgilangan qoidalar bo'yicha to'ldiriladi.

Titul varag'idan keyin **mundarija** joylashtiriladi. Boblar va paragraflarning shu yerda ko'rsatilgan nomlari, shuningdek, ularning izchilligi dissertatsiya matni va dissertatsiyaning mantiqiy sxemasiga mutlaqo mos bo'lishi kerak.

Kirishda dissertatsiya tadqiqotining metodologik apparati o'z aksini topadi. U himoyaga tayyorlangan dissertatsiya ishining keng annotatsiyasi shaklida rasmiylashtiriladi.

Kirich odatda dissertatsiya umumiy hajmining 10-15% ni tashkil etadi.

Kirishda quyidagilar aks ettiriladi:

##### **Tadqiqot mavzuining dolzarbliyi.**

Dissertatsiyaning kompozitsion tuzilishi nuqtai nazaridan olganda mavzu dolzarbligining asoslanishi kirish qismining taxminan bir sahifasini egallashi va uchbu mavzuga nima uchun ayni hozir murojaat qilishning maqsadga muvofiqligi, ilmiy va amaliy zarurat nimadan iboratligi, tadqiqot predmeti haqidagi hozirgi ilmiy tasavvurlarning qanday holatda ekanligi izohlab berilishi kerak.

##### **Tadqiqot maqsadlari va vazifalari.**

Bu dissertatsiya tadqiqotining strategiyasi va taktikasidir. Dissertatsiya tadqiqotining maqsadini ifodalashda shuni nazarda tutish kerakki, dissertatsiya uchinchi bobining nomi va mazmuni maqsadni ochib berishi lozim. Vazifalarning sanab o'tilishi implitsit ravishda butun ish matnining rejasi va ichki mantig'ini beradi.

## **Muammoning ishlab chiqilganlik darajasi.**

Bu yerda ushbu muammoning turli jihatlari bilan shug'ullangan mamlakatdagi va chet ellardagi olimlarni sanab o'tish, yetarli darajada yoritilmagan masalalarni qayd qilish kerak. Muallif mavzuni yaxshi o'zlashtirganligi, ilmiy matnlar va bibliografik material bilan ishslash uslubini egallaganligini namoyish etishi, bundan oldingi tadqiqotchilar va zamondoshlarning bu muammo yechimiga qo'shgan hissasini to'g'ri baholay olishini tasdiqlahhi lozim.

*Mabodo bu muammo yetarli darajada yaxshi o'rganilgan bo'lsa, unda mazkur muammoga mavjud nuqtai nazarlarning tasnifini taklif qilish yanada yaxshi bo'ladi. Agar muammo yaxshi o'rganilmagan, olimlarning diqqatini o'ziga jalb etmagan bo'lsa, unda buni qayd qilib o'tish kerak bo'ladi, chunki bunda ijod qilish imkoniyati yanada kengayadi.*

Pirovard natijada adabiyotlar tahlili ayni shu mavzuning hali ochib berilmaganligi (yoki faqat qisman ochib berilganligi yoki boshqa jihatdan ochib berilganligi) va shuning uchun bundan keyin ishlab chiqilishi zarurligi to'g'risidagi xulosaga olib kelishi kerak.

## **Tadqiqotning ilmiy yangiligi.**

Bu yerda tadqiqot jarayonida asosiy xulosa sifatida olingan, to'g'ri qo'yilgan masaladan va bu masalaga javob beradigan tadqiq etilgan zaruriy va yetarli holatlardan mantiqan kelib chiqadigan fikrlar qisqacha bayon qilinadi. Bu aniqlangan yangi fakt, qo'yilgan vazifaning asosli yechimi, yangi ma'lumotlarning ilmiy muomalaga olib kirilishi, ma'lum faktning yangicha sharoitlar uchun tasdiqlashi bo'lishi mumkin. Yangilikni olingan natijani ma'lum bo'lgan natijalar bilan solishtirish orqali ko'rgazmali tarzda ko'rsatish ham mumkin.

## **Tadqiqot ob'ekti va predmeti.**

Tadqiqot ob'ekti va predmeti o'zaro bir-biri bilan umumiyligi va xususiy sifatida o'zaro nisbatda bo'ladi. Ob'yeqtda uning tadqiqot predmeti bo'lib xizmat qiladigan qismi ajratib ko'rsatiladi. Dissertantning asosiy e'tibori ayni shu narsaga qaratiladi, aynan tadqiqot predmeti dissertatsiya ishining titul varag'ida sarlavha sifatida ifodalangan mavzuini belgilaydi.

## **Ishning nazariy va amaliy ahamiyati.**

Dissertatsiyada tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati quyidagi shakllarda ifodalanishi mumkin:

1) Nazariy va metodologik tusga ega tadqiqotlarda ishning ahamiyati – tadqiqot asosiy natijalarining ilmiy maqolalarda, monografiyalar, darsliklarda e’lon qilinishida; tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq qilinganligi haqidagi mualliflik guvohnomalari, hujjatlarning mavjudligida; tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy konferensiyalar va simpoziumlarda sinovdan o’tkazilishida; ilmiy ishlanmalarining oliy va o’rtalik maxsus o’quv yurtlaridagi o’quv jarayonida qo’llanilishida; xalq xo’jaligining u yoki boshqa tarmog’ini rivojlantirishga doir davlat va mintaqaviy dasturlarning ishlab chiqilishida ishtirok etishda; tadqiqot natijalarining yangi me’yoriy va uslubiy hujjatlarning tayyorlanishida qo’llanilishida.

2) Uslubiy yoki amaliy tusga ega tadqiqotlarda – bu ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, yuridik tartibga solich va shu kabi tizimlarini takomillashtirishga doir takliflar; iqtisodiy mexanizmni, ijtimoiy jarayonlarni boshqarishni va shu kabilarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar; vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, birlashmalar yoki bochqa manfaatdor tashkilotlarning foydalanishi uchun tasdiqlangan yoki tavsiya etilgan me'yoriy va uslubiy hujjatlar.

### ***Ishning tuzilishi.***

Dissertatsiya ishining kirish, .... (soni) bob, ... (soni) paragraflar, shuningdek, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ... (soni) manbalar, ... (soni) ilovalardan iborat ekanligi ko'rsatiladi.

### ***ASOSIY QISM***

Dissertatsiya asosiy qismining boblarida o'rganiladigan hodisalar va faktlar batafsil ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi. Asosiy qism boblari va paragraflari matnida sarlavhalar imkonи boricha asosiy so'zlardan (ya'ni asosiy ma'no yukini tashuvchi) iborat bo'lisi kerak. Bunday so'zlar so'z yuritilayotgan predmetni aks ettiradi yoki bu predmetning umumiy tavsifnomasini beradi. Uchbu sarlavhalar aniq, lo'nda bo'lisi va paragraf mazmunini aniq aks ettirishi kerak.

#### **I Bob.**

Mavzuning umumiy nazariy muammolari, shunga o'xhash vazifalarni hal etish nazariyasi va amaliyoti holatining tahlilini, ma'qul bo'ladigan yechimlarning ko'niktirilishi ehtimoli uchun xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish natijalarini o'z ichiga oladi. Bu bobda dissertant deduksiyadan foydalanib, umumiyyidan xususiyga qarab ilmiy tadqiqot o'tkazadi, bunda xususiy hollarning butun bir turkumidan bunday hollarning butun jami uchun umumlashtirilgan xulosa chiqariladi.

#### **II Bob.**

Dissertant bu yerda magistrlik dissertatsiyasini ishlab chiqish uchun asos qilib olingan korxona, tashkilot va birlashmaning qisqacha tavsifnomasini beradi, nima yuz bergenligi, nima uchun boshqacha emas, aynan shunday bo‘lganligi, qaysi omillar qanday ta’sir qilganligini anglab olishga harakat qiladi. Umumlashmalar, xulosalarni tahlil, dalillarni ishlab chiqish jarayonidan ajratish amalda mumkin bo’lmaydi. Shunga qaramasdan, tahlil bilan umumlashma ajralib turadi.

Tegishli paragraflarda quyidagilar mantiqiy izchillikda joylashtiriladi: tadqiqot ob’ektining funksiyalari, vazifalari va yo‘nalishi, tashkiliy tuzilmasi, boshqarish tizimi, uning tashqi va ichki omillarining o’ziga xos xususiyatlari, tadqiqot ob’ektining texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlari. O’tkazilgan tahlil asosida tadqiqot ob’ektidagi mavjud kamchiliklar va muammolar aniqlanadi.

Shunday qilib, o’rganiladigan hodisalar va faktlar batafsil ko‘rib chiqiladi va tahlil qilinadi, tadqiqotning uslubiyoti va texnikasi bayon qilinadi. Bu yerda faktlarni ishslash va bir tizimga solishga alohida e’tibor qaratiladi. Fakt muayyan «faktik bilim» sifatida ko‘rib chiqiladiki, uning funksiyalarini butun ilmiy bilishda ilmiy tadqiqot mantiqi aniqlashi kerak bo‘ladi. Faktlar qo’yilgan vazifani hal etish uchun yig’iladi. Shuning uchun yig’ilgan faktlar soni muayyan ma’noda optimal bo’lishi kerak. Faktlarni tahlil etish jarayoni – bu xususiy xulosalarning uzluksiz tizimi bo’lib, ular birlashib, muayyan manzarani hosil qiladi. Butunni qismlarga ajratish, elementlarni o’rganish bilan dissertant uzluksiz ravichda umumlashtiradi. U predmet, vaziyatni ko‘rib chiqqanida umumlashma chiqaradi, buning orqasida nima turishini qayd qiladi. Bobning har bir parografi bayon qilingan material yuzasidan umumlashmalar bilan yakunlanishi lozim.

### **III Bob.**

O’rganilgan tizim va o’tkazilgan tahlil asosida qo’yilgan tadqiqot maqsadiga muvofiq, tegishlicha sxema bo'yicha ifodalash bilan tadqiqot ob’ektini rivojlantirishning eng oqilona, samarali yo’llarini taklif etish va iqtisodiy jihatdan asoslab berish, iqtisodiy samarani belgilash kerak bo‘ladi.

Ushbu bobda o’tkazilgan tahlil asosida takliflarni pedagogik jihatdan asoslash lozim.

*Asosiy qism qo’yilgan vazifalarga muvofiq bo’lishi kerak.*

*Hatto asosiy qismni qo’yilgan vazifalar soniga teng paragraflar (kichik bo’limlar) soniga bo’lich ham mumkin*

*Xulosalar qo’yilgan vazifalarga bevosita mos kelishi kerak. Agar bunday muvofiqlik bo’lmasa, unda ana shunday muvofiqlikka erishish uchun kirishga yana qaytish va vazifalarni qaytadan ifodalash lozim.*

*Ba'zan ish nomini o'zgartirishga ham to'g'ri keladi, lekin bunday holda uni (yangi nomni) rahbar bilan kelishib olish zarur.*

## **XULOSA**

Dissertatsiya ishi o'tkazilgan tadqiqot natijasi aks ettiriladigan xulosa bilan yakunlanadi. Magistrlik dissertatsiyasining bu bo'limi odatda umumiyl ish hajmining 10-15% ni tashkil etadi.

Dissertatsiya ishida uning ayrim boblari ham xulosalar va takliflar bilan yakunlanishi mumkin, lekin ularning eng muhimlari butun ishning oxirida, «Xulosa» bo'limida aks ettirilishi kerak. Olingan natija bu xulosalar sifatida ifodalanadigan vazifalar yechimidir.

Xulosa o'tkazilgan tadqiqot mantiqi bilan bog'liq bo'lган xotima rolini bajarib, u asosiy qismda to'plangan ilmiy axborotlar sintezi shaklida bo'ladi. Bunday sintez olingan yakunlarning izchil, mantiqiy tekis bayoni va ularning kirishda qo'yilgan va ifodalangan umumiyl maqsad va aniq vazifalar bilan o'zaro nisbatidir.

Demak, dissertatsiyaning yakunlovchi qismi o'tkazilgan tadqiqotdan olingan natijalarning oddiy bir ro'yxati emas, balki ularning yakuniy sintezidir, ya'ni ish muallifining muammoni o'rganish va hal etishga kiritgan yangilikning ifodasidir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

Ushbu ro'yxat dissertatsiyaning amaldagi qismlaridan birini tashkil etadi va dissertantning mustaqil ijodiy ishini aks ettiradi.

Bunday ro'yxatga kiritilgan har bir adabiy manba dissertatsiya qo'lyozmasida aks ettirilishi kerak. Agar ish muallifi o'zlashtirilgan qandaydir faktlarni qayd qilsa yoki boshqa mualliflar asarlaridan parcha keltirsa, unda u albatta keltirilgan materiallarning qayerdan olinganligini satr ostida ko'rsatib o'tishi kerak.

Dissertatsiya matnida qayd qilinmagan va amalda ishlatilmagan ishlarni bibliografik ro'yxatga kiritmaslik kerak. Bu ro'yxatga ensiklopediyalar, bildirgichlar, ilmiy-ommaviy kitoblar va gazetalarni kiritish ham tavsiya qilinmaydi. Bunday nashrlardan foydalanishga zarurat bo'lsa, unda ularni dissertatsiya ishining matnida satrlar ostidagi ko'chirmalarda ko'rsatish kerak.

## **ILOVALAR**

Dissertatsiya asosiy qismi matnini shishirib yuboradigan yordamchi yoki qo'shimcha materiallarni o'z ichiga oladi.

#### **4.4 Ishni rasmiylashtirishga asosiy talablar**

##### **1. Dissertatsiyani yozish va rasmiylashtirishning asosiy qoidalari**

Magistrlik dissertatsiyasiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri- bu uning to'g'ri rasmiylashtirilishi bo'lib, bu nafaqat ish sifatini yaxshilaydi, shu bilan birga uning muvaffaqiyatini ham ta'minlaydi.

Magistrlik dissertatsiyasi o'zbek, rus va ingliz tillarida tayyorlanishi mumkin.

Magistrlik dissertatsiyasi ilmiy ish hisoblanadi, shuning uchun uning yozilishi va rasmiylashtirilishiga asosiy talablar nomzodlik dissertatsiyasiga talablarga yaqinlashtirilishi kerak.

Materialning aniq va izchil bayon qilinishi dissertatsiyani yozishning asosiy tamoyilidir.

Yangi fikrni boshlaydigan iboralar xat boshidan boshlab yoziladi.

Matnning tugallanmagan qismlarini boshqa sahifalarga o'tkazishga yo'il qo'yilmaydi.

Agar matnda boshqa manbalardan olingan materiallar ishlatsa, unda ko'chirmachilikda ayblanmaslik uchun ular manbaini albatta matnda qayd qilish kerak.

Ko'chirmalar sahifa tagida xat boshi bilan yoki qizil satr bilan teriladi. Agar bir necha manba qayd qilinsa, unda ular izchil tartibda raqamlanadi.

Magistrlik dissertatsiyasining umumiy hajmi kompyuterda 1,5 interval bilan terilgan, oq qog'ozga (A4, 210-297 mm) tushirilgan 60 dan 80 sahifagacha (kamida 10000 so'z) bo'lishi kerak.

Dissertatsiya tadqiqoti **matni hoshiyalari o'lchamlari:**

yuqorisi - 20 mm,

pastkisi - 20 mm,

o'ng - 10 mm,

chap - 25 mm.

*Sahifaning tartib raqami yuqoridagi o'ng burchakda qo'yiladi.*

Magistrlik dissertatsiyasi standartlarga muvofiq keladigan bosmaxona usulida muqovalangan bo'lishi kerak.

## ***Boblar va sarlavhalar nomlarining rasmiylashtirilishi***

Dissertatsiya tadqiqotining har bir bobi yangi sahifadan boshlab yoziladi.

Bobning nomidan keyin paragrafning sarlavhasi qo'yiladi.

Bob yoki sarlavhalarning nomi asosiy matndan qo'shimcha interval bilan ajratib yoziladi.

Boblar va paragraflar nomlari xatboshisidan yoziladi, nuqta qo'yilmaydi, tagiga chizib, ta'kidlanmaydi va bochqa betga ko'chirilmaydi. Agar bunday nomlar ikki yoki undan ko'proq gaplardan iborat bo'lsa, unda ularning o'rtasiga nuqta qo'yiladi.

Bob nomi bilan matn o'rtasidagi interval 15 mm bo'lichi kerak, bob bilan paragraf nomlari o'rtasidagi interval - 8 mm bo'ladi.

Paragraflar arabcha raqamlar bilan raqamlanadi. Paragraf raqami oldidan bob raqami yoziladi, so'ngra paragraf raqami va nomi qo'yiladi. Raqamlar oxirida nuqta qo'yilmaydi (1.1).

## ***Titul varag'ini rasmiylashtirish***

Dissertatsiya titul varag'ini rasmiylashtirish quyidagi talablarga muvofiq bo'lishi kerak:

- dissertatsiya nomi - shrift 16;
- muallifning familiyasi, ismi - shrift 14;
- malaka - shrift 14.

Dissertatsiya ishi mavzuining nomi, magistrantning familiyasi, ismi, otasining ismi, «magistrlik dissertatsiyasi» iborasi va yil katta harflar bilan yoziladi.

Shriftni tanlashda faqat Times New Roman yoki Arial shriftlaridan foydalanish maqbuldir.

## ***Matndagi qaydlar, ko'chirmalar va o'zlashtirilgan parchalarni rasmiylashtirish***

Ishning bayoni jarayonida magistrant mazmun shartlariga muvofiq joylashtirilgan jadvallar, rasmlar, misollar, sxemalar, formulalar va boshqa elementlarni qayd qilib o'tishi mumkin, bunday qismlar o'zлari tegishli bo'lган matn bilan yonma-yon qo'yimasligi ham mumkin.

Boshqa manbalardan o'zlachtirilgan ma'lumotlar sahifa ostida izoh tarzida ko'rsatib o'tiladi. Izoh asosiy matndan uzun chiziq bilan ajratiladi va arabcha<sup>1,2,3</sup> raqamlari bilan raqamlanadi yoki \*\*\* kabi yulduzchalar bilan qayd qilinadi.

Dissertatsiya matnida ko'pincha boshqa mualliflar aniqlagan faktlarni qayd qilish yoki o'zlashtirilgan materialni matnga kiritishga to'g'ri keladi. O'zlashtirilgan parchalarni bayon ishida rasmiylashtirish shakllari xilma-xil, lekin nutqdagi akademik etiket bir qator barqaror nutq shtamplarini ishlab chiqqanki, ular o'zlashtirilgan material manbaini aniqroq va qisqaroq tarzda ko'rsatichga yordam beradi.

Boshqa manbalardan olingan barcha materiallarni izohda ko'rsatish kerak. Masalan: (5. 42-bet).

### ***Misollar:.***

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi PF-4947-soni “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni<sup>1</sup>

Mirziyoyev.Sh.M Buyuk kelajakni mard va olижаноб xalqimiz bilan birga quramiz. T.:O'zbekiston. 2017.(103 b)

### ***Statistik materiallar, tahliliy va ishchi jadvallarini rasmiylashtirish***

Magistrlik dissertatsiyasida statistik materiallar, tahliliy va ishchi jadvallari beriladi.

Statistik materiallar matnda bayon qilingan axborotni qayd qilish uchun ishlataladi.

Tahliliy jadvallar umumlashtiruvchi xulosalar va izohlarni talab qiladi. Ma'lumotlari ilgari matbuotda e'lon qilingan jadvallardan foydalanishda ushbu o'zlashtirilgan materialning ayni qaysi manbaida keltirilganligini izohda albatta ko'rsatish kerak. Agar matnda xorijiy tillardagi takliflar, qo'shimchalar yoki so'zlar mavjud bo'lsa, unda ular to'liq yozilishi kerak.

Ishlatilgan grafiklar, sxemalar, diagrammalar, rasmlar rasm ostidagi yozuv bilan to'ldirilishi lozim.

### ***Foydalaniqan manbalarni bayon qilish qoidalari***

Ishda foydalanilgan adabiyotlarning bibliografik ro'yxati ishning oxirida joylashtiriladi. Adabiyotlar bibliografik bayonda quyidagi izchillikda joylashtiriladi:

- qonunlar, me'yoriy-uslubiy hujjatlar va materiallar;
- mamlakatimizda va chet ellarda bosilgan ilmiy adabiyotlar (darsliklar, o'quv qo'llanmalari, monografiyalar, ilmiy maqolalar, ilmiy broshyuralar va hokazo);
- statistik, yo'riqnomaviy materiallar va tashkilotlar va korxonalar hisobotlari;
- internet – resurslar.

Har bir boshlang'ich manbalar bo'yicha quyidagilar ko'rsatiladi:

- muallif familiyasi, so'ngra uning ismi-sharifi;
- kitob nomi;
- shahar nomi;
- nashriyot nomi;
- bosilgan yili.

Agar kitob mualliflari uch va undan ortiq kishilardan iborat bo'lsa, unda birinchi muallifning familiyasi, ismi-sharifini ko'rsatib, so'ngra "va boshqalar" deb qo'yish ham mumkin.

Shaharlar nomlari qisqartirmasdan bosh kelishikda yoziladi. Moskva, Leningrad, Sankt-Peterburg va Toshkent kabi shaharlar nomlarini qisqartirib yozish mumkin: Moskva - M., Leningrad - L., Sankt-Peterburg - SP., Toshkent - T. Agar kitob ikki shaharda bosilgan bo'lsa, unda ikkalasi ham yoziladi, masalan, M., L.

Agar kitobni ikki nashriyot chiqargan bo'lsa, unda har ikkala nashriyot nomi ham yoziladi, masalan: T.: «Fan», «Ekonomika».

Davriy matbuot haqidagi ma'lumotlarda quyidagilar ko'rsatiladi:

- muallifning familiyasi, ismi-sharifi;
- maqola nomi;
- jurnal yoki gazeta nomi;
- seriya nomi;
- jurnal yoki gazetaning bosilgan yili;
- jurnal yoki gazeta jildi va raqami;
- sahifa raqami.

Ilmiy izlanish hisobotlarini bayon qilishda quyidagilar ko'rsatiladi: hisobot nomi (so'ngra, qavs ichida «hisobot» so'zi yoziladi); hisobotni chiqargan tashkilotning shifri, inventar raqami, nomi, ilmiy rahbarning familiyasi, ismi-sharifi, hisobotning chiqarilgan joyi, yili va sahifalari soni.

## DISSERTATSIYA HIMOYASI

### *Magistrlik dissertatsiyasini himoyaga tayyorlash tartibi*

Dissertatsiyani texnik rasmiylashtirish ishi tugallanganidan keyin magistrant magistraturadagi ta’lim olishning oxirgi va hal qiluvchi bosqichi - magistrlik dissertatsiyasini himoyaga tayyorlashga lozim darajada e’tibor berishi kerak. Bunday tayyorgarlik, avvalo, himoya bilan bog‘liq hujjatlar va materiallarning rasmiylashtirilishini o’z ichiga oladi.

Mualliflik annotatsiyasi.

***Misol:***

***Namangan davlat universiteti***

**Fakultet:** *Magistratura*

**Magistr:** \_\_\_\_\_

**Kafedra:** *Maktabgacha ta’lim metodikasi*

**Ilmiy rahbar:** \_\_\_\_\_

**O‘quv yili:** *2019/2020*

**Magistrlik dissertatsiyasi mavzui: Maktabgacha yoshidagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik tizimi**

**KIRISH** (magistrlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati** O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasida maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual., axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish, maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayoniny tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko’rib chiqish hamda maktabgacha ta’lim xizmatlarini ko’rsatishning zamonaviy usullarini joriy etish, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiyligini boshlang’ich ta’limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o’z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozimligi masalasiga alohida urg’u berilgan.

Amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida bolalar faoliyatini integratsiyalash, pedagogik-psixologik xususiyatlarini ochib berishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini integratsiyalash omili sifatida ma’naviy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-son "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-son "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi,

2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-son "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Muammoning o'r ganilganlik darajasi.** Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni har tomonlama rivojlantirishga oid tadqiqotlar respublika pedagog, psixolog va faylasuf olimlar: D.A.Abdurahimova, M.K.Abduhakimova, O'.K.Adamova, Z.Azizova, M.Asqarova, M.Asqarxo'jaeva, M.Yu.Ayupova, P.Yusupova, N.X.Begmatova, D.G.Boboeva, U.Bo'taeva, K.Oqilova, F.B.Valixo'jaeva, F.R.Qodirova, T.S.Usmonxo'jaev, S.T.Islomova, M.Fayzullaeva, Z.Rahimova, M.Rustamova, D.J.SHaripova, Q.S.SHodieva, SH.SHodmonova, M.A.Abdullaeva va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) olimlaridan Ye.A.Avilova, A.Arushanova, M.Bakina, E.Bern, N.A.Vasil'eva, L.M.Volobueva, Yu.V.Gippenreiter, A.A.Goldovskaya, N.N.Jirnova, O.L.Zvereva, T.F.Kuznetsova, Ye.K.Lyutova, G.B.Monina, A.S.Makarenko, N.A.Menchinskaya, Ye.Meteleva, Ye.Kachmasheva, N.N'yukomb, L.A.Paramonova, Ye.Yu.Protasova, V.A.Slastenin, A.I.Miščenko, O.Solntseva, A.Fomina va boshq. tomonidan amalga oshirilgan.

Bolalarning ijtimoiy hayotga moslashish imkoniyatlarini kengaytirish asosida ularni xar tomonlama rivojlantirish masalalari xorijlik olimlar – turli soha vakillari: J.D'yui, A.Kirsten, Keyt Berk Uolsh, M.Montessori, Jan [Piaje](#), A.Hachfeld, A.Yvonne; S.Kuger, K.H.Xristiane, von Steinbueche, H.Gibbons, R.Kramer, G.V.Leonidova, I.I.Svirelkina, M.Ljubesi, S.Simlesa, Z.Seer va boshqalar tomonidan o'r ganilgan.

**Tadqiqot maqsadi** maktabgacha yoshdag'i bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik tizimini takomillashtirishdan iborat.

## **Tadqiqot vazifalari**

Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash ijtimoiy-pedagogik zaruriyat ekanligini nazariy-empirik jihatdan asoslash;

Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash borasidagi xalqaro tajribani tahlil qilish;

Maktabgacha yoshdagi bolalarni faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari va pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tavsiflash;

Bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash modelini ishlab chiqish;

Integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga yo'naltirilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish;

Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasini takomillashtirish;

**Tadqiqot ob'ekti** sifatida maktabgacha katta va tayyorlov guruh yoshidagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik jarayonlari bo'lib, Namangan, Andijon va Sirdaryo viloyatlaridagi (jami 7 ta) maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borildi.

**Tadqiqot predmeti** maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mazmuni, nazariy-pedagogik tizimi.

**Tadqiqot usullari** Tadqiqot jarayonida ko'zlangan maqsadlarga erishish va qo'yilgan vazifalar yechimini topish uchun pedagogik kuzatuv, tanqidiy-qiyosiy tahlil, so'rovnoma, test, matematik-statistik tahlil, natijalarni umumlashtirish usullaridan kompleks foydalanildi

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning baholash mezonlari va xaritasi, indeksi orqali aniklashtirilgan;

xalqaro tajribalardagi maktabgacha yoshdagi bolalar integrallashgan faoliyatning kontseptual yo'nalishlarini komparativ tahlili asosida bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmi takomillashtirilgan;

bolalar faoliyatining ma'naviy-axloqiy tarbiya vositasida rivojlantirish modeli sub'ektlar faoliyati (o'yin, ijtimoiy, bilish, mehnat)ga oid xaritalar, integrativ-variativ dasturlari mazmuni asosida takomillashtirilan;

maktabgacha yoshdagibolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga xizmat qiladigan ("Ilk qadam" davlat o'quv dasturi

asosida ilg'or tajribalar, badiiy adabiyotlarni o'rganish, umumlashtirish va ulardan foydalanish yo'llarini ishlab chikilgan;

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasini tashxislash texnologiyasi takomillashtirilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning didaktik shart-sharoitlari tizimlashtirilgan;

"Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik tizimi" nomli monografiya va "Katta va tayyorlov guruhlar uchun integratsiyalashgan mashg'ulotlar ishlanmalari" ("Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida), metodik qo'llanma, "Maktabgacha ta'limni integratsiyalash" nomli o'quv qo'llanma maktabgacha ta'lim amaliyotiga joriy etilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash modelidan foydalanishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoga falsafiy, metodologik, metodik, psixologik va pedagogik yondashuvlarga hamda maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga doir milliy tajriba, respublikamiz va chet ellik olimlar, shuningdek, kommunikativ faoliyatni tashkil etishga doir ilg'or ish tajribalarga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi metodlarning qo'llanilganligi, tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor, shuningdek, sifat jihatidan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan nazariy-empirik yondashuvlar, qarashlar, ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilganligi, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga yo'naltirilgan didaktik vaziyatlar mazmuni, printsiplari, shakllari, vositalari, usullari va metodlari, pedagogik-psixologik imkoniyatlari takomillashtirilganligi, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning didaktik, psixologik xususiyatlari, mazmuni, vositalari, usullari va metodlari bilan boyitilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mavzuga oid ta'lim-tarbiyasini tashkil etishda maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini integratsiyalash jarayonida

ma’naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasi pedagogik-psixologik diagnostikasi, bolalar faoliyatini integratsiyalash modelining qo’llash imkoniyatlarining kengaytirilgani hamda oliy o‘quv yurtlarining mактабгача та’лим pedagogikasi, pedagogika nazariyasi, tarbiyaviy ishlар nazariyasi va metodikasi kurslari mazmunini boyitishi, malaka oshirish kurslari dasturlarini takomillashtirishda, MTT mutaxassislari ish tajribasini ommalashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 13 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o’tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 5 ta ilmiy maqola, shundan 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda 2 tasi respublika konfrensiya materillarida chop qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 86 betni tashkil qiladi.

Statistik, tahliliy material respublikaning tegishli oliy o‘quv yurtlarida kurslarini o’qitishda qo’llanilishi mumkin.

**Ilmiy rahbar** \_\_\_\_\_  
**Magistr** \_\_\_\_\_

### **Taqrizlar va baholarning olinishi**

Magistrlik dissertatsiyasi majburiy tartibda taqriz qilinadi. Opponent dissertatsiya tadqiqoti bajarilgan ilm sohasi mutaxassislari ichidan tayinlanadi. Opponent taqriz qilinayotgan dissertatsiyaning mohiyati va asosiy qoidalarining malakali tahlilini o’tkazishi, shuningdek, tanlangan mavzuning dolzarbliji, uning olib berilishiga yondashuvning mustaqilligi, o’zining nuqtai nazari borligi, ilmiy tadqiq qilish uslublaridan foydalanish mahorati, xulosalar va tavsiyalarning aniqligi darajasi, olingen natijalarning ichonchliligi, ularning yangiligi va amaliy ahamiyatini baholashi kerak.

Ishning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda uning kamchiliklari, jumladan, faktik xatolari va shu kabilar ham qayd qilinadi. Taqriz hajmi odatda kompyuterda terilgan ikki sahifadan besh sahifagacha matndan iborat bo‘ladi.

### **Magistrlik dissertatsiyasini himoya qilichga kafedra mudirining ruxsatini olish.**

Lozim darajada rasmiylashtirilgan magistrlik dissertatsiyasi taqrizlar bilan birga (ikki nusxada) kafedraga taqdim etiladi. Kafedra bu ishni ko’rib chiqib, oldindan himoya qilish kuni va vaqtini tayinlaydi. Oldindan himoyadan o’tgan

magistrlik dissertatsiyalari kafedraning majlisi bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi va ommaviy himoyaga tavsija etiladi.

### **10-15 minutlik ma’ruzaning tayyorlanishi.**

Magistrant ilmiy rahbar va tashqi opponentning taqrizlarini, shuningdek, kafedra mudirining magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish uchun ruxsatini olganidan so’ng 10-15 minutlik ma’ruzani tayyorlashga kirishadi.

### **Magistrlik dissertatsiyasiga taqriz va baholarga talablar**

Magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbarning taqrizi va opponentning tashqi taqrizi beriladi. Ilmiy rahbar va opponentning taqrizlarida bir qator masalalarining majburiy tartibda yoritilishi nazarda tutiladi.

#### **Ilmiy rahbar taqrizining mazmuni:**

Dissertatsiya mavzuining dolzarbliji, magistrlik dissertatsiyasi mavzuuning magistrantning asosiy ishi bilan bog’liqligi darajasi

Muallifning magistrlik dissertatsiyasi maqsadlari va vazifalarini yoritishi darajasi

Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy yangiligi

O’tkazilgan tadqiqot natijalarining asoslanganligi

Tadqiqotchining ilmiy tahlil qilish qobiliyatining qisqacha tavsifnomasi

Magistrant xulosalari va tavsiyalarining sifati

Dissertatsyaning magistrlik dissertatsiyasiga qo’yiladigan talablarga muvofiqligi

#### **Opponent taqrizi quyidagilarni aks ettirishi kerak:**

1. Dissertatsiya mavzuuning dolzarbliji.
2. Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy yangiligi.
3. Tayyorlangan dissertatsyaning amaliyot uchun ahamiyati.
4. Magistrlik dissertatsiyasi mazmuni va tugallanganligining bahosi.
5. Materialni bayon qilish uslubi va tili.
6. O’tkazilgan tadqiqotning ilmiy va amaliy qimmati.
7. Dissertatsyaning magistrlik dissertatsiyasiga qo’yiladigan talablarga muvofiqligi.

Taqrizlarda ishning ijobiyligi tomonlari bilan bir qatorda undagi xatolar va kamchiliklar ham qayd qilinadi.

### **Magistrlik dissertatsiyasining ommaviy himoyasini o'tkazish rusum-qoidalari**

Magistrlik dissertatsiyasining himoyasi ommaviy shaklda o'tadi, ilmiy munozara tusida bo'ladi va yuksak talabchanlik, prinsipiallik va ilmiy etikaga rioya qilish vaziyatida o'tadi. Dissertatsiyaning himoyasi paytida Davlat attestatsiya Komissiyasi raisi dissertatsiyaning nomini e'lon qiladi, uning muallifining familiyasi, ismi-sharifini ma'lum qiladi, shuningdek ishda zarur hujjatlarning mavjudligini bildiradi, magistrantning «ta'limiy va ilmiy tarjimai holini», uning o'zlachtirishi, mabodo mavjud bo'lsa, e'lon qilgan maqolalarini qisqacha tavsiflaydi.

So'z magistrantning ilmiy rahbariga beriladi. Ilmiy rahbar o'z nutqida magistrantning dissertatsiya ustida olib borgan ishga munosabatini ohib beradi, shuningdek attestatsiya komissiyasi, ilmiy rahbarning bergen savollari xususida o'z fikrini bildiradi, raislik qiluvchi ilmiy rahbarning dissertatsiya ishi haqidagi yozma xulosasini davlat attestatsiya komissiyasi a'zolariga o'qib beradi.

So'ngra magistrantning o'ziga so'z beriladi. Magistrant nutqini oldindan tayyorlagan ma'ruzasi asosida quradi (imkonni boricha uni yoddan aytib bergani ma'qul). Tadqiqot natijalarini ma'lum qilish uchun unga 15 minutgacha vaqt beriladi.

Ma'ruza tadqiqotning metodologik bazasini, qo'yilgan vazifalar yechimi natijalari va dissertatsiya mavzui bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Magistrant asosiy diqqat-e'tiborini o'tkazilgan tadqiqotning asosiy yakunlari, o'zi shaxsan ishlab chiqqan yangi nazariy va amaliy qoidalarga qaratadi. Zarur bo'lganida tayyorlangan slaydlar, jadvallar va grafiklar namoyish qilinishi mumkin.

Nafaqat magistrant nutqi matnining mazmuni, hhu bilan birga nutqning o'zi ham himoya muvaffaqiyatini oldindan belgilab beradi. Magistrant nutqi aniq, imloviy jihatdan to'g'ri, tuchunarli va ifodali bo'lichi kerak. U hamma savollarga ishonch bilan, ilmiy dalillar asosida javob berishi, erkin nutq qoidalariiga amal qilishi kerak.

Magistrantning nutqidan keyin raislik qiluvchi bajarilgan dissertatsiyaga rasmiy opponentning taqrizini o'qib beradi va opponet bildirgan fikrlarga o'z javobini aytishi va opponentning xulosalari hamda tavsiyalari yuzasidan fikrmulohazalarini bayon qilishi uchun magistrantga so'z beradi. Shundan so'ng muhokama va ilmiy munozara jarayoni bochlanadi. Davlat attestatsiya komissiyasi a'zolari dissertatsiyada ko'tarilgan muammolar, tadqiqot uslublari bo'yicha har qanday savollarni berishi, tadqiq etish tartib-qoidalalarini va tajriba ishi natijalarini aniqlashtirishi mumkin.

Bunday savollarga javob berishda faqat ish mohiyatiga daxl qilinishi lozim. Magistrant o'zining ilmiy natijalarini baholashda kamtarinlik va Davlat attestatsiya komissiyasi a'zolariga nisbatan ehtiromli munosabat namoyon qilishi zarur.

Javob berishdan oldin savolni diqqat bilan tinglach va zarur bo'lganida savolni yozib olishi kerak. Har bir berilayotgan savolga imkonli boricha izchillik bilan javob qaytarish lozim, savollarning hammasini eshitib bo'lib, faqat shundan keyin birdaniga javob berish yaramaydi. Munozara tugaganidan so'ng magistrantga yakunlovchi so'z berilishi ham mumkin.

Davlat attestatsiya komissiyasi a'zolarining yopiq majlisida himoyaga yakun yasaladi. Bunday qaror komissiya a'zolari ovozlarining oddiy ko'pchiligi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lib qolganida raisning ovozi hal qiluvchi bo'lib hisoblanadi. So'ngra rais majlisda ishtirok etuvchilarga dissertatsiyasini himoya qilgan tadqiqotchilarga magistrlik akademik darajasining berilishini bildiradi va komissiya majlisini yopiq, deb e'lon qiladi.

## XULOSA

1. Ushbu o'quv qo'llanma Oliy ta'limda maktabgacha ta'lim mutaxasisligi bo'yicha taxsil olayotgan magistrlarni ilmiy pedagogik faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi. OO'YUNing innovatsion, fundamental, izlanish, amaliy ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil qilish va olib borish konsepsiysi va qoidalarini belgilaydi.

OO'YUdagi maktabgacha ta'lim mutaxasisligi bo'yicha ilmiy tadqiqot faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

2. Maktabgacha ta'lim mutaxasisligi bo'yicha yangi bilimlarni yaratish, yangi texnologiyalarni egallash, fan va texnikaning muhim yo'nalishlarida ilmiy ta'limlarni shakllanishi va rivojlanishi uchun asos sifatida fundamental va amaliy tadqiqotlar rivojining istiqboli;

3. Oliy ta'limda maktabgacha ta'lim mutaxasisligini shakllanishi va rivojining nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qilish va ishlab chiqish; ta'lim va tarbiya vazifalarini hal etishda ilm ta'sirini kuchaytirish, oliy ta'lim rivoji uchun fan xususiyatini belgilovchi bazisni saqlab qolish va mustahkamlash;

4. Maktabgacha ta'lim mutaxasisligi bo'yicha malakali mutaxassis va oliy toifali ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash ishini ta'minlash;

5. Professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlar bilan hamkorlikda magistrlarni ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish yo'li bilan mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish;

6. Ilm bilan bog'liq maktabgacha ta'lim mutaxasisligi bo'yicha yuqori natijalar uchun innovatsiya faoliyatini rivojlantirish;

7. maktabgacha ta'lim mutaxasisligi bo'yicha ayrim tadqiqotchilar, intellektual mulki va mualliflik huquqlarini himoya qilish uchun sharoitlar yaratish;

8. Fan va ta'limning jahon darajasiga chiqish uchun xorijiy mamlakatlarning o'quv yurtlarining maktabgacha ta'lim mutaxasisliklari bilan xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. – T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017. – 592 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz // O‘zR Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutq. – T.: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta’minalash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2017. – 24-b.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” //Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997. – 31-61-b.
5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2014. – 48 b.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni //Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997. – 20-29-b.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi (2017 yil 13 sentyabr) Qarori //lex.uz/docs/3338600.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi Farmoyishi // <http://uza.uz/oz/documents/kitob-masulotlarini-chop-etish-va-tarqatish-tizimini-rivojlantirish-12-01-2017>.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi (2017 yil 7 fevral) Farmoni // [http://lex.uz/pages/getpage.aspx?act\\_id=3107036#3109146](http://lex.uz/pages/getpage.aspx?act_id=3107036#3109146).
10. . Karimov I.A. «Yuksak bilimli va intellektul rivojlangan avlodni tarbiyalach – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti» mavzusidagi xalqaro konferensianing yakuniy hujjati – rezolyusiyasi (Tochkent shahri, 2012 yil 16-17 fevral). /“Xalq so‘zi”, 2012 yil 22 fevral.
11. Maydanov A.S. Metodologiya nauchnogo tvorchestva.-M.,2008.

12. .Zimnyaya I.A. Nauchno-issledovatelskaya rabota: metodologiya, teoriya, praktika organizatsii i provedeniya. -M., 2000.
13. Rahmatullaev Ch. Ilmiy tadqiqot asoslari. –T., 2002.
14. Sabitov R.A. Osnovi nauchnix issledovaniy. Uchebnoe posobie. – Chelyabinsk, 2002.
15. Shermuhamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. –T., 2009. – 436 b
16. Magistrarlarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash. O'quv qo'llanma. Nizomiy nomidagi TDPU, T.: 2000 y.
17. .Saifnazarov, B.Qosimov "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi". T.: "Yangi asr avlodi", 1999 yil.
- 18.V.Xodjayev,A.Choriyev,Z.Saliyeva.Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik.T.:IQTISODIYOT-DUNYOSI NASHRIYOTI.2018-190
- 19.R.Qodirova Bitiruv malaka ishi: tayyorlash va himoya qilish. O'quv uslubiy qo'llanma. T.: Nizomiy nomidagi TDPU 2003 y.
- 20.J.Yuldashev va b.q Pedagogik texnologiya asoslari. O'quv qo'llanma T.: «O'qituvchi», 2004 y.
- 21.Anufriev A.F. Nauchnoe issledovanie: kursovie, diplomnie i dissertatsionniye raboti. – M., 2002.
- 22.Burgardt F. Novie gorizonty v issledovanii poeticheskogo stilya. -Kiev: Naukovo Dumka, 1995.
- 23.Dadaboev H. Tilchunoslik nazariyasi va metodologiyasi. – T., 2003.
- 24.Esengalieva V.A. Kak pisat nauchnyu rabotu? Metodicheskie rekomendatsii aspirantam, soiskatelyam i studentam.-Alma-Ata: Izd. KazGU 1990.
- 25.Yoqubova M. Jamiyat taraqqiyotida axborotlashuv va axborot texnologiyalarining ahamiyati. –T.: Universitet, 2006. -28 b.
- 26.Zimnyaya I.A. Nauchno-issledovatelskaya rabota: metodologiya, teoriya, praktika organizatsii i provedeniya. -M., 2000.
- 27.Irisqulov M. Lingvistik tahlil metodlari /Tilshunoslikka kirish. –T., 1992.
- 28.Kuzin F.A. Magistrskaya dissertatsiya: metodika napisaniya, pravila oformleniya, poryadok zashchity. -M., 1990.
- 29.Normatov U. Ijodkorning daxlsiz dunyosi.-T.:«Mumtoz so'z»,2008.

30. Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. Ответственный редактор – Б.А.Серебренников. -М., 1973.
29. Rahmatullaev Ch. Ilmiy ish olib borich asoslari (konspektiv kurs). -T.: TochDU nashriyoti, 1988.
- 30 .Sultanova T. Problemy razvitiye intellektualnogo potensiala nezavisimoy Respublikи Uzbekistan. Avtoref. diss.... kand. filos.nauk.-T.: 1995.-18 s
- 31.Tulenov J.T. Dialektika. -T.: O‘zbekiston, 2000.-180 b.
- 32.Tulenov J.T.Dialektika nazariyasi. –T.: Fan, 2001.
- 33 .Tulenova K.J. Predvidenii i realnost. –T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 1998. -141 b.
- 34.Turachbekova A.K. Nauchnoe mirovozrenie i ego vliyanie ne formirovanie stilya mychleniya tvorcheskoy intellegensii. Avtoref. diss... kand.filos.nauk.-T.: Ped institut, 1990. -19 s.
- 35 .Falsafa. Qisqacha izohli lug‘at. -T.: Sharq, 2004. –384 b.
36. Falsafa. Qomusiy lug‘at . -T.: Sharq, 2004. -468 b.
37. Fayzullaev O. Intuitsiya va instinkt // Falsafa va fan metodologiyasi. –T.: Falsafa va huquq. 2006. –B. 52-55.
- 38.Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti.-T.: “Sharq”, 2004.
39. Sharipov M., Fayzixo‘jaeva D. Mantiq. –T.: Universitet, 2005, -262 b.
40. Shelling F.V. Filosofiya iskusstva -M.: Nauka, 1996. –180 s.
- 41.Shleyermayer F. Dialektika. –M.: AST, 1992. -270 s.

### **Internet ma’lumotlari: Internet saytlari**

11. www. tdpu. uz
- 12.www. pedagog. uz
13. www. Ziyonet. uz
- 14.www. edu. uz
15. tdpu-INTRANET. Ped

## GLOSSARY

**Abstraktlashtirish** – boshqa barcha parametrlarni hisobga olmasdan bitta ajratilgan parametrni alohida holida ko’rib chiqadigan tadqiqotchilik uslubi.

**Dolzarblik** – ushbu muammoning hozirgi fan va amaliyot uchun o’rganilishining muhimligi; dolzarblik darajasi global tusda (fan, jamiyat ehtiyojlari, umuman amaliyotni qamrab olishi) yoki lokal tusda (fanning alohida tarmog’i, alohida mintaqa, muayyan tusdagi ijtimoiy institutlarni va shu kabilarni qamrab olishi) bo’lishi mumkin.

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji** – bu uning ijtimoiy nazariya va amaliyot uchun kerakli ekanligi bo’lib, fanda ko’pincha oldingi nazariy tasavvurlar doirasiga yaqqol joylashmaydigan yangi faktlarning kashf qilinishi natijasida vujudga keladigan vaziyatning mavjudligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot dolzarbligini asoslash** - ilmiy bilishning umumiy jarayoni sohasida mazkur mavzuni o’rganish zaruratiniz izohlashni bildiradi.

**Tahlil** – bu tadqiqotning nazariy uslubi bo’lib, tadqiq qilinayotgan jarayon yoki hodisani maxsus va teran mustaqil o’rganish uchun uni tarkibiy qismlarga ajratishni nazarda tutadigan fikriy operatsiyadir.

**Analogiya** – o’xshachligi, prototipi tanlanadigan fikriy operatsiya.

**Annotatsiya** - titul varag’ining orqasida joylashgan, qandaydir nashr haqidagi qisqacha axborot; hujjat, uning bir qismi yoki hujjatlar guruhining vazifasi, mazmuni, shakli va bochqa xususiyatlari nuqtai nazaridan tavsifnomasi.

**Suhbat** – empirik uslub bo’lib, javob beruvchi bilan shaxsiy aloqani nazarda tutadi.

**Ilmiy mavzular turlari:** amaliy, aralash, nazariy.

- Amaliy mavzular xo’jalik amaliyotini o’rganish, umumlashtirich va tahlil qilish asosida ishlab chiqiladi.
- Aralash mavzular tadqiqotning nazariy va amaliy jihatlarini o’zida mujassamlashtiradi.
- Nazariy mavzular asosan adabiy manbalardan foydalanib ishlab chiqiladi.

**Faraz (gipoteza)** (qadimgi grek tilidan - asos, taxmin) — oldindan o’rganilgan faktlar, hodisalar, jarayonlarning muayyan majmuiga asoslangan,

ularni izohlash uchun ilgari suriladigan va tasdiqlanishi yoki inkor etilishi lozim bo'ladigan nazariy taxmin.

**Tadqiqot farazi** - bu bevosita kuzatilayotgan hodisa, o'rganilayotgan hodisaning tuzilishi yoki uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi aloqalar tusi haqidagi ilmiy asoslangan taxmindir. Farazlar mavjud faktlar asosida ishlab chiqiladi. Xulosa sifatidagi faraz ob'ektiv voqelikda o'z ildizlariga ega bo'ladi, fikrning bevosita kuzatilayotgan hodisalardan ularning sababli izohlanishigacha bo'lган harakati hisoblanadi.

**Deduksiya** - fikrlashning umumiyligi qonuniyatlardan xususiy faktlarga tomon rivojlanishini nazarda tutadigan fikriy operatsiya.

**Dissertatsiya (lotinchadan tarjimasi** - tadqiqot, mushohada) - muayyan ilmiy (akademik) malakani (darajani) olish maqsadida maxsus tayyorlangan, ommaviy muhokamaga va himoyaga qo'yiladigan asar.

**Magistrlik dissertatsiyasi** - magistrni tayyorlash bo'yicha asosiy kasbiy ta'lim dasturiga o'qitichning yakunlovchi bosqichida talaba-magistrant tomonidan ilmiy rahbar rahbarligida mustaqil bajariladigan ilmiy yo'nalishdagi tugatish malaka ishi.

**Sarlavha:** ilmiy adabiyotda mavzuni bildiradi.

**Tadqiqot vazifasi** - bu ilgari surilgan farazga muvofiq maqsadga erishish uchun yo'llar va vositalarning tanlanishidir.

**Ideallashtirish** – tadqiqotchining nuqtai nazarida hodisa yoki jarayonning ideal obrazini, ya'ni nazariy modelning yaratilishi; farazlarni ishlab chiqishda qo'llaniladi.

**Induksiya** - xususiy faktlarni umumlashtirish mantig'iga asoslangan fikriy operatsiya.

**Tasniflash** – o'rganiladigan ob'ektlar, faktlarni o'rganishning nazariy uslubi; hodisalarni bir-biriga nisbatan tartibga solishga asoslanadi.

**Aniqlashtirish** - abstraktlashtirishga teskari jarayon, yaxlit, o'zaro bog'liq, ko'p tomonlama ob'ektning topilishini nazarda tutadi.

**Konspekt** - asosiy xulosalar va qoidalar, faktlar, dalillar, usullarni o'z ichiga oladi; tuzuvchining materialga nisbatan munosabatini aks ettiradi. Konspektlar turlari: *Rejali* - oldindan tayyorlangan reja yordamida tuziladi: uning har bir bandiga konspektning tegishli qismi mos keladi. *Tahliliy* – ko'pincha bir necha

manbadan foydalanib aniq mavzuni ochib beradi *Erkin* – ko'chirmalar, ba'zan tezislar aralashmasidan iborat bo'ladi. *Matnli* – ko'pincha mantiqiy o'tishlar bilan bog'langan ko'chirmalardan tashkil topadi. *Tematik* - matnning butun mazmunini aks ettirmaydi, faqat muayyan, aniq mavzuni ishlaydi, qo'yilgan savolga javob beradi. *Xronologik* - hodisalarning o'zini ko'rsatich asosida ularning xronologik izchilligini aks ettiradi.

**Iqtisodiyot magistri** - bu keng bilimli mutaxassis bo'lib, u ilmiy ijod metodologiyasi va uslubiyotini, zamonaviy axborot texnologiyalarini egallagan; turli xil iqtisodiy axborotlarni tahlil etish va sintez qilish malakasiga ega bo'ladi.

**Magistratura** - magistrarlarni, ya'ni ilmiy-tadqiqotchilik va ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlangan mutaxassislarni tayyorlash shaklidir.

**Ilmiy tadqiqot uslubi** – bu muayyan bilish maqsadini hisobga olgan holda muayyan bilish vazifalarini hal etishga qaratilgan aqliy va (yoki) amaliy operatsiyalar (rusum-qoidalar) tizimidir.

**Tadqiqot uslubiyoti (texnologiyasi)** – tadqiqot usullarining bir tizimli majmui, tadqiqot uslublari, usullari, texnikalarini qo'llanish va ular yordamida olingan natijalarini talqin qilish qoidalari tizimi. Uslubiyot o'rganiladigan ob'ekt xarakteriga, tadqiqot metodologiyasi, maqsadlariga, ishlab chiqilgan uslublar, tadqiqotchi malakasining umumiylarini bog'liq bo'ladi.

**Metodologiya** - bu ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining ilmiy tamoyillari va usullari tizimi haqidagi ta'limot.

**Modellashtirish** — tadqiqotchilikning modelning qurilishini nazarda tutadigan nazariy uslubi.

**Monitoring** — bu tadqiqot natijalarining doimiy nazorat qilinishi, muntazam kuzatib borilishi.

**Kuzatish** - eng ko'p axborotli tadqiqot uslubi bo'lib, u bo'lgan va o'rganilayotgan jarayonlar va hodisalarni chetdan turib ko'rishga imkon beradi.

**Ilmiy muammo** – bu ilmiy-tadqiqotchilik ishi mavzuini belgilaydigan murakkab nazariy va (yoki) amaliy vazifalar majmuidir. Muammo tarmoq, tarmoqlararo, global bo'lishi mumkin.

**Ilmiy ish** - bochqa har qanday ishdan o'zining maqsadi yangi ilmiy bilimni olishi bilan farq qiladi. Ayni shu ish jarayonida voqelik haqidagi ob'ektiv bilimlar ishlab chiqiladi va bir tizimga solinadi.

**Ilmiy mavzu** – bu yechimini talab qiladigan murakkab vazifadir. Ilmiy-tadqiqotchilik ishi mavzui mauyyan ilmiy yo‘nalishga yoki ilmiy muammoga tegishli bo‘lishi mumkin.

**Ilmiy yo‘nalish - deganda** tadqiqot o‘tkazish sohasidagi fan, fanlar yoki ilmiy muammolar majmui tushuniladi.

**Yangilik** – fanning shu tarmog‘iga yoki umuman fanga ulush darajasi; natijalar har xil tusda bo‘lishi mumkin –natijalar yoki ularning bir qismi yangi bo‘lishi mumkin, shuningdek natijalarning katta qismi yangilik sifatida qayd qilinmasligi ham mumkin.

**Tekshirish** - bu tadqiq qilinayotgan ob’ektning u yoki boshqa darajadagi teranlik va detallashtirich bilan o‘rganilishi bo‘lib, bu tadqiqot maqsadlari va vazifalari bilan belgilanadi.

**Umumlashtirish** - muhim fikriy operatsiyalardan biri bo‘lib, uning natijasida ob’ektlar va ular munosabatlarining nisbatan barqaror xususiyatlari ajratiladi va qayd qilinadi.

**Tadqiqot ob’ekti** - bu muammoli vaziyatni yuzaga keltiradigan muayyan jarayon yoki hodisa, bu muammoning o’ziga xos tashuvchisi, tadqiqotchilik faoliyati yo‘naltirilgan narsa.

**Tadqiqotning ob’ektlı sohasi** – bu fan va amaliyotning tadqiqot ob’ekti joylashgan sohasi bo‘lib, amaliyotda u masalan, matematika, biologiya, iqtisodiyotning u yoki bochqa ilmiy ixtisosligiga muvofiq bo‘lishi mumkin.

**Mundarija:** mavzu bayonining rejasi, kitobning ko’rsatkichi.

**Tajriba ishi** – birmuncha yuksak natijalarni olishni ko’zlab jarayonga oldindan belgilangan o’zgarishlar, innovatsiyalarni kiritish uslubi.

**Reja** – eng qisqa yozuv bo‘lib, u fikr bayonining izchilligini aks ettiradi va umumlashtiradi; matnning mazmunini ochib beradi; manbaning mazmunini xotirada qayta tiklaydi; konsekt va tezislar o‘rnini bosadi; har xil yozuvlarni (ma’ruza, axborot, hisobot) tuzishga yordam beradi; bajarilgan yozuvni yaxshilaydi; o’zini-o’zi nazorat qilishni tezlashtiradi; e’tiborni jamlaydi; yaxshi tanish bo’lgan matnni xotirada jonlantirish uchun ishlatiladi.

**Ilmiy ish rejasi** - jamuljam holida uning mohiyatini aks ettiradi. Bu muallif aytmoqchi bo’lgan narsaning sxematik ifodasidir.

**Amaliy ahamiyati (qimmati)** – mazkur tadqiqotchilik ishi natijalaridan amaliyotda foydalanish tusi.

**So‘z boshi** - muallif qo‘ygan vazifalar bayoni; nashr yoki qayta nashrning zaruratini asoslaydi.

**Tadqiqot predmeti** - ob’ektning aniq bir qismi bo‘lib, uning ichida izlanish olib boriladi. Hodisalar, ularning ayrim tomonlari tadqiqot predmeti bo’lichi mumkin. Tadqiqotchi ilmiy izlanishlar natijasida tadqiqot ob’ekti haqida oladigan yangi ilmiy bilim sifatida belgilash mumkin.

**Referatlar turlari-** axborotchilik (referat – konspektlar), indikativ (referat – rezyume), monografik, tahliliy.

**Referatlash:** qandaydir masalaning bir yoki bir necha manbalarnng tasniflanishi, umumlashtirilishi, tahlili va sintezi asosida bayon qilinishini nazarda tutadi.

**Sintez** - fikriy operatsiya, uning jarayonida aniqlangan elementlar va faktlardan yaxlit manzara qayta tiklanadi.

**Bildirgichli apparat:** tuchuntirilishi lozim bo‘lgan tushunchalar, atamalar, faktlar va shu kabilarga izohlar.

**Qiyoslash** - ob’ektlarning o‘xshashligi va farqlarini, umumiyligi va alohidaligini aniqlash maqsadida ob’ektlarning qiyoslanishini nazarda tutadi.

**Maqola** – bu mustaqil ilmiy tadqiqot bo‘lib, u dolzarb ilmiy muammo bo‘yicha o‘z fikrlarini bayon qilishdir.

**Tezislar:** o‘qib chiqilgan (yoki og’zaki bayon qilingan) parchani takrorlaydi, lo’nda ifodalaydi va xulosalaydi; har doim dalillarga ega bo’ladi, mazmun mohiyatini aniqlaydi; materialni umumlashtirish imkonini beradi; maqola, ma’ruza, dissertatsiyani tanqidiy tahlil etishda qimmatlidir.

Tezislar turlari: *oddiy* – ko’pincha ko’chirmalardan iborat bo‘ladi, *asosiy* – odatda muallif tomonidan mustaqil ifodalanadi, *murakkab* – o’zida ikki turdag‘ yozuvni chatishtiradi.

**Nazariy asos** – mazkur tadqiqot tayanadigan konseptual qoidalar (g’oyalar, tamoyillar).

**Muammoning ifodalanishi** — bu, o‘z mohiyatiga ko’ra, ilmiy tadqiqot mazmunining kristallashtirilishidir. Shuning uchun muammoning to’g’ri qo‘yilishi — butun ish muvaffaqiyatining garovidir.

**Tadqiqot maqsadi** - bu tadqiqotchi o'z ishini yakunlashda erishishni xohlagan pirovard natijadir. Faraz asosida ifodalanadi.

**Mutolaa** – bu nutqiy faoliyatning murakkab turi bo'lib, sof texnik jihatiga mutolaa qilish va tez o'qish malakalarini orttirish va ijodiy jihatiga – matndan zarur axborotlarni olishdan iborat.

**O'rghanish uchun mutolaa** – mutolaaning faol turi. Asarni diqqat bilan, ayrim joylari ustida biroz to'xtalib va axborotlarni mushohadadan o'tkazib o'qish hollarida bunday tur ishlataladi.

**Matn bilan tanishib (tanlangan joylarni o'qish)** - necha manbalardan ayrim masalalarni ajratib olish, shuningdek mazkur masala bo'yicha o'zining nuqtai nazarini hosil qilish maqsadida olingan axborotlarni qiyoslash va solishtirish uchun qo'llaniladi.

**Ko'zdan kechirish uchun mutolaa** - Matn bilan tanishib chiqish va o'rghanishdan oldin odatda kitobga ko'z yogurtirib chiqiladi. Kitobning mazmuni, boblar yoki paragraflar nomlari, asar muallifi bilan tanishib olish shunday qilinadi.

**Tajriba** - umumiy empirik tadqiqot uslubi bo'lib, u boshqariladigan sharoitda o'rghanilayotgan ob'ektlar ustidan qat'iy nazorat yuritilishiga asoslanadi.

**Esse** – bu muallifning alohida individual pozitsiyasiga ega erkin shakldagi bayon bo'lib, qandaydir buyum yoki qandaydir sabab bo'yicha umumiy yoki oldindan bildirilgan fikr-mulohazalardan iboratdir.

**Dalillangan esse** – bu qo'yilgan savolga dalillangan javob mavjud bo'lган yozma ishdir. Muallif muayyan pozitsiyaga ega va uni himoya qiladi, o'z pozitsiyasini quvvatlash uchun bir qator dalillarni taqdim etadi. Maqsad – muallif o'zi qo'llaydigan nuqtai nazarga boshqalarni ham ishontirishni xohlaydi.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>5</b>
--------------------	----------

### **I-MODUL.PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY ASOSLARI**

Pedagogik tadqiqotlarning mazmuni .....	10
Pedagogik tadqiqotlarning asosiy kategoriyalari va tushunchalari .....	26
Pedagogik tadqiqotlarda ilmiy dalillar va ularningroli.....	42

### **II MODUL.METODOLOGIK APPARAT VA TADQIQOT SIFATINI TA'MINLASH**

Pedagogik muammonitanlash va pedagogik tadqiqot mavzularini shakllantirish	
Pedagogik tadqiqotlarning obyekti va predmeti.....	57
Pedagogik tadqiqotlarning maqsadi va vazifalari.....	61
Ilmiy tadqiqotning farazi.....	68

### **III MODUL. MAKTABGACHA PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING METODOLOGIK TAMOYILLARI**

Maktabgacha pedagogik tadqiqotlarning tamoyillari.....	72
Pedagogikilmiy-tadqiqot metodlarini tasniflash muammolari.....	83
Adabiyotlar, arxivmateriallarinio‘rganish.....	87

### **IY-MODULPEDAGOGIKILMIY-TADQIQOT ISHLARINI TASHKILETISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH**

Pedagogik ilmiy-tadqiqot jarayonininimodellashtirish.....	104
Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o‘tkazish metodikasi vabosqichlar....	108
Pedagogik ilmiy tadqiqot ishlarini himoyaga tayyorlash vaommallashtirish.....	112

<b>XULOSA.....</b>	<b>134</b>
--------------------	------------

<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>137</b>
------------------------------------------------	------------

<b>GLOSSARIY .....</b>	<b>140</b>
------------------------	------------

## **СОДЕРЖАНИЕ**

<b>ВВЕДЕНИЕ .....</b>	<b>5</b>
-----------------------	----------

### **МОДУЛЬ I. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ**

Содержание и сущность педагогического исследования .....	10
Основные категории и понятия педагогического исследования .....	26
Научные доказательства и их роль в педагогических исследованиях ....	42

### **МОДУЛЬ II. МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ОБОРУДОВАНИЕ И КАЧЕСТВО ИССЛЕДОВАНИЙ**

Выбор педагогической проблемы и формирование тем педагогического исследования.....	57
Объект и предмет педагогического исследования .....	57
Цели и задачи педагогического исследования .....	61
Гипотеза научного исследования.....	68

### **МОДУЛЬ III. МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ДОШКОЛЬНОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ**

Принципы дошкольного педагогического исследования .....	72
Проблемы классификации методов педагогического исследования.....	83
Изучение литературы, архивов .....	87

### **IV МОДУЛЬ. ОРГАНИЗАЦИЯ И ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ**

Моделирование процесса педагогического исследования .....	104
-----------------------------------------------------------	-----

Методы организации и проведения педагогического исследований.....	108
-------------------------------------------------------------------	-----

Подготовка и объединение педагогических исследований для защиты .....	11
-----------------------------------------------------------------------	----

<b>ЗАКЛЮЧЕНИЕ .....</b>	<b>134</b>
-------------------------	------------

<b>СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ .....</b>	<b>137</b>
--------------------------------	------------

<b>ГЛОССАРИЙ .....</b>	<b>140</b>
------------------------	------------

